γ - величина переднего угла сверла, град;

P_z и P_N - тангенциальная и нормальная составляющие силы резания, Н;

F_{m3} N_3 - сила трения и нормальная сила, действующие на площадке контакта задней поверхности инструмента с изделием, Н, равные

$$F_{T3} = N_3 = 0.252 \cdot \sigma_B \cdot b \cdot l_3 \text{ (Н)} \quad (4)$$

где,

σ_B - предел прочности на растяжение обрабатываемого материала, МПа;

l_3 - длина контакта инструмента и заготовки, мм;

b – ширина стружки, мм, определяемая из выражения [1]

$$b = \frac{t}{\sin \varphi} \text{ (мм)} \quad (5)$$

где

t - глубина резания, мм.;

φ - главный угол в плане, град.

Толщина стружки рассчитывается по формуле [1]

$$a = S \cdot \sin \varphi \text{ (мм)} \quad (6)$$

глубина резания при сверлении равна половине диаметра сверла:

$$t = \frac{d}{2} \text{ (мм)} \quad (7)$$

d - диаметр сверла, мм.

Тангенциальная составляющая силы резания определяется по формуле

[7]

$$P_z = 0.9 \cdot \sigma_s \cdot S \cdot t \cdot (1 + \operatorname{ctg} \theta) \text{ (Н)} \quad (8)$$

где

s_z -подача на зуб сверла, в мм/зуб;

θ - угол скалывания, град.

Подача на зуб сверла находится из формулы

$$S_z = \frac{S}{2} \left(\frac{\text{мм}}{\text{зуб}} \right) \quad (9)$$

s - осевая подача, мм/об.

Угол скалывания рассчитывается по формуле

$$\theta = 25^\circ + \gamma_N (\text{град}) \quad (10)$$

где

γ_N - передний угол в нормальной секущей плоскости, град.

Подставим преобразования (6), (7), (9) и (10) в формулу (8) и получим

$$P_z = 0.9 \cdot \sigma_B \cdot \frac{\alpha}{2 \cdot \sin \varphi} \cdot \frac{d}{2} \cdot (1 + \text{ctg} [25 + \gamma_N]) \text{ (Н)} \quad (11)$$

Нормальная сила при сверлении

$$P_N = P_z \cdot \text{tg}(45 - \theta) \text{ (Н)} \quad (12)$$

Преобразуем с учётом (2.11)

$$P_N = 0.9 \cdot \frac{\alpha}{2 \cdot \sin \varphi} \cdot \frac{\alpha}{2} \cdot (1 + \text{ctg} [25 + \gamma_N]) \text{ (Н)} \quad (13)$$

Таким образом итоговая форма мощности источника выглядит следующим образом:

$$Q_3 = 0.039 \cdot \frac{v}{k} \left(0.9 \cdot \sigma_B \cdot \frac{\alpha}{2 \cdot \sin \varphi} \cdot \frac{d}{2} \cdot (1 + \text{ctg} [25 + \gamma_N]) - \frac{0.126 \cdot \sigma_B \cdot d \cdot l_3}{\sin \varphi} \right) \cdot \sin \gamma + \left[\left(0.9 \cdot \sigma_B \cdot \frac{\alpha}{2 \cdot \sin \varphi} \cdot \frac{d}{2} \cdot (1 + \text{ctg} [25 + \gamma_N]) \cdot \text{tg}(20 - \gamma_N) \right) - \frac{0.126 \cdot \sigma_B \cdot d \cdot l_3}{\sin \varphi} \right] \cdot \cos \gamma \text{ (Вт)} \quad (14)$$

Список литературы

1. Файзиматов Б.Н., Мирзаев А.А. “Материалларни кесиб ишлаш асослар”. Фарғона-техника.2003-195л
2. Неделько А. Преимущества и недостатки бесконтактного способа определения температуры // НМ-оборудование. - март 2005. - с.. 50 - 53.
3. Патент на изобретение № 2238529. Российская Федерация, МПК00115/60 3/58. Способ бесконтактного измерения температуры поверхности нагретых тел / Тюрин В.А., Алексеев П.Л.; заявитель и патентообладатель Московский государственный институт стали и сплавов. - № 2003111865/28; заявл. 24.04.2003; опубл. 20.10.2004.
4. Резников А.Н. Теплофизика резания. М. “Машиностроение” 1969.
5. Афанасьев К.В., Сокол В.В. Оценка тепловой энергии при решении задач теплофизики резания // Вестник ОрёлГТУ. Серия фундаментальные и прикладные проблемы техники и технологии. Сборник IX Международной научно-технической конференции «Фундаментальные и прикладные проблемы технологии машиностроения - Технология - 2008», Орёл, 2008, с. 54 – 57

Тилавов Юнус Сувонович – к.т.н., доцент,
Каршинский государственный университет
Доцент кафедры “Технологическое образование”,

tilavov56@mail.ru

+998906705949

Уроков Камолиддин Хушвактович
Каршинский государственный университет
Ассистент кафедры “Технологическое образование”

uroqov74@mail.ru

+998907295798

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССА ПРЕССОВАНИЕ И ГИДРОПРЕССОВАНИЕ ПРИ ПОЛУЧЕНИЕ ПРУТКОВ МАЛОГО ДИАМЕТРА

КИЧИК ДИАМЕТРЛИ ПРУТОКЛАР ОЛИШДА ПРЕССЛАШ ВА ГИДРОПРЕССЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PROCESS PRESSING AND HYDROPRESSING IN OBTAINING RODS OF SMALL DIAMETER

Аннотация

Ушбу мақолада қийин эрийдиган металллардан кичик диаметрли ғўлачалар олишда преслаш ва гидропреслаш жараёнларининг қиёсий таҳлили келтирилган. Бунда гидравлик пресларда киздириб преслаш - паст пластикликдаги қийин эрийдиган металл ва қотишмаларнинг анъанавий усулда ишлов бериш рационал усуллардан бири ҳисобланади, чунки металлларнинг деформацион кучланганлик ҳолати ишлов берилган металлларнинг технологик пластиклигини ошишига ижобий таъсир кўрсатади. Шунинг учун, қийин эрийдиган металллардан олинган ғўлачалар босимга қарши тўғри преслаш ва гидропреслаш усуллари ёрдамида деформацияланиши таҳлили ёритилган.

Аннотация

В этой статье проведен сравнительный анализ процесса прессование и гидропрессование при получение прутков малого диаметра из тугоплавких металлов. Горячее прессование на гидравлических прессах являются одним из рациональных методов обработки давлением низко пластичных тугоплавких металлов и сплавов, поскольку напряженно-деформированное состояние металла (схема неравномерного всестороннего сжатия в очаге деформации) способствует значительному повышению технологической пластичности обрабатываемого металла. Прутки из тугоплавких металлов деформируют методами прямого прессования с противодействием и гидропрессования.

Annotation

In this article, a comparative analysis of the process of pressing and hydropressing for the production of small-diameter bars from refractory metals is carried out. Hot pressing on hydraulic presses is one of the rational methods of pressure treatment of low-ductility refractory metals and alloys, since the stress-strain state of the metal (the scheme of uneven

all-round compression in the deformation zone) contributes to a significant increase in the technological plasticity of the metal being processed. Bars made of refractory metals are deformed by direct pressing with counterpressure and hydropressing.

Калит сўзлар: *ғўлача, пресслаш, гидропресслаш, деформация, қизитиш, ҳарорат, матрица, куйдириш.*

Ключевые слова: *пруток, прессования, гидропрессования, деформация, нагрев, температура, матрица, отжиг.*

Key words: *bar, pressing, hydropressing, deformation, heating, temperature, matrix, annealing.*

В настоящее время прутки, трубы и точные профили из молибдена, вольфрама и их сплавов изготавливают традиционными методами обработки металлов давлением, такими как горячее прессование, ковка и прокатка, но они не удовлетворяют требованиям новой техники из-за большого расхода материалов, тепловой и электрической энергии и т.д. Эффективным путем решения данной проблемы является создание промышленных технологий производства тугоплавких материалов, основанных на использовании высоких гидростатических давлений, например гидропрессование.

В этой статье проведен сравнительный анализ процесса прессование и гидропрессование при получение прутков малого диаметра из тугоплавких металлов.

Горячее прессование на гидравлических прессах является одним из рациональных методов обработки давлением низко пластичных тугоплавких металлов и сплавов, поскольку напряженно-деформированное состояние металла (схема неравномерного всестороннего сжатия в очаге деформации) способствует значительному повышению технологической пластичности обрабатываемого металла [1]. Прутки из тугоплавких металлов деформируют методами прямого прессования с противодавлением и гидропрессования [2].

Прямое прессование прутков осуществляют, как правило, на быстроходных гидравлических прессах (рис. 1) скорость прессования составляет 0,1-0,6 м/с.

Использование пластичных оболочек в случае прессования молибдена, толщина которых составляет 0,042...0,076 диаметра слитка, дает возможность получить высококачественные прутки с полигонизационной структурой, обеспечивающей высокие пластические и прочностные характеристики. При этом уменьшается зона заторможенного течения металла, выравниваются скорости течения металла в поперечных сечениях; достигаются условия, при которых коэффициент степени использования ресурса пластичности по всему очагу деформации меньше. Схема вертикального гидравлического пресса.




Рис. 1. Гидравлический пресс верхнего давления. Пресс содержит: 1-верхнюю поперечина, 2-станина, 3- стянутые колонна, 4-траверс, 5-верхний инструмент, 6-промежуточная плита, 7-выдвижной стол, 8-нижний инструмент, 9-гидроцилиндр, 10-направляющий гидроцилиндра.

Единицы ($\varphi < l$), а коэффициенты неравномерности деформации n и n^1 уменьшаются соответственно с 0,35 и 1,42 до 0,23 и 1,25. применение оболочек позволяет активно воздействовать на распределение напряжений в очаге деформации [3].

В качестве смазок при высокотемпературном прессовании тугоплавких металлов в интервале температур 1000-1800⁰ С используют стекло смазки на основе боросиликатных стекол. Нагрев перед деформацией - обычно индукционный в вакууме или защитной атмосфере. Однако, высокие температуры нагрева (1000-1500⁰ С) и большие по величине контактные напряжения (1000-1500 МПа), которые возникают при прессовании прутков из молибдена и вольфрама, приводят:

- к интенсивному износу матриц, даже, если на них нанесены износостойкие покрытия;
- частым поломкам инструмента;
- низкому качеству пресс изделий;
- невозможности получение прутков малого диаметра (менее 20 мм).

В промышленности процесс прессования применяют для первичной обработки слитков молибдена, ниобия, вольфрама и других тугоплавких металлов.

Особенность процесса гидропрессования заключается в использовании для выдавливания металла через матрицу энергии рабочей жидкости, находящейся под высоким давлением [5].

Эффективным приемом управления процессом гидропрессования является приложение дополнительных механических усилий к заготовке или изделию.

Применение заднего подпора и переднего натяжения практически полностью устраняет перепад между начальным и рабочим уровнем давлений жидкости и тем самым стабилизирует процесс истечения. За счет применения дополнительных механических усилий снижается уровень рабочих давлений жидкости, что позволяет повысить предельные обжатия. Экспериментальные исследования режима осуществлялись при гидропрессовании заготовок из различных материалов, в том числе молибдена марки МЧВП, со степенями деформации 25-59% и уровнями противодействия от 0 до 12 кбар [6].

Гидропрессование металлокерамического молибдена может сопровождаться повышением пластических характеристик. Это позволяет использовать гидропрессование как заключительный технологический процесс для придания необходимого комплекса свойств изделиям из металлов, полученных методами порошковой металлургии.

Молибден, полученный в вакууме и подвергнутый высокотемпературному (900-950⁰ С) гидропрессованию, имеет на 15-20% более высокие механические свойства, чем горячепрессованный [7].

Во ВНИИТСе исследовано гидропрессование ряда промышленных молибденовых сплавов (ВМ1, ВМ1-АД, ТСМ-3, ТСМ-4). Установлено, в частности, что характерным воздействием гидропрессования (степень деформации до 80%) для модифицированного молибденового сплава марки ВМ1-АД является повышение прочности при высоком уровне пластичности. Относительное удлинение при растяжении практически не изменяется с изменением коэффициента вытяжки и остается на достаточно высоком уровне (20%).

Преимущество гидропрессования - сохранение высокой пластичности металла и после отжига [8].

Во ВНИИТСе проведено исследование структуры и механических свойств гидропрессования сплавов марок ТСМ-3, ТСМ-4 в деформированном состоянии и после отжига и установлено, что эти сплавы при отжиге заметно раз упрочняются, при этом их пластичность повышается. Для сплава марки ТСМ-3 наилучшее сочетание прочности и пластичности соответствует отжигу при температуре 1400⁰ С в течение 1 ч. При увеличении температуры отжига до 1600⁰ С наблюдается не только снижение прочности, но и значительное падение пластических характеристик. Сплав ТСМ-4 имеет более высокий уровень механических свойств как в деформированном состоянии, так и после отжига. Причем этот уровень сохраняется при температурах до 1600⁰ С.

Одним из важнейших факторов, определяющих характер течения металла при гидроэкструзии, является форма профиля матрицы в обжимной части канала.

Наибольшее распространение при прессовании тугоплавких металлов получили конические матрицы с образующей, наклоненной под углом α к оси канала (табл. 1). выбор оптимального угла матрицы определяется силовым режимом выдавливания и качеством пресс-изделия [9].

Оптимальные углы конуса матрицы при гидроэкструзии некоторых тугоплавких металлов и сплавов

Таблица 1

Материал	$2\alpha \cdot 10^{-2}$ рад
Молибден прокатанный	78...75
Молибден, сплавы МС, ВМА	35...52,5
ВМ1	52,5
Вольфра и его сплавы	35
Ниобий	35...78

Эффективным является способ вибрационного прессования металлов [10]. В экспериментальном научно-исследовательском институте кузнечнопрессового оборудования (ЭНИКмаш) разработан вибропресс с пульсирующим рабочим давлением. Клапан-пульсатор обеспечивает автоматический слив жидкости из рабочего цилиндра. При этом давление жидкости снижается до заданной величины или практически до нуля.

Принципиальная схема получения пульсации в приводе пресса с помощью золотника имеет недостаток: необратимые потери упругой деформации станины и жидкости в цилиндре в момент сброса давления. Это снижает коэффициент полезного действия пресса.

При больших усилиях (свыше 500 кН) и относительно малых энергиях импульса используются вибрационные пресс-молоты, в которых давление энергоносителя практически не связано с давлением, оказываемым на заготовку в момент деформирования.

В пресс молоте, благодаря использованию инерции подвижного цилиндра, очень мала упругая деформация станины и практически полностью используется упругая деформация жидкости и трубопроводов, которая в прессах рассмотренной выше конструкции является источником наибольших потерь [11].

При вибропрессовании разко снижаются силы контактного трения, деформирующие усилия, неравномерность деформации металла по сечению заготовки.

Вместе с тем горячим прессованием нельзя получить из тугоплавких металлов прутки малого диаметра, поэтому его применяют для первичной обработки слитков.

Недостатками метода гидроэкструзии являются: наличие большого количества подготовительных операций, необходимость конструктивного усовершенствования

существующих установок гидроэкструзии, сложность изготовления оборудования и оснастки.

Литература

1. Тилавов Ю.С. Разработке и внедрение малоотходной технологии производства прутков из молибдена и ниобия. – Дисс. на соискание учёной степени кандидата технических наук. – М.: 1994. 285 с.

2. А.П.Коликов, Ю.С. Тилавов и др. математическая модель термонапряженного состояния технологического инструмента при ковке труднодеформируемых материалов. Деп. ВИНТИ. № 5. 1994.

3. А.П.Коликов, И.А.Левицкий, Ю.С. Тилавов и др. математическая модель теплообмена и термонапряженного состояния в системе заготовка – рабочий инструмент при обработке туго плавких металлов. Изв. Вузов. Черная металлургия. – 1994. № 9.

4. В.Г.Михайлов, Г.И.Новожинов, Ю.С.Тилавов и др. Исследование процесса высокотемпературного гидропрессования тугоплавких металлов. Известия вузов «Черная металлургия». 1994., №1, с. 42-44.

5. А.А. Вардияшвили, Ю.С. Тилавов, К.Х. Уроков. Анализ результатов расчета параметров температурного и термонапряженного состояния в системе заготовка-инструмент при радиальной ковке. Научно–технический журнал ФерПИ. 2020., Том 24. №5. с. 213-216.

6. Ю.С.Тилавов, К.Х. Уроков, Н.С.Элмуродов. Расчет температурного поля в заготовках при деформации на радиально - обжимных машинах. Инновацион технологиялар илмий-техник журнал. Қар МИИ. Махсус сон - 2021., 140-146.

7. Ю.С. Тилавов, А.А. Вардияшвили, К.Х. Уроков. Исследование технологических схем и процессов производства прутков малого диаметра. Научно–технический журнал ФерПИ. 2021., Том 25. №5. с. 191-195.

8. Совершенствование технологии ротационнойковки тугоплавких металлов. /В.М.Изотов, В.Г.Ярцев, В.К.Воронцов и др./ М.: ЦНИИ цветмет экономики информации, 1978. /Обработка цветных металлов: Обзор информац/.

9. А.П.Коликов, Ю.С.Тилавов, В.В.Негода. Анализ технологических схем производства полуфабрикатов малого диаметра из сплавов тугоплавких металлов. Изв.вузов.Черная металлургия.-1993.№3.с.85-87.

10. Ю.С.Тилавов, К.Х. Уроков. Промышленная технология производства прутков диаметром 10-40 мм из литого молибдена. Научно-технический журнал машиностроение. АндМИ. 2022., №2. с. 46-52.

11. Ю.С.Тилавов, К.Х. Уроков. Исследование технологических режимов производства прутков малого диаметра из литого молибдена. Инновацион технологиялар илмий-техник журнал. Қар МИИ. 2022., 2-сон, 43-47.

Qosimov Karimjon-t.f.d., professor
Andijon mashinasozlik instituti
“Texnologik mashina va jihozlar” kafedrası
e-mail: kqosimov@mail.ru
tel: +998 97 964 55 90

Madazimov Muzaffar Toxirjon o‘g‘li- t.f.f.d (PhD)
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Andijon viloyat hududiy boshqarma boshlig‘i,
e-mail: mmt12012018@mail.ru
tel: +998 90549 30 03

Qodirov Nazirjon Ulugbek o‘g‘li- Tayanch doktorant.
Andijon mashinasozlik instituti
e-mail: godirov0104@mail.ru
tel: +998 97 991 01 04

PLUG LEMEXLARINI INDUKSION TOBLASH PARAMETRLARINI NAZARIY ASOSLASH

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ ИНДУКЦИОННОЙ ЗАКАЛКИ ПЛУЖНЫХ ЛЕМЕХОВ

THEORETICAL SUBSTANTIATION OF INDUCTION HARDENING PARAMETERS OF PLOUGHSHARES

Аннотация

Maqolada plug lemexlarining tuproq tarkibidagi abraziv zarralar ta’sirida yeyilishini kamaytirish yo‘llari hamda lemexlarning yeyilishga chidamliligini oshirishda induksion toblashning ahamiyati, toblash chuqurligi, qizdirish xarorati, qizdirish vaqti, sovitish tezligi kabi parametrlarining nazariy asoslari yoritilgan.

Аннотация

В статье приводятся пути уменьшения износа плужных лемехов от воздействия абразивных частиц почвы, а также значение индукционной закалки в повышении износостойкости лемехов, теоретические основы параметров индукционной закалки, таких как глубина закалки, температура нагрева, время нагрева, скорости охлаждения.

Annotation

The article provides ways to reduce the wear of ploughshares from the impact of abrasive soil particles, as well as the value of induction hardening in increasing the wear resistance of ploughshares, the theoretical foundations of induction hardening parameters, such as quenching depth, heating temperature, heating time, cooling rates.

Kalit so‘zlar: plug lemexi, resurs, qattqlik, abraziv yeyilish, termik ishlov berish, martensit, toblangan qatlam chuqurligi, induksion toblash.

Ключевые слова: плужные лемехи, ресурс, твердость, абразивный износ, термическая обработка, мартенсит, глубина закаленного слоя, индукционная закалка.

Key words: ploughshares, resource, hardness, abrasive wear, heat treatment, martensite, quenching depth, induction hardening.

Kirish. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida tuproqqa ishlov beradigan mashinalar uchun yetkazib berilayotgan ishchi organlarning resursi texnik talablarda belgilangan me'yorlardan ancha pastligi ularni tez yeyilib ishdan chiqishiga olib kelmoqda. Ushbu holat Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan ishchi organlar puxtaligi oshirilmasdan yoki termik ishlov berilmaydigan kam uglerodli po'latlardan tayyorlanayotganligi bilan yanada jiddiy tus olmoqda. Natijada qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining ushbu ishchi organlarni ehtiyot qismlar sifatida ko'plab sotib olishi hisobiga harajatlarini sezilarli darajada orttirib yubormoqda, dala ishlarining sifatini va ish unumini pastlatib yuborib ishlarni bajarish muddatlarini kechiktirib yubormoqda. Shu sababli ham yetkazib berilayotgan ishchi organlarning resursi past bo'lib kelayotgan bugungi sharoitda ularga termik, kimyoviy-termik ishlov berish, ishchi yuzalariga zamonaviy kompozitsion materiallarni payvandlab qoplash orqali yeyilishga chidamliligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tuproq tarkibidagi kvars qumining qattiqligi, u turli tuproqlarda miqdori va o'rtacha o'lchamlari bo'yicha har xil bo'lib, ishchi organlar tayyorlanadigan materialning qattiqligidan ancha yuqori bo'ladi. Bunday holatda, tuproqqa ishlov berish jarayonida, ushbu ishchi organlar tez yeyilib ishga yaroqsiz holga keladi.

Abraziv yeyilishning o'ziga xos tomonlarini va mexanizmini o'rganishda, olimlar, qattiqligi abraziv zarrasi qattiqligiga yaqinlashgan sari materiallarning nisbiy yeyilishga chidamliligini keskin ortish hodisasini aniqladilar. Bu hodisa M.M. Tenenbaum, V.N. Tkachev, R. Kiffer, D. Benezovskiy, M.M. Xrushev va M.A. Babichev, U. Ikromov, A.S. Pronikov, D.N. Garkunov va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan. [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9].

Shu holat yuzasidan M.M. Xrushev va M.A. Babichevlar texnik toza metallarning abraziv muhitdagi nisbiy yeyilishga chidamliligi ularning qattiqliklari (H)ga to'g'ri proporsional ekanligini aniqlashgan [4; 18-26-b.]:

$$\varepsilon = b \cdot H$$

Ular detal materiali bilan abraziv zarracha qattiqliklarining nisbatini yeyilishga ta'sirini o'rganishda yeyilish sharoitini aniqlovchi uchta o'ziga xos bog'lanishni ko'rsatishgan.

Material (H_m) va abraziv (H_a) qattiqliklarining nisbati $H_m/H_a \leq 0,6$ bo'lganda yeyilishga chidamlilik to'g'ri chiziqli ortib boruvchi xususiyatda bo'ladi. Nisbat $0,6 \leq H_m/H_a \leq 1,4$ oralikda bo'lganda yeyilishga chidamlilik ortib boruvchi parabolik bog'lanishga ega bo'ladi. Nisbat $1,4 \leq H_m/H_a$ bo'lganda esa yeyilishga chidamlilikning giperbolik keskin ortishi kuzatiladi.

Tuproq tarkibidagi abraziv zarralar ichida qattiqligi 11000 MPa gacha bo'lgan kvars qumi zarralari eng ko'p yeyiltiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Mashinalarning ishqalanish sharoitida ishlovchi detallari asosan temir qotishmalaridan tayyorlanganligi uchun ham detal

yeyilayotgan yuzasining qattiqligi odatda kvarsning abraziv zarrasi qattiqligidan past bo‘ladi (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ishchi organ qattiqligini tuproq tarkibida mavjud bo‘ladigan kvars qumidan iborat abraziv zarrasining qattiqliklari orasidagi farqni ko‘rish mumkin.

1-jadval.

Metall va qotishmalarning mikroqattiqliklari

№	Material turi	Mikro-qattiqligi, Mpa	№	Material turi	Mikro-qattiqligi, MPa
1	Kvars qumi	8000-11000	9	CT 20 toblangan	4250
2	CT 10	1600	10	CT 30 toblangan	5100
3	CT 20	1800	11	Toblangan 45 po‘lati	6400
4	CT 30	1900	12	Temir karbidi	8000
5	Toblanmagan 45 po‘lati	2000	13	Temir marganes qo‘shma karbidi	6500
6	CT 20XH toblangan	4500	14	Xrom karbidi CrC	18000
7	IIIХ 15 toblangan	8000	15	Volfram karbidi WC	30000
8	X12M toblangan	5100	16	Bor karbidi BC	35000

Jadvaldan ko‘rish mumkinki, 45 markali po‘lat misolida toblanmagan po‘latning mikroqattiqligi abraziv zarrasi mikroqattiqligidan ancha pastligi sababli undan tayyorlangan ishchi organning yeyilish jadalligi shu markali po‘latdan tayyorlangan va toblangan ishchi organning yeyilish jadalligidan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bundan ishchi organlarni ishlab chiqarishda termik ishlov berish yo‘li bilan ularning ish resursini sezilarli darajada orttirish mumkin degan xulosa kelib chiqadi.

Toblash – bu termik ishlov berish jarayoni bo‘lib, u po‘latlarning qattiqligi va yeyilishga chidamliligini orttirish uchun xizmat qiladi. Toblashda metallning tarkibi o‘zgaraydi strukturasi esa o‘zgaradi.

Toblash natijasida po‘latning qattiqligi ortadi. Agar 45 markali po‘latning toblashdan oldingi qattiqligi HRC 20-22 bo‘lsa, toblangandan keyin uning qattiqligi 2-2,5 martaga, ya’ni HRC 54-56 gacha ortadi.


Po‘lat buyumlarning sirt yuzalarinigina toblash. Katta yuklama ta’sirida ishlaydigan detallar, jumladan, tirsakli val bo‘yinlari, tishli g‘ildiraklar tish yuzalari ish jarayonida dinamik va siklik nagruzkalar (yuklanishlar) ta’siriga berilishda kam yeyiladigan qilish uchun ularning sirt yuzalarinigina toblanadi. Buning uchun ularning sirt yuza qatlami toblash haroratigacha qizdirilib, shu haroratda ma’lum vaqt tutib turilgach, suvda yoki moyda sovutiladi. Natijada sirt qatlami toblanib o‘zagi toblanmay qovushoqligicha qoladi. Buyumlarni toblash haroratigacha qizdirish uchun ko‘pincha yuqori chastotali tokdan, ba’zan gaz alangasidan, elektr kontaktli qizdirish qurilmalaridan ham foydalaniladi. Yuqori chastotali tokdan foydalanish usuli boshqa usullardan ish unumining yuqoriligi va avtomatlashtirishga oson berilishi bilan farq qiladi.

Martensit. Bu struktura uglerodning alfa temirdagi qatgıq eritmasi $Fe_{\alpha}(C)$ dir. Bu strukturali po‘latlarning Brinell bo‘yicha qattiqligi $HB = 6000-6500$ MPa oralig‘ida bo‘ladi. Shuning uchun ham po‘latlarning toblanish darajasi olingan strukturadagi martensit miqdori bilan ifodalanadi. Aynan shu sababli ham po‘latlarni toblash jarayonini ayrim hollarda strukturasi martensitga o‘zgartirish deb ham ataladi.

Odatda, toblangan qatlam qalinligini aniqlash uchun uning sirtidan o‘zak qismiga qarab yarim martensitli strukturagacha bo‘lgan qatlam olinadi, shu qatlam qalinligi toblangan qalinlik hisoblanadi.

Tadqiqot olib borilayotgan plug lemexlari yuqori yuklanishlar va og‘ir abraziv ishqalanish sharoitida ishlaganligi sababli ularning sirtqi qatlami ma‘lum usullar yordamida yeyilishga chidamli holga keltirilishi, ichki qatlami esa yuqori yuklanishlarga bardoshli bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham lemexlarga termik ishlov berishning induksion tok yordamida yuza qatlamini toblash usulini qo‘llash eng oddiy, kam sarfli va qulay hisoblanadi.

Plug lemexlarining (1-rasm.) yaroqsizga chiqarish o‘lchamlari tumshuq qismining boshlang‘ich kengligi $H = 155$ mm bo‘lgani holda, uning yaroqsizga chiqarish o‘lchami $H_{pr} = 90$ mm ga, lemex tig‘ qismi bo‘yicha kengligi $h = 130$ mm bo‘lgani holda, uning yaroqsizga chiqarish o‘lchami $h_{pr} = 90$ mm ga, orqa faskasining kengligi 7-12 mm ga, lemexning yon tomondan qalinligi boshlang‘ich o‘lchamiga nisbatan 30 foizgacha yeyilgandagi qalinligiga teng bo‘ladi. Agar lemexning o‘rtacha qalinligi 12 mm ga teng bo‘lsa, u xolda uning yaroqsizga chiqarish qalinligi o‘rtacha 8,5 mm ga teng bo‘ladi. Shu bilan birga ayrim adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra yuqorida keltirilgan yaroqsizga chiqarish o‘lchamlarigacha yeyilgan lemexlarning vazni ortig‘i bilan 1 kg gacha kamayadi. Yuqoridagilar asosida hulosa qilish mumkinki, lemexlarni yuza qismini taxminan 2 mm gacha qalinlikda yuzaki toblansa yetarli bo‘ladi. Bundan lemexlarni toblash uchun induktor hisobini olib borishda aynan shu qalinlikni asos qilib olish kerakligi kelib chiqadi [10; 150-151-b., 11; 56-62-b.,12; 72- b.].




1-rasm. Lemexning konstruktiv va chegaraviy o‘lchamlari

Tuproqqa ishlov beradigan mashinalarning ish organlari shunday sharoitlarda ishlaydiki, ularning ishchi yuzalari jadal yeyilishi bilan birga katta dinamik yuklanishlar ta‘sirida ham bo‘ladi. Bunday og‘ir sharoitlarda ishlashi uchun ularning yuza qatlami yuqori qattiqlikka va puxtalikka ega bo‘lgani holda ichki o‘zak qismi qovushoq plastik bo‘lishi kerak. Ularni, ayniqsa plug lemexlarini, bunday xossalarga ega bo‘lishiga po‘lat markasini to‘g‘ri tanlash va yuza qatlamini puxtaligini ortishiga olib keladigan termik ishlov berish orqali erishish mumkin.

Detallarning yuza qismini toblashning mohiyati shundaki, bunda detalning yuza qatlami austenit strukturasi hosil bo‘lgunga qadar juda tez qizdiriladi va keyin jadal (odatda bosim ostidagi suvda) sovitiladi. Qizdirishning so‘nggi soniyasida detalning ko‘ndalang kesimi

bo‘ylab tashqi yuzasidan ichki qismiga qarab haroratning katta farqi vujudga keladi. Bunda (2-rasm.) po‘latning birinchi zonasidagi strukturasi martensit va oz miqdordagi qoldiq austenitdan, ikkinchi zonada martensitdan, ferritdan va qoldiq austenitdan iborat bo‘ladi. Uchinchi zonadagi po‘latni, ushbu zonada po‘latning qizdirish harorati A_{c1} kritik nuqtadan ham past bo‘lganligi sababli, sovitish natijasida unda struktura o‘zgarishlari ro‘y bermaydi va u boshlang‘ich ferrit va perlit strukturalardan iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham birinchi zonada po‘latning qattiqligi maksimal yuqori, ikkinchi zonada ferrit strukturasi mavjudligi hisobiga qattqlik pastroq bo‘lib, uchinchi zonada po‘latning toblashdan oldingi boshlang‘ich qattiqligi saqlanib qoladi [13Ошибка! Источник ссылки не найден.; 29-31-b.].



2-rasm. Yuzaki qizdirishning so‘nggi soniyasida evtektoidgacha bo‘lgan po‘lat detalning ko‘ndalang kesimi bo‘ylab tashqi yuzasidan ichki qismiga qarab haroratning o‘zgarib borish egri chizig‘i.

Yuqori chastotali tok yordamida detallarni induksion toblashning asosiy parametrlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. **Toblangan qatlamning chuqurligi x_k** , u shartli ravishda detal yuzasidan uning ichidagi strukturasi 50 foizgacha martensit strukturasi bo‘lgan qatlamgacha bo‘lgan masofa qabul qilingan. Ushbu masofa metallning qattiqligi orqali aniqlanadi, chunki po‘latni har bir markasining yarim martensitli strukturasi qattiqligi ma‘lum. Masalan, 45 markali po‘lat uchun u 42-45 HRC ga teng [14; 55-57-b.]

Toblangan qatlamning optimal qalinligini tanlash detalning ish sharoitidan kelib chiqib belgilanadi. Agar detal faqat yeyilishgagina ishlasa, unda toblangan qatlamning chuqurligi 1,5...3,0 mm, yuqori kontakt yuklanish sharoitida – 4...5 mm, juda katta kontakt yuklanishlarda ishlaganda 10...15 mm bo‘lishi yetarli hisoblanadi. Odatda, toblangan qatlamning kesim yuzasi umumiy kesim yuzasining 20 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak deb tavsiya etiladi.

2. **Toblash uchun qizdirish vaqti t_t** – bu metallning x_k chuqurlikkacha bo‘lgan qatlamini toblash haroratigacha qizdirish uchun sarflanadigan vaqt. Ko‘p hollarda, tanlab olingan tok chastotasida, toblash vaqti toblanadigan qatlamning chuqurligini ifodalaydi. Bundan tashqari, u qizdirish rejimining, vaqt relesi yordamida aniq boshqariladigan va


to'g'ridan-to'g'ri o'lchash orqali oson nazorat qilinadigan, yagona parametri hisoblanadi. Shuning uchun ham qizdirish vaqtini, amalda, qizdirish rejimining asosiy parametri sifatida qabul qilish mumkin [14; 55-57-b.]

3. **Toblash harorati T_t** – bu t_t – vaqt davomida erishiladigan shunday haroratki, unda metallda kerakli struktura o'zgarishlari ro'y beradi.

Po'latlarni toblash harorati uning tarkibidagi uglerod va legirlovchi elementlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Uglerodli po'latlar A_{c3} egri chiziqdan 30...50 °C yuqoriroq haroratgacha qizdiriladi (3-rasmdagi shtrixlangan zona). Bunda evtektoidgacha bo'lgan po'latlar, qizdirish natijasida, boshlang'ich ferrit+perlit strukturadan austenit strukturaga o'tadi, sovitish jarayonida kritik sovitish tezligidan yuqori tezlikda sovitib martensit struktura olinadi. Legirlangan po'latlarni toblash temperaturasi esa uglerodli po'latlarga nisbatan balandroq olinadi, chunki po'lat tarkibidagi karbid hosil qiladigan elementlar karbidlarning erishga turg'unligini oshiradi va austenitni gomogenlashishini sekinlashtiradi. Ko'plab evtektoidgacha bo'lgan o'rtacha legirlangan po'latlar A_{c3} egri chiziqdan 50...100 °C gacha yuqoriroq haroratgacha qizdiriladi. Karbid hosil qiladigan elementlardan iborat yuqori legirlangan po'latlar toblash uchun yana ham yuqoriroq haroratgacha (1100...1250 °C) qizdiriladi. Bunda austenitda uglerod va legirlovchi elementlarni kerakli miqdorda erishi ta'minlanadi.

4. **Detal tashqi qatlamining ortiqcha qizib ketishi ΔT** – bu toblanayotgan detal yuza qatlamidagi haroratni uni toblanadigan chuqurligidagi x_k ichki qatlami haroratidan qancha balandligi [14; 55-57-b.]


Qizdirish haroratini ortishi bilan austenit donalari yiriklashib boradi, po'latning oksidlanish va yuza qatlamida uglerodsizlanish jarayonlari tezlashadi, termik ishlov berilgan detalda toblash oqibatida yuzaga keladigan ichki kuchlanishlar ortib ketadi. Uglerodli po'latlarni qizdirishning optimal haroratlar intervali 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Uglerodli po'latlarni toblash uchun qizdirishning optimal haroratlar intervali

4. **Qizdirish tezligi v_q (°C/sec)**, detalni toblash uchun belgilangan haroratgacha qizdirish oxiridagi o'rtacha harorat [14; 55-57-b.]. Pechlarda detallarni qizdirish tezligi 1 °C/sec dan

ortmaydi, induksion qizdirishda esa tezligi $10^2 \dots 10^3 \text{ }^\circ\text{C}/\text{sec}$ ga yetadi. Qizdirish tezligini ortishi bilan po‘latning faza o‘zgarishlari yuqori haroratlar tomoniga siljiydi. Shu sababli qizdirish tezligi qancha katta bo‘lsa, po‘latni austenitga aylanish harorati shuncha yuqori bo‘ladi. Bunda austenit donalari yiriklashmaydi, balki pechda qizdirishdagiga nisbatan maydaroq bo‘ladi, chunki austenit hosil bo‘ladigan markazlar paydo bo‘lish tezligi austenit donalarini chiziqli o‘shish tezligiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi (4-rasm.) [13] **Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 29-31-b.].



4-rasm. Uglrodli po‘latlarni toblash uchun qizdirish haroratiga turli qizdirish tezliklarida uglerod miqdorining ta’siri. Shtrixlangan zona sekin-asta qizdirish haroratlar intervali.

5. **Sovitishning kritik tezligi.** Toblashda martensit strukturasi, kritik sovitish tezligi deb ataladigan tezlikdan yuqori tezlikda sovitilgandagina, paydo bo‘ladi

Toblashning kritik tezligi qancha past bo‘lsa, sovish jarayonida austenitning turg‘unligi shuncha yuqori bo‘ladi. Bunda austenitning turg‘unligi, birinchi navbatda, boshlang‘ich austenitning kimyoviy tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Kobaltdan tashqari barcha legirlovchi elementlar austenitning turg‘unligini oshiradi. Bundan tashqari toblashning kritik tezligi qancha kichik bo‘lsa, austenitning donalari shuncha yirik va kimyoviy tarkibi bir xilda bo‘ladi.

Suv bilan sovitish tezligi suvni detal yuzasiga ta’sir etadigan bosimiga va suvning haroratiga bog‘liq bo‘ladi [1414; 55-57-b.].


6. **Toblash jarayonining termik foydali ish koeffitsienti η_k .** Toblash jarayonining termik foydali ish koeffitsienti bu toblangan qatlam qalinligiga sarflangan issiqlik midorini butun detalni qizishi uchun sarflangan issiqlik miqdoriga nisbatidir. Toblash jarayonining termik foydali ish koeffitsienti qizdirish turi va qizdirish harorati orqali aniqlanadi.

Qizdirishning ikki turi mavjud (5-rasm): yuzaki va chuqur. Yuzaki qizdirishda sarflanadigan solishtirma quvvat uncha katta bo‘lmaydi: $\Delta_2 < x_k$. Chuqur qizdirishda esa, qizdiriladigan birlik yuzaga sarflanadigan solishtirma quvvat ancha katta $\Delta_2 > x_k$ bo‘ladi.

Yuzaki qizdirishda issiqlik detalning yupqa yuz qatlamida ajralib chiqadi va detal ichiga materialning issiqlik o‘tkazuvchanligi oqibatida tarqaladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, detallarni yuzaki induksion toblashning barcha holatlarida qizdirishning chuqurroq usulini qo'llashga harakat qilish kerak [14; 55-57-b.].

Induksion toblashda toblanadigan detal bir yoki bir nechta chulg'amli induktor ichiga joylashtiriladi yoki ma'lum tezlikda uning ichidan o'tkaziladi. Induktor orqali o'tayotgan yuqori chastotali ($f=10^3 \dots 10^5$ kHz) tok o'zgaruvchi magnit maydonini hosil qiladi. Induksiya hodisasi sababli induktor ichidagi detalda uyurma tok hosil bo'ladi va tokning ta'sirida detalda Joule-Lens qonuniga asosan issiqlik ajralib chiqadi [13; 29-31-b.].



5-rasm. Toblash uchun qizdirishning ikki usuli: 1-yuzaki, 2-chuqur.

Qizdirilayotgan detalning ko'ndalang kesimi bo'yicha induksion tokning zichligi har xil bo'ladi: yuza qismida tok zichligi eng yuqori va u detal ichiga qarab yurgan sari keskin kamayib boradi.

Ma'lumki, qizdirilayotgan detalning qalinligi δ ga teng yuza qatlamida 90 foizga yaqin issiqlik ajralib chiqadi. Ushbu issiqlik tokning chastotasiga (f), po'latning magnit o'tkazuvchanligiga (μ), uning solishtirma elektr qarshiligiga (ρ) bog'liq bo'ladi va quyidagi ifoda orqali aniqlanadi [13 **Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 29-31-b.]:

$$\delta = K \cdot \sqrt{\frac{\rho}{\mu \cdot f}}$$

bunda K – toblanayotgan po'lat uchun o'zgarma koeffitsient.

Toblangan qatlamning belgilangan chuqurligi va detalning o'lchamlari bo'yicha unga mos keladigan standart tok chastotasi, toblashning yangilangan jarayoni, induktor konstruksiyasi va toblash qurilmasi, qurilmaning maksimal yuklanishini va belgilangan ish unumini ta'minlay olishini hisobga olgan holda ta'minlash manbaining sxemasi tanlanadi [14; 55-57-b.].

t_k va p_o larning tanlab olingan qiymatlari asosida generatorning quvvati (kW) hisoblab topiladi.

$$P_g = \frac{p_o S}{\eta_{in} \eta_{tr} \eta_k \eta_l'}$$

Bunda S – toblanadigan yuzaning maydoni, cm^2 ; p_o - solishtirma quvvat, kW/cm^2 ; $\eta_{in}, \eta_{tr}, \eta_k, \eta_l$ – lar mos ravishda induktorning, transformatorning kondensatorlar batareyasining va tok uzatish liniyasining foydali ish koeffitsientlari.

Odatda ushbu foydali ish koeffitsientlarining qiymatlarini quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi: $\eta_{in} = 0,75$; $\eta_{tr} = 0,87$; $\eta_k = 0,97$; $\eta_l = 0,95$.

Agar, detalning toblanadigan yuzasi uncha katta bo‘lmasa yoki toblash jarayonining ish unumi katta bo‘lishi talab etilsa detalni birdaniga to‘la toblash usulini qo‘llash tavsiya etiladi.

Bunda detalning butun toblanadigan yuzasi bir vaqtning o‘zida qizdiriladi.

Detailning yuzasi kerakli haroratgacha qizdirib olingandan so‘ng qizdirish to‘xtatiladi va keyin sovitiladi.

Agar detalning toblanadigan yuzasi katta va uzun bo‘lsa, uni bir vaqtning o‘zida butun yuzasini qizdirish uchun juda ham katta quvvat kerak bo‘ladi, bu o‘z-o‘zidan amalga oshirib bo‘lmaydigan jarayon bo‘lib qoladi yoki iqtisodiy maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Bunday detallar uchun uni bir uchidan boshlab ikkinchi uchiga qarab uzluksiz ketma-ket toblash usuli qo‘llaniladi. Qizdirishning bunday usulida induktor bilan detalni bir-biriga nisbatan uzluksiz siljitib boriladi.

Bunda qizdirish tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$v = \frac{l_1}{t_k},$$

bunda v – qizdirish tezligi yoki induktor bilan detalni bir-biriga nisbatan siljish tezligi, m/s ;

l_1 -induktorning kengligi, m ;

t_k -qizdirish vaqti, s .

Induktorning kengligi tok quvvatiga bog‘liq ravishda quyidagi ifoda orqali hisoblab topiladi:

$$l_1 = \frac{P_g}{\pi d_2} \frac{\eta_{in} \eta_{tr} \eta_k \eta_l}{p_o},$$

bunda P_g – generator quvvati, kW ;

d_2 -induktor trubkasining diametri, m ;

p_o - solishtirma quvvat, kW/m^2

Qizdirish vaqti detalning butun uzunligi bo‘yicha to‘la kerakli haroratgacha qizigan vaqti bilan ifodalanadi yoki quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$t_k = \frac{l_2}{v},$$

bunda l_2 -qizdiriladigan detalning uzunligi, m ;

v – qizdirish tezligi yoki induktor bilan detalni bir-biriga nisbatan siljish tezligi, m/s .

Detailarni bir uchidan boshlab ikkinchi uchiga qarab uzluksiz ketma-ket toblash (qizdirish) usuli nisbatan kichik quvvatlarda detallarning katta yuzalarini toblash imkonini beradi. Bunda, o‘z-o‘zidan ma’lumki, toblashdagi ish unumi proporsional ravishda kamayadi. Yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida, toblashning belgilangan shartlarini hisobga olgan holda, tok chastotasini, quvvatini va toblash tezligini aniqlash mumkin. Yuqoridagi olingan

ma'lumotlar va detalning uzunligini hisobga olgan holda toblashdagi ish unumini ham hisoblab topish mumkin.

Xulosalar.

1. Avval olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tahlili ko'rsatdiki, tuproqqa ishlov beradigan mashinalar ish organlarining resursini oshirishda ularning qattiqligini kvartslar qumidan iborat abraziv qattiqligiga nisbatan 0,6 va undan yuqoriroqqacha orttirish kerak ekan.

2. Aniqlandiki, tuproqqa ishlov beradigan mashinalar ish organlarining resursini oshirishning termik ishlov berish (toblash), kimyoviy–termik ishlov berish va ishchi yuzasiga yeyilishga chidamli materiallarni payvandlab qoplash usullari mavjud bo'lib, ulardan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi sharoiti uchun iqtisodiy samaralisi bo'lib toblash hisoblanadi.

3. Olib borilgan nazariy tadqiqotlar natijasida tuproqqa ishlov beradigan mashinalar ish organlariga, xususan plug lemexlariga termik ishlov berish uchun ularni ishchi yuza qatlamini 2 mm gacha qalinlikda toblash kerakligi aniqlandi.

4. Plug lemexlarining ishchi yuzasini talab etilgan qalinlikda toblash uchun bugungi kunda detallarning yuza qatlamini toblashning zamonaviy usullaridan biri bo'lgan induksion toblash usuli tanlab olindi va uning asosiy parametrlari nazariy asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тененбаум М.М. Сопротивление абразивному изнашиванию. Москва. Машиностроение. 1976.- 270 с.
2. Ткачев В.Н. Износ и повышение долговечности деталей сельскохозяйственных машин. Москва. Машиностроение. 1971.- 262 с.
3. Бенезовский Ф., Киффер Р. Твердые сплавы. –М.: Металлургия, 1971.-392 с
4. Хрущов М.М., Бабичев М.А. Абразивное изнашивание. – М.: Наука, 1970. – 252 с.
5. Икрамов У., Левитин М.А. Основы трибоники. -Т: "Ўқитувчи", 1984.- С.3-179.
6. Проников А.С. Параметрическая надежность машин. – Москва: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2002. - 560 с.*
7. Гаркунов Д.Н. Триботехника (конструирование, изготовление и эксплуатация машин): Учебник. – 5-е изд. Перераб. и доп.- Москва: Издательство МСХА, 2002.- 632с.
8. Крагельский И.В., Добычин М.Н., Комбалов В.С. Основы расчета на трение и износ. Москва: Машиностроение. 1977.- 526 с.
9. Основы трибологии (трение, износ, смазка). Под общ. Ред. А.В.Чичинадзе. Москва: Машиностроение. 2001.- 442 с.
10. Нуриев К.К. Повышение эксплуатационно-технологических показателей почвообрабатывающих машин хлопководческого комплекса.: Дисс. ... док. тех. наук. – Янгиюль, 2005. – 540 с.
11. Ерохин М.Н., Новиков В.С. Прогнозирование долговечности рабочих органов почвообрабатывающих машин при их разработке // Агроинженерия. 2017. №6 (82) – С. 56-62.
12. Н.П.Гурнович. Машины для основной обработки почвы: учебнометод. пособие к лабораторным (практическим) занятиям / сост.: Н.П.Гурнович [и др.]. – Мн.: БГАТУ. – 2009. – 76 с.

13. Ибрагимов Х.М. Основы технологических процессов термической обработки стали: учебное пособие / Х.М. Ибрагимов, В.И. Филатов, В.Л. Ильичёв – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2009. – 68 с. С.29-31.

14. Шамов А.Н., Бодажков В.А. Проектирование и эксплуатация высокочастотных установок. «Машиностроение», -Л 1974. – С. 280

15. Qosimov K.Z., Madazimov M.T., Qodirov N.U., Sultonov R.Sh. Plug lemexlarini o'rganish natijalar tahlili. FarPI ilmiy-texnika jurnali, Farg'ona, 2022, T.26, №1, 160-163 b.

16. Qosimov K., Qodirov N. The results of abrasive wear test in laboratory conditions of ploughshares with increased resource by heat treatment. European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Vol. 4 No.1, January 2023 ISSN: 2660-5643 pp. 1-5.

17. Qosimov K.Z., Madazimov M.T., Qodirov N.U., Kosimov S.D. Plug lemexlari yeyilishini o'rganish va ularning resursini oshirish texnologiyalari tahlili // Raqamli texnologiyalar, innovatsion g'oyalar va ularni ishlab chiqarish sohasi va qo'llash istiqbollari: Xalkaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar tuplami. - 1-shu'ba. -AndMI, Andijon, 2021. - B. 158-160.

18. Qosimov K.Z., Qodirov N.U. Plug lemexlarini yeyilishga sinashda bir va qo'p omilli eksperimental tadqiqotlaridan olingan natijalar tahlili. Mashinasozlik ilmiy texnika jurnali, Andijon, 2022, №1, 142-149-b.

19. Qosimov K.Z., Qodirov N.U., Maxmudov I.R., Obidov O.S. Qishloq xo'jaligida keng qo'llanilayotgan plug lemexlari materiallarini o'rganish. FarPI ilmiy-texnika jurnali, Farg'ona, 2022, Maxsus son №14, 21-24 b.

Тоиров Отабек Тоир ўғли

"Материалшунослик ва машинасозлик" кафедраси докторанти

e-mail: otabek_toirov@mail.ru

Турсунов Нодиржон Қайумжонович

"Материалшунослик ва машинасозлик" кафедраси мудири

e-mail: u_nadir@mail.ru

КОМПЮТЕР СИМУЛЯЦИЯСИ ЁРДАМИДА "ЁН РАМА"НИ ҚУЙИШ ТИЗИМИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛИТИКОВОЙ СИСТЕМЫ ДЛЯ ОТЛИВКИ «РАМА БОКОВАЯ» С ПОМОЩЬЮ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

IMPROVEMENTS OF THE LITTING SYSTEM FOR CASTING "SIDE FRAME" USING COMPUTER SIMULATION

Аннотация

Мақолада қуйма деталларда вужудга келадиган нуқсонларни олдиндан тахлил қилиш мақсадида замонавий технологиялардан фойдаланилди. ProCAST компютер дастури ёрдамида қуйма деталлар симуляцияси қилинди. Бугунги кунда қуймакорлик

саноати жадаллик билан ривожланмоқда. Тошкент Қуюв-механика заводи Ўзбекистон бўйлаб темир йўл, йўл қурилиши учун турли хил кенг кўламдаги қуйма ва деталларни етказиб бермоқда. Темир йўл юк вагонларининг эҳтиёт қисмларига оғир эксплуатацион шароитда ишлаш билан биргаликда юқори талаблар қўйилади.

Аннотация

В статье использованы современные технологии с целью предварительного анализа дефектов, появляющихся в литых деталях. Детали отливки моделировали с помощью компьютерной программы ProCAST. Сегодня литейная промышленность развивается быстрыми темпами. Ташкентский литейно-механический завод поставляет различные крупногабаритные отливки и детали для железнодорожного и дорожного строительства по всему Узбекистану. К запчастям грузовых железнодорожных вагонов предъявляются высокие требования, работающие в тяжелых условиях эксплуатации.

Abstract

In the article, modern technologies were used in order to pre-analyze the defects that appear in cast details. Cast details were simulated using the ProCAST computer program. Today, the foundry industry is developing rapidly. The Tashkent Foundry-Mechanical Plant supplies various large-scale castings and details for railway and road construction throughout Uzbekistan. High demands are placed on the spare parts of railway freight wagons, together with working under severe operating conditions.

Калим сўзлар: *қуйма деталлар, ён рама, рессор устки балкаси, ProCAST дастури, газли говак.*

Ключевые слова: *литейные детали, боковая рама, надрессорная балка, программа ProCAST, газовые поры.*


Key words: *casting details, side frame, spring upper bar, ProCAST program, gas cavity.*

Юк вагонларига ўрнатиладиган қуйма деталлар шу жумладан «Ён рама» ва «Рессор устки балкаси» ва шу каби маъсулияти юқори қуйма деталлар катта ўлчамга эга бўлиши билан бирга жуда оғир, структуравий мураккаб ва қалин девордан юққасига ёки юққа девордан қалин деворларга кўплаб ўтишларнинг мавжудлига сабабли мураккаб конфигурацияли қуйма деталлар сарасига киради. Юқорида келтирилган қуйма деталлар лигерланган 20ГЛ ёки 20ГФЛ пўлат маркаларидан қўйилади. Бу маркадаги пўлатлар киришиш кучланишларининг ривожланишига мойил бўлади ва нисбатан кенг кристалланиш диапазони эга. Бундай шароитда қисқариш нуқсонлари, шу жумладан иссиқ ёриқлар еҳтимоли юқори.

«Ён рама» ўзига хос маълум талаблар асосида қўйилади. Қуйма деталларга ишлатилиш жойларига қараб тегишли стандарт талаблар қўйилади, масалан, бу деталларнинг ишлаши пайтида маълум бир қисмлари потенциал кучланишлар остида бўлади, айнан шу жойларда кичик ёриқлар, ички ёриқлар ёки иссиқ ёриқларнинг бўлмаслигига алоҳида этибор берилади, чунки бу ёриқлар оқибатида катта ҳалокатлар содир бўлиши мумкин. Бу эса мутахасислардан ҳар хил нуқсонлар пайдо бўлишининг

олдини олишда мақсадли чора-тадбирларнинг бутун мажмуасини ишлаб чиқишни талаб қилади.

Қиланиётган чора-тадбирларга қарамай юк вагонларига ўрнатилиши кўзда тутилган «Ён рама» маъсулияти юқори куйма деталларда нуқсонлар вужудга келмоқда (1-расм).



1 – расм. 2017 – 2021 йиллар мобайнида учраган нуқсонларни статистик таҳлили

Қумли ғовакли нуқсон – бу қолиплар ва стержнларни ишлаб чиқариш сифати билан боғлиқ нуқсондир.

Газли ғоваклар – бу металлдан чиқадиган ёки металлга кирадиган газлар натижасида ҳосил бўлган бўшлиқ шаклидаги нуқсон.


Тўлиқ тўлмаслик - бу қуйиш пайтида форма бўшлиғини суюқ металл билан тўлмай қолиши туфайли қуйманинг асл шакли тўлиқ шаклланмаганлиги кўринишидаги нуқсон.

Иссиқ ёриқ – бу қотиш ҳарорати оралиғида юзага келадиган, қуйма танасининг совуш вақтидаги киришиши туфайли тана қисмларининг ёрилиши ёки йиртилиши шаклидаги нуқсон.


Бу нуқсонларнинг вужудга келишига сабаб бўлувчи умумий омиллар бор булурга: қуйиш тизимининг технологик бўлмаганлиги, қуйилган қуйманинг танаси бир меъёрда қуйилмаганлиги, таъминлагич устама ва таъминлагичларнинг нотўғри ўрнатилиши, қуйиш ҳароратининг юқорилиги.

Юқорида санаб ўтилган нуқсонлар оқибати хавfli оқибатлар билан тугаши мумкин. Буларни олдини олиш мақсадида замонавий усуллардан бири компьютер дастурлари ёрдамида қуйиш технологияларини моделлаштириш жуда қулайлик яратиб ва иқтисодий имкониятларни кенгайтириб бериши билан алоҳида ўрин эгаллайди.

Нуқсонларни йўқотиш мақсадида ProCAST дастури ёрдамида «Ён рама» учун ҳисобланган жорий ва янги таклиф қилинаётган қуйиш тизимлари таққослаб, уларнинг натижалари муҳокама қилиниб амалиётда қўлланилди.



2 – расм. Жорий қуйиш тизимининг қуйма бўшлиғини 7 минутдаги тўлиш вақтидаги кўриниши.



3 – расм. Таклиф қилинаётган қуйиш тизимининг қуйма бўшлиғини 7 минутдаги тўлиш вақтидаги кўриниши.

1-жадвал Икки хил қуйиш технологиясининг фарқи


№	Солиштирилаётган фарк	Қуйиш тизимларининг номи	
		Жорий қуйиш тизими	Таклиф қилинаётган қуйиш тизими
1	Тўлиш вақти	7.4 сек	7.2 сек
2	Тўлганлик фоизи	42%	40%

3	Суюқ металлни қотиши	2.7	0.9
4	Нуқсонларнинг вужудга келиш хавфи	4 тадан 3 та	4 тадан 1та
5	Қуйиш харирати	1610°C	1590°C
6	Таъминлагич устаманинг қуйма танасини таъминлаши	70%	98%
7	Суюқ металлнинг массаси қуйиш тизими билан бирга	700 кг	620 кг

Юқоридаги солиштирилаётган икки тизимнинг бир хил вақтдаги кўринишидан шуни айтиш мумкинки, бўшлиқни тўлдирётган суюқлик ҳарорати жорий технологияга нисбатан таклиф қилинаётган технология бир мунча афзалроқ. Буни 2-3 расмлардан ва 1-жадвалдан тушуниб олиш мумкин.

2. Абдуазизов Н.А. Разработка оптимальных параметров системы «Гидробак-охладитель» гидрообъемной силовой установки карьерного комбайна. – Монография. – Навои, 2019. – 142 с.

3. Абдуазизов Н.А. Повышение эффективности гидравлической системы карьерных экскаваторов. – Монография. – Навои, 2020. – 132 с.

4. Абдуазизов Н.А., Тошов Ж.Б. Анализ влияния температуры рабочей жидкости на работоспособность гидравлических экскаваторов // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2019. – №3. – С. 89-92 (04.00.00; №3).

5. Yuldashev, S., & Masharipov, M. N. (2020). RECOVERY OF WORN PARTS BY ELECTRODES. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 16(3), 149-153.

6. Masharipov, M. N. (2020). INCREASING THE STRENGTH OF WORN PARTS WITH COMPOSITE MATERIALS. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 16(2), 168-17

**ENERGETIKA VA ELEKTROTEXNIKA. QISHLOQ XO‘JALIGI
ISHLAB CHIQRISHINI ELEKTRLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI.
ELEKTRONIKA.**

Abdullayev Abduvoxid Abdug‘affor o‘g‘li
tayanch doktorant

Farg‘ona politexnika instituti
abdullaevabduvokhid@gmail.com

+998 90 533 56 12

To‘ychiyev Zafarjon Zokirovich – PhD

Farg‘ona politexnika instituti dekan o‘rinbosari
+998 91 655 70 55

**KUCH TRANSFORMATORINING CHULG‘AMLARINI MEXANIK HOLATINI
BAHOLASH USULLARI TAHLILI**

**АНАЛИЗ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ МЕХАНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ОБМОТОК
СИЛОВЫХ ТРАНСФОРМАТОРОВ**

**ANALYSIS OF METHODS FOR ASSESSING THE MECHANICAL CONDITION OF
POWER TRANSFORMER WINDINGS**

Annotatsiya

Maqolada kuch transformatorlarining chulg‘amlarini shikastlanish sabablari, ularni diagnostika qilish usullari tahlil qilingan. SFRA usuli va uning o‘ziga xos tomonlari, SFRA usulidan foydalanib kuch transformatorlardagi shikastlanish turlarini aniqlash, chulg‘am nosozliklari simulyatsiyasi kabi mavzulariga ko‘rib chiqilgan.

Аннотация

В статье анализируются причины повреждения катушек силового трансформатора и методы их диагностики. Рассмотрены метод SFRA и его особенности, выявление типов повреждений силовых трансформаторов методом Анализ частотного отклика, моделирование отказов обмоток.

Annotation

The article analyzes the causes of damage to power transformer coils and their diagnostic methods. The SFRA method and its specific aspects, the identification of types of damage in power transformers using the SFRA method, and the simulation of windings failures are considered.

Kalit so‘zlar: *chulg‘amlarning deformatsiyalanishi, diagnostikalash usullari, SFRA, rezonans chastotalar usuli, regressiya tahlili, nanosekundli zondlash impulsarlari, sig‘im o‘lchash usuli, akustik to‘lqinlar, ishonchlilikni bashorat qilish.*

Ключевые слова: деформация обмотки, методы диагностики, SFRA, метод резонансных частот, регрессионный анализ, наносекундные зондирующие импульсы, метод измерения емкости, акустические волны, прогноз надежности.

Keywords: winding deformation, diagnostic methods, SFRA, resonant frequency method, regression analysis, nanosecond probing pulses, capacitance measurement method, acoustic waves, reliability prediction.

Kirish. Iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda transformatorlarning shikastlanishi energetika tizimi uchun noqulay vaziyatlarni keltirib chiqarish bilan bir qatorda, tizimning ishonchligini pasayishiga olib keladi.




1-rasm. Kuch transformatorlarini nazorat qilishning asosiy usullari [1].

Energetika tizimida qisqa tutashuv sodir bo'lganda hosil bo'ladigan elektrodinamik kuchlar ta'siri ostida chulg'amlarning deformatsiyalanishi va ularning izolyatsiyasini qisman zaryadsizlanishi kuch transformatorlari shikastlanishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kuch transformatorlari chulg'amlarining elektrodinamik mustahkamligini yetarli darajada bo'lmasligi muammosi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Transformatorlarga xizmat ko'rsatish va qisqa tutashuv toklari ta'siri natijasida hosil bo'ladigan kuchlarga bardoshliligiga sinovidan o'tkazish bo'yicha to'plangan tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, chulg'am elektrodinamik mustahkamligini yo'qolishining asosiy sabablaridan chulg'am vertikal o'qi va radiusi yo'nalishidagi qoldiq deformatsiyalar, chulg'amlarning siljishi, mexanik shikastlanishlar va boshqalar hisoblanadi [2].

Magnitlanish toki bo'yicha holatni nazorati, chulg'amlarning sig'imini o'zgartirish orqali, qisqa tutashuv umumiy qarshiligi (induktivligi)ni o'zgartirish orqali diagnostikalash usullari global parametrlar o'zgarishini o'lchashga, past kuchlanishli impulslar, chastotani tahlil qilish

va tebranishlarni tahlil qilish usullari shikastlanish paytida signal xususiyatlarini mahalliy o'zgarishini kuzatishga asoslangan.



2-rasm. Chulg'amlarning mexanik holatini diagnostikalash usullari [2]

Transformatorlarning ishdan chiqish sabablarini tahlil qilish, ularni bartaraf etishning asosiy sabablari va usullarini aniqlash imkonini beradi. Bu transformatorlarning ishlash muddatining uzayishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi va elektr energiyasining yo'qotilishini kamaytiradi.

Ishning maqsadi Energetika tizimida katta quvvatli elektr energiyasini uzoq masofalarga isroflarni kamaytirib uzatishda muhim rol o'ynaydigan kuch transformatorlari chulg'amlarining diagnostika qilish usullarini tahlil qilish orqali kuch transformatorlarining ishonchligini oshirish hamda ishlash muddatini uzaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari

A.Yu. Xrennikov kuch transformatorlari chulg'amlarining mexanik holatini diagnostika qilish usullaridan past kuchlanishli impuls usulini tadqiq qilish ishlarini olib borgan. Bu usulni transformator chulg'amining o'ramlari orasidagi sig'im va induktivlikning kichik o'zgarishlarga sezgirli yuqori bo'lib, transformatorning deformatsiyalanganligi bo'yicha xulosa olish normogrammlar va defektogrammlarni taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Katta quvvatli kuch transformatorlarida past kuchlanishli impuls usulini 100-600 V kuchlanishda, davomiyliigi 1 mks, hamda 320 va 500-550 kGz chastotalarda qo'llash samarali natijalarni beradi [8].

V.I. Aftaev, V.A. Novikova, A.A. Gorodskix, V.A. Morozovlarning "Kuch transformatori chulg'amlarining mexanik holatini baholash usullari" nomli ilmiy tadqiqot ishida transformatorlarning chulg'amlari mexanik holatini baholash usullari: magnitlanish toki

bo'yicha holatni nazorat usuli, sig'im o'zgarishi bo'yicha nazorat usuli, qisqa tutashuv umumiy qarshiligini o'lchash usuli, tebranishlarni tahlil qilish usuli, chastotalar tahlili usuli, past kuchlanishli impuls usullarining tahlilini o'tkazgan (1-jadval) [2]

Transformatorlarning chulg'amlarini mexanik holatini baholash usullari tahlili

1-jadval


Usul nomi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Magnitlanish toki bo'yicha holatni nazorati	Chulg'am transformatori o'ramlari tutashuvini aniqlashda oson va samarali usul	Boshqa turdagi shikastlanishda sezgirlik juda past
Sig'im o'zgarishi bo'yicha nazorat usuli	Faqat tarqalish kanalining o'lchami (hajmi) o'zgarishiga olib keladigan transformator chulg'amlari deformatsiyalarining bunday turlariga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega	Boshqa turdagi shikastlanishda sezgirlik juda past
Qisqa tutashuv umumiy qarshiligini o'lchash usuli (метод Zk)	Chulg'amlarning radial barqarorligini yo'qitishga sezgir	Boshqa turdagi shikastlanishda sezgirlik juda past
Tebranishlarni tahlil qilish (Vibro-acoustic) usuli	Chulg'am bosilishini (запрессовки) nazorat qilishga mo'ljallangan	Avtotransformatorlar ning chulg'amlarini mexanik holatini baholashda mustaqil vosita emas
Chastota ta'siri tahlili usuli (FRA/МЧА (метод частотных характеристик))	50Hz-5MHz chastotasi o'zgaruvchan sinusoidal kuchlanish manbasi	Murakkab usul, ishlab chiqilgan chastota xususiyati va ossilogrammalar tahlil qilinadi
Past kuchlanishli impuls usuli (НВИ-LVI)	Chulg'am yoki neytralga to'rtburchakli impuls qo'llaniladi	
Kommutatsion impulslarni zondalash	Kuchlanishni olmasdan turib chulg'amni o'q bo'ylab siljishini aniqlash	

Kuch transformatorlarning chulg'amlari orasida doimiy aloqa bo'lganligi sababli ularni burilishiga sabab bo'luvchi, ichki qisqa tutashuvlarni keltirib chiqaruvchi tangensial kuchlar vujudga keladi. Chulg'am deformatsiyalari issiqlik va dielektrik muammolarni keltirib chiqarmasa, an'anaviy monitoring usullarini qo'llash orqali aniqlay olmaydi, maxsus usullar qo'llash kerak bo'ladi [2].

V.A. Lavrinovich, A.V. Lavrinovich, A.V. Mitnikovlarning “Kommutatsiya impulslari asosida yuqori kuchlanishli transformatorlarning chulgʻamlari holatini nazoratini tajriba yoʻli bilan tadqiq qilish” nomli ilmiy tadqiqot ishida transformatorlarning chulgʻamlarini kuchlanish ostida nazorat qilinuvchi, tarmoqning kommutatsion impulslaridan zondlash sifatida foydalanishga soslangan usulni tadqiq etgan. Bu usulda kommutatsion impulslari maʼlumotlaridan foydalanib chulgʻam oʻramlarining oʻq boʻyicha siljishda nuqsoni bor-yoʻqligini aniqlash mumkin boʻlib [3].

J.R. Secue, E. Mombellolar “Kuch transformatorlarida chulgʻamlarning siljishi va deformatsiyasini baholash uchun chastota taʼsiri tahlili (SFRA)” nomli ilmiy tadqiqot ishida past kuchlanishli impuls usuli (LVI) hamda chastota taʼsiri tahlili (SFRA) usullarining xususiyatlarini baholash, SFRA va LVI usullarining oʻziga hos tomonlarini koʻrib chiqqan. [4].

SFRA oʻlchovning asosiy xususiyatlari 10 Hzdan 10 MHzgacha boʻlgan toʻla qarshilik (Z) yoki uzatish funksiyasi (H) chastota oraligʻi va miqdori aniq belgilanmagan oʻlchanadigan chastotalar miqdoriga bogʻliq. Turli mualliflar tomonidan SFRA oʻlchov uchun foydalanilgan chastota oraligʻi koʻrib chiqilgan Bunda sinov jarayonida oʻlchanadigan chastotalar miqdori oraligʻi 2% dan oshmagan 1000, 2000, 3000 ta yoki boshqa miqdorda bajarilishi lozim [4].



3-rasm. SFRA usulida Trda aniqlanadigan shikastlanish turlari [4].

Zhang Bin, Zhao Dan, Wang Feiming, Shi Kejian, Zhao Zhenyanglar kuch transformatori chulgʻamlarining mexanik shikastlanishlari ustida olib borilgan tadqiqot ishida qisqa tutashuvning reaktiv qarshiligi va mexanik tebranishiga asoslangan transformatorlarning

chulgʻamlarini diagnostikalashni yangi usuli ishlab chiqildi. Qisqa tutashuv qarshiligi (Z) va chastota taʼsiri tahlili (FRA) usullari elektr oʻlchovlar asosida offline nazorat qilinib, ular faqat nosozlik bor yoki yoʻqligini aniqlaydi, lekin nosozlikning turini va joyini tashxis qila olmaydi [5].

S.Fazliddinov, B.Kuchkarov, N.Sharibayev, A.Abdulxayev, A. va M. Tulkinovlar “Kuch transformatori modellarining mexanik holatini aniqlashning zamonaviy usullari tahlili” nomli maqolasida oʻramlar uchun maksimal elektromagnit kuchlar va mexanik kuchlanishlarning aniq tasviri magnit maydonning uch oʻlchovli raqamli hisobiga asoslangan matematik modeli ishlab chiqilgan. Maqolada keltirilishicha rezonans chastotalar usuli chulgʻamlardagi deformatsiyalarni sezilarni darajada oʻzgargandagina aniqlay oladi. Chulgʻamlarning radius, oʻq va geometrik modellari chulgʻamlarga taʼsir qiluvchi elektrodinamik kuchlarni aniqlash imkonin beradi. Elektrodinamik kuchlarni anʼanaviy usulda hisoblashda qisqa tutashuv rejimida chulgʻamlarning mexanik kuchlanishini taxminiy integral baholaydi [7].

B.A.Thango, A.F.Nnachi, G.A.Dlamini, va P.N.Bokorolar “Regressiya tahlili va chastota taʼsiri oʻlchovlari yordamida kuch transformatorining holatlarini baholash uchun yangi yondashuv” nomli maqolasida kompyuterlashtirilgan transformatorlarning chulgʻami holatini monitoring qilish maqsadida barmoq izi bilan chastota taʼsiri tahlilining soʻngi oʻlchovlari maʼlumotlari orasidagi regression modelni ishlab chiqish va tahlillarni solishtirish uchun raqamli koʻrsatkichlarga asoslangan yangi regression tahlili xatosini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan [9].

A.V.Lavrinovich va A.V.Mitnikovlar TM-160/10-U1 turidagi moyli kuch transformatorining chulgʻamlari holatini samarali nazorat qilish uchun Y.V.Vedenskiy sxemasi boʻyicha zondlash impulslari generatori asosida diagnostikalash kompleksini ishlab chiqqan. Bu usul yordamida chulgʻam oʻramlarini siljishi va chulgʻamlar qisqa tutashuvini aniqlash 15-20 ns oldi bilan 60-500 ns impuls davomiyligida yuqori sezuvchanlikka ega boʻladi. Transformator chulgʻamlarining mexanik holatini nanosekundli zondlash impulslari bilan impuls nuqsonlarini aniqlash texnologiyasi chastota taʼsirini tahlil qilish usuliga nisbatan transformator chulgʻamlarining radius va oʻqi yoʻnalishdagi siljishlarini aniqlashda nisbatan yuqori sezgirlikka ega. Lekin bunda tangensial (geometrik) yoʻnalishdagi siljishlarga toʻxtalib oʻtilmagan [10].

SFRA usulining oʻziga hosligi shundaki, oʻzakdagi muammolar, chulgʻamdagi mexanik muammolar va boshqa elektrik shikastlanishlarni bir marta tekshiruv oʻtkazishda aniqlash imkoniyatini berish bilan birga transformatorlarni oʻrnatish va taʼmirlashdan keyingi samarali ishlashini taʼminlashda ham foydalaniladi [11]. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, olingan natijalarni tahlil qilish uchun mukammal algoritm mavjud emas va tahlil qilish jarayoni murakkabdir.

A.M.Abdullah, R.Ali, S.B.Yaacob, T.Mansur va N.H.Baharudinlar diagnostik usullarning monitoringidan foydalangan holda, transformator moylari sinoviga qaraganda tezroq natija olish imkonini beruvchi, salomatlik indeksini ishlab chiqishgan. Bu index transformatorlar chulgʻamlarining qarshiligi hamda izolyatsiyasining qarshiligini: yuqori kuchlanish chulgʻamini yer bilan, quyi kuchlanish chulgʻamini yer bilan va yuqori kuchlanish chulgʻamini quyi kuchlanish chulgʻami bilan qarshiliklarini oʻchash natijalarini tahliliga

asoslangan [12]. Chulg'am izolyatsiyasining qarshiligini o'lchash chulg'amdagi shikastlanish bor yo'qligini aniqlash imkonini beradi. Lekin, bu usul yordamida barcha turdagi izolyatsion nuqsonlarni aniqlash imkoniyati cheklangan.

D.A.Semeniv transformatorlarning holatini nazorat qilish maqsadida ikki chulg'amli transformatorlarning chulg'amlari izolyatsiyasining elektr sig'imini o'lchash [13] bo'yicha ilmiy tadqiqot ishini olib borgan hamda transformator chulg'amlarining to'la sig'imini o'lchash imkonini beruvchi ampermetr-voltmeter usulida ishlovchi qurilma ishlab chiqilgan [14]. Chulg'amlarning sig'imidagi o'zgarishlarga asoslanib chulg'amlarda deformatsiya mavjudligini tekshirishda chulg'amning sig'imini o'lchash usulidan foydalaniladi. Bu usulning asosiy kamchiliklari tashqi omillar (harorat, namlik, o'ktazuvchanlik) ka bog'liq, qo'shimcha qurilmalar, vaqtga bog'liqligi, diagnostika aniqligini oshirish uchun boshqa diagnostikalash usullari bilan birgalikda ishlatilishi lozim bo'ladi.

Nieterye Frederik kuch transformatorlarining moyi va chulg'amlari izolyatsiyasidagi elektr zaryadsizlanishlarning rivojlanishining akustik to'lqinlarni ro'yhatga olish uchun turli hil usullar va sensorlar tahlili ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Bu usul kuch transformatorlariga o'rnatilgan sensorlar yordamida elektr zaryadsizlanish paytida sodir bo'ladigan tovushli impulslarni qayd etishga asoslangan, transformatorlardagi shikastlangan joyini va qisman zaryadsizlanish darajasini o'lchaydigan usul. [15, 16].

Ushbu usulda ishdan chiqishga olib kelmaydigan kirishdagi dendridet va izolyatsiyadagi nuqsonlarni aniqlash, bashorat qilish, izolyatsiyani eskirish darajasini baholash imkoniyati mavjud emas. Akustik shovqin (μM) va elektromagnit shovqin (mOeM)lar usulning aniqlash oralig'ini kamaytiradi. Akustik usuldan kuch transformatorlar ishlash jarayonida paydo bo'ladigan izolyatsiya shikastlanishlari va mavjudligini aniqlashda ham foydalaniladi [15]. Shu bilan birga qisman zaryadsizlash izolyatsiyaning bosqichma bosqich mustahkamligini kamaytirib, oxir-oqibat uning teshilishiga olib keladi [16].

R.G.Mustafin transformatorlar chulg'amlari o'ramlarining tutashuvini aniqlash bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishida ikkilamchi chulg'ami tutashgan transformatorning kompyuter modelini ishlab chiqqan va shunga asosan o'tkinchi jarayonlar parametrlarining o'zgarishi bo'yicha transformatorlarning shikastlanishini aniqlashni taklif etgan. Transformatorga o'zgarimas kuchlanish berilganda transformatorning shikastlanmagan chulg'amlarida magnitlanish induktivligi ancha yuqori va shikastlangan chulg'amda esa ancha past qiymatlarda bo'lib, ularda o'tkinchi jarayonlardagi tok kuchining o'sishi turlicha bo'ladi [17].

Transformatsiyalangan chulg'amlardagi shikastlanishni aniqlashda o'tkinchi jarayonlarni keng oraliqlarda o'lchanganligi sababli transformatorlarning chulg'amlaridagi shikastlanishlarni ham keng oraliqlarda aniqlash imkoniyatini beradi [17].

A.S.Lukovenko, V.V.Kukartsev, V.S.Tynchenko, K.A.Bashmur, O.I.Kukartseva, A.S.Bondarevlar standart xizmat muddatini o'tab bo'lgan kuch transformatorlar uchun ishonchlilikni bashorat qilish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishida transformator maksimal yuklamada ishlaganda normal ishlash rejimlarini aniqlash uchun modellarni ishlab chiqishda Chi-kvadrat taqsimlash kvantlaridan foydalanishni tavsiya etgan. [18].

S. Liu, L.Zhang, L.Yang, C.Gu, Z.Wanglar transformatorlardagi tebranish nosizligi signallarini asosiy chastota va garmonik chastota xususiyatlarini tahlil qilgan holda quruq turdagi transformatorlar chulgʻamlarining vibratsion nosozliklarini aniqlash boʻyicha oʻtkazgan tadqiqot ishida COMSOL dasturidan foydalanib toʻrt turdagi chulgʻam nosozliklari simulyatsiyasi ishlab chiqqan. Ular: chulgʻamlari boʻshashgan, izolyatsiyasi shikastlangan, deformatsiyaga uchragan, eksentrik(chulgʻam markazi siljigan) boʻlib, tebranish amplitudasi oraligʻiga asosan transformator qaysi turdagi nosozlikka uchrashi mumkinligini aniqlash imkonini beradi [19].

Xulosa oʻrnida shuni takidlash joizki, kuch transformatorlarining chulgʻamlarini mexanik shikastlanishi qisqa tutashuv natijasida hosil boʻladigan elektrodinamik kuchlar tufayli yuzaga keladi. Bu mexanik holatni diagnostika qilishning bir necha xil usullari mavjud. Har bir usul oʻziga hos afzallik hamda kamchiliklariga ega. Bugungi kunda eng keng tarqalgan usullardan biri chastota taʼsiri tahlili (FRA) usuli hisoblanadi. Chastota taʼsiri tahlili usulining natijalarni mukammal tahlil qilish usuli ishlab chiqilmagan boʻlsada, kichik elektr hamda mexanik oʻzgarishlarga sezgirligi yuqori boʻlganligi sababli boshqa diagnostika qilish usulariga nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Kelajakda ushbu usul orqali olingan natijalarning tahlilini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Михеев Г. М. Электростанции и электрические сети. Диагностика и контроль электрооборудования. - Эл. изд. - Саратов: Профобразование, 2017. – 297 с.: ил. - ISBN 978-5-4488-0089-4.

2. В. И. Афтаев, В. А. Новикова, А. А. Городских, В. А. Морозов “Методы оценки механического состояния обмоток силовых трансформаторов” / Пути реализации Федеральной научно-технической программы развития сельского хозяйства на 2017-2025 годы: Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 75-летию Курганской области, с. Лесниково, Кетовский район, Курганская обл., 19–20 апреля 2018 года – С. 1017-1024.

3. Лавринович Валерий Александрович, Лавринович Алексей Валериевич, Мытников Алексей Владимирович “Экспериментальное исследование контроля состояния обмоток высоковольтных трансформаторов на основе коммутационных импульсов” // Известия ТПУ. 2020. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/eksperimentalnoe-issledovanie-kontrolya-sostoyaniya-obmotok-vysokovoltnyh-transformatorov-na-osnove-kommutatsionnyh-impulsoy>.

4. J.R. Secue, E. Mombello, Sweep frequency response analysis (SFRA) for the assessment of winding displacements and deformation in power transformers// Electric Power Systems Research, Volume 78, Issue 6, 2008, Pages 1119-1128, ISSN 0378-7796, doi.org/10.1016/j.epsr.2007.08.005.
(<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S037877960700171X>)

5. Zhang Bin, Zhao Dan, Wang Feiming, Shi Kejian, Zhao Zhenyang Research on mechanical fault diagnosis method of power transformer winding // *The 14th IET International Conference on AC and DC Power Transmission (ACDC 2018) J. Eng.*, 2019, Vol. 2019 Iss. 16, pp. 2096-2101

6. Zhang, Ziwei, Wensheng Gao, Tusongjiang Kari and Huan Lin. 2018. "Identification of Power Transformer Winding Fault Types by a Hierarchical Dimension Reduction Classifier." *Energies* 11(9):2434 DOI:10.3390/en11092434 <https://www.proquest.com/scholarly-journals/identification-power-transformer-winding-fault/docview/2108556243/se-2>.

7. Fazliddinov, S., Kuchkarov, B., Sharibaev, N., Abdulkhaev, A., & Mukhammad-Ali Tulkinov. (2022). Analysis of modern methods of determination of mechanical status and diagnostic models of power transformers. *Journal of Physics: Conference Series*, 2388(1), 012173. doi:<https://doi.org/10.1088/1742-6596/2388/1/012173>

8. Александр Хренников Силовые трансформаторы Методы диагностики механического состояния обмоток // *Новости Электротехники* 2009 №3(57)" URL: <http://news.elteh.ru/arh/2009/57/08.php?ysclid=ldx9j7wjzt862590616>.

9. Thango, B. A., Nnachi, A. F., Dlamini, G. A., & Bokoro, P. N. (2022). A novel approach to assess power transformer winding conditions using regression analysis and frequency response measurements. *Energies*, 15(7), 2335. doi:<https://doi.org/10.3390/en15072335>

10. Лавринович А.В., Мытников А.В. Диагностический комплекс для эффективного контроля состояния обмоток высоковольтных трансформаторов. *Известия Томского политехнического университета. Инжиниринг георесурсов*. 2020. Т. 331. № 11. 48–59 DOI: 10.18799/24131830/2020/11/2885

11. Adel El-Faraskoury Experiences of sweep frequency response analyser for the diagnosis of transformer winding damage//17th International Middle-East Power System Conference (MEPCON'15) Mansoura University, Egypt, December 15-17, 2015 DOI: 10.13140/RG.2.1.2787.0805 https://www.researchgate.net/publication/287489668_Experience_of_Sweep_Frequency_Response_Analyser_for_the_Diagnosis_of_Transformer_Winding_Damage

12. Abdullah, A. M., Ali, R., Yaacob, S. B., Mansur, T., & Baharudin, N. H. (2021). Prediction of transformer health index using condition situation monitoring (CSM) diagnostic techniques. *Journal of Physics: Conference Series*, 1878(1) doi:<https://doi.org/10.1088/1742-6596/1878/1/012007>

13. Семенов, Д. А. Устройство для измерения электрических емкостей изоляции обмоток двухобмоточного трансформатора / Д. А. Семенов // . – 2014. – № 1(1). – С. 384-391. – EDN TDWRNP.

14. Патент № 2489723 С1 Российская Федерация, МПК G01R 27/00. Устройство для измерения электрических емкостей изоляции обмоток двухобмоточного трансформатора: № 2011149943/28 : заявл. 07.12.2011 : опубл. 10.08.2013 / А. С. Серебряков, Д. А. Семенов ; заявитель Государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования Нижегородский государственный инженерно-экономический институт (НГИЭИ). – EDN ZGTJXK.

15. Ньетерейе, Ф. Преимущества и недостатки метода акустической диагностики силовых трансформаторов / Ф. Ньетерейе // XXV Всероссийский аспирантско-магистерский научный семинар, посвященный Дню энергетика : Материалы

конференции. В 3-х томах, Казань, 07–08 декабря 2021 года / Под общей редакцией Э.Ю. Абдуллазянова: Том 1. – Казань: Казанский государственный энергетический университет, 2022. – С. 25-28. – EDN SWDLJA.

16. Павлову Андрею Анатольевичу Анализ результатов импульсного дефектографирования активных частей высоковольтных трансформаторов // Магистерской диссертации / Томск – 2021г., с. 107
<https://earchive.tpu.ru/bitstream/11683/66767/1/TPU1159736.pdf>

17. Mustafin RG. Detection of inter turn fault in transformer windings by parameters of their transition processes. Power engineering: research, equipment, technology. 2019; 21(3):14- 23. (In Russ). doi:10.30724/1998-9903-2019-21-3-14-23.

18. Lukovenko, A. S., Kukartsev, V. V., Tynchenko, V. S., Bashmur, K. A., Kukartseva, O. I., & Bondarev, A. S. (2019). Reliability forecasting model for power transformers that have fulfilled their standard service life. Journal of Physics: Conference Series, 1399(5) doi:<https://doi.org/10.1088/1742-6596/1399/5/055091>

19. Liu, S., Zhang, L., Yang, L., Gu, C., & Wang, Z. (2023). The identification method of the winding vibration faults of dry-type transformers. Electronics, 12(1), 3. doi:<https://doi.org/10.3390/electronics12010003>

Eraliyev Xojiakbar Abdinabi o'g'li

Farg'ona politexnika instituti tayanch doktoranti

e-mail: eraliyevhojiakbar@gmail.com,

+998 93 977 69 99

Eraliyev Abdinabi Xokimovich

Farg'ona politexnika instituti dotsenti

+998 90 301 46 45

SMART FAZA TANLAGICH QURILMASIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО УСТРОЙСТВА
ПЕРЕКЛЮЧАТЕЛЯ ФАЗ**

EFFICIENCY OF USING A SMART PHASE SELECTOR DEVICE

Annotatsiya

Maqolada past kuchlanishli elektr tarmolarida kuchlanish nosimmetiyasining, kelib chiqish sabablari, tarmoq elementlariga salbiy ta'sirlari va mavjud, zamonaviy simmetriyalash usullari, vositalari tahlili keltirilgan. Mavjud qurilmalarning kamchiliklarini e'tiborga olib, Smart faza tanlagich qurilmasining taklifi va ishlash prinsipi tushuntirib o'tilgan. Smart faza tanlagich qurilmasi uch fazali to'rt simli tarmoqdan bir fazali yuklamani ta'minlash uchun mo'ljallangan. Qurilmada yuklamani amaldagi fazadan maqbul fazaga o'kazishda kutish vaqtini, kuchlanishlar farqini, ulab-uzish vaqtini, kuchlanishning ruxsat etilgan chegaralarini

tugmalar yordamida foydalanuvchi tomonidan oʻrnatiladi. Qurilma yuklamani minimal va maksimal kuchlanishdan ham himoya qiladi.

Аннотация

В статье представлен анализ асимметрии напряжения в низковольтных электрических сетях, обсуждаются ее причины, негативные эффекты на элементы сети и существующие современные методы и инструменты для балансировки. Учитываются недостатки текущих устройств, объясняется предложение и принцип работы устройства “Смарт переключатель фаз”. Устройство “Смарт переключатель фаз” специально разработано для подачи однофазных нагрузок из трехфазной четырехпроводной сети. Пользователи могут устанавливать время ожидания, разницу напряжения, время подключения и допустимые пределы напряжения с помощью кнопок на устройстве. Устройство также обеспечивает защиту нагрузки от как минимальных, так и максимальных уровней напряжения.

Abstract

The article presents an analysis of voltage asymmetry in low-voltage electrical networks, discussing its causes, negative effects on network elements, and existing modern methods and tools for balancing. The shortcomings of current devices are taken into account, and the proposal and principle of operation of the Smart Phase Selector device are explained. The Smart Phase Selector device is specifically designed to supply single-phase loads from a three-phase four-wire network. Users can set the waiting time, voltage difference, connection time, and permissible voltage limits using the buttons on the device. The device provides protection for the load against both minimum and maximum voltage levels too.

Kalit soʻzlar: *elektr energiyasi sifati, nosimmetrik yuklama, kuchlanish nosimmetriyaligi, simmetriyalovchi qurilma, mikrokontroller.*

Ключевые слова: *качество электроэнергии, симметричная нагрузка, несимметрия напряжения, симметрирующее устройство, микроконтроллер.*

Keywords: *power quality, symmetrical loading, voltage unsymmetry, balancing device, microcontroller.*


Kirish. Har bir elektr taʼminoti tizimining maqsadi isteʼmolchilarni uzluksiz, samarali, sifatli va ishonchli elektr energiyasi bilan taʼminlashdir. Isteʼmolchilarni sifatli va samarali elektr energiyasi bilan taʼminlash uchun elektr energiyasini taqsimlash tizimi yaxshi ishlab chiqilgan boʻlishi kerak. Lekin tadqiqotlar davomida past kuchlanishli tarmoqlarida elektr energiyasi sifat koʻrsatkichlarining buzilish holatlari koʻp ekanligini koʻrish mumkin. Ushbu sharoitda tarmoqda qoʻshimcha energiya yoʻqotilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa tarmoqda kuchlasnih nosimmetriyasining hosil boʻlishi tarmoq va tarmoq elementlarida qoʻshimcha yoʻqotishlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ortiqcha yuklangan fazalarda kuchlanish belgilangan eng past qiymatdan pastga tushishi mumkin, bu esa isteʼmolchilardagi elektr qurilmalarining notoʻgʻri ishlashiga, ortiqcha qizishiga va isteʼmolchilarning eʼtiroziga olib keladi [1, 2, 3].

Shu bilan birga, ushbu elektr qurilmalarining xavfsiz ishlashini, tizimlarning optimal ishlashini, elektr ta'minotida elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va uzluksizligini ta'minlash uchun xonadonlarda fazalar o'rtasidagi almashtirishni (fazali uzilish paytida, fazalar nosimmetriyaligi ortganda), fazalar o'rtasida optimal fazani tanlashni avtomatlashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanishida elektr energiyasi juda muhim rol o'ynaydi. Ishonchli, uzluksiz elektr ta'minotining mavjudligi har qanday davlatning iqtisodiy, infratuzilmaviy rivojlanishiga, yangi tadbirkorlik imkoniyatlariga va taraqqiyotning barqaror rivojlanishiga yordam beradi [4]. Iste'molchilardagi konditsionerlar, suv isitgichlar, suv nasoslari, isitgichlar, oshxona elektr qurilmalari va boshqa elektr jihozlarining ishlash samaradorligi past kuchlanishli elektr tarmoqlaridagi elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlariga bevosita bog'liq.

Kuchlanish nosimmetriyasi paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri nosimmetrik taqsimlangan bir fazali yuklama tufayli yuzaga keladigan nosimmetrik yuklama hisoblanadi [5]. Nosimmetrik yuklama yulduz ulangan to'rt simli tarmoqlarning neytralida tokning oshishiga olib keladi. Shuni e'tiborga olib past kuchlanishli elektr tarmoqlarida yuklamalarni simmetriyalash usullari va vositalarini ishlab chiqish bugungi kundagi asosiy dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ushbu muammoni hal qilishning asosiy usuli - passiv elementlar yordamida tarmoq kuchlanishini va yuklamalarini simmetriyalashdir. Ularning orasida eng keng tarqalgani fazalarda nosimmetrik taqsimlangan sig'imlarga ega bo'lgan kondensatorlarni ulash hisoblanadi. Biroq, bu usul kompensatsiya toklarini silliq tartibga solishga imkon bermaydi va buning natijasida ular simmetriyalash muammolarini hal qilishda past samaradorlikka ega [6].

Bundan tashqari Shtaynmets sxemasi yordamida simmetriyalashning ko'plab variantlari ishlab chiqilgan (1-rasm). Shtaynmets sxemasi bir fazali yuklama nosimmetrik kuchlanish bilan quvvatlanganda yuzaga keladigan toklar nosimmetriyaligini kamaytirish uchun ishlatiladi [7].




1-rasm. Simmetriyalovchi Shtaynmets sxemasi

Shtaynmets sxemasining kamchiliklari [8]:

- simmetriyalovchi elementlarining quvvatidan kam foydalanishi;

- yuklamani dinamik tartibga solishning murakkabligi;
- sozlash elementlarining kamligi.

Fan va texnologiya yutuqlari natijasida soʻngi yillarda xonadonlarning kirishida foydalanuvchi avtomatik faza tanlagichlar ishlab chiqarilmoqda. Rossiya Federatsiyasining EKF tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Реле выбора фаз RVF-3-63А EKF PROxima” (Faza tanlash relesi) qurilmasi, Ukrainaning Энергохит tashkiloti tomonidan DigiTOP brendi ostida ishlab chiqilgan “Переключатель фаз DigiTOP PS-63А” (Faza tanlagich) qurilmasi va Belarussiyasining “Евроавтоматика ФИФ” tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Переключатель фаз автоматический PF-451-1” (Avtomatik faza tanlagich) qurilmalari uch fazali toʻrt simli tarmoqdan bir fazali yuklamani taʼminlash uchun moʻljallangan [9, 10, 11]. Bu qurilmalarni past kuchlanishli tarmoq isteʼmolchilarida qoʻllab, kuchlanish nosimmetriyasini bartaraf etish mumkin. Qurilmalarda yuklamani amaldagi fazadan maqbul fazaga oʻkazishda kutish vaqtini, ulab-uzish vaqtini, kuchlanishning ruxsat etilgan chegaralarini tugmalar yordamida foydalanuvchi tomonidan oʻrnatiladi. Ammo tadqiqotlar davomida past kuchlanishli tarmoqlarda faza kuchlanishlari qiymatlari orasidagi farq tez-tez oʻzgarib turishini koʻrish mumkin (2-rasm). Qurilmalarda amaldagi taʼminot fazasidan maqbul fazaga oʻtishda kuchlanish farqi kiritilmagan. Bu esa bizning elektr tarmoqlardagi fazalar orasidagi kuchlanish farqlarining tez-tez oʻzgarishini eʼtiborga olsak, qurilmadan foydalanishda maʼlum bir noqulayliklarni keltirib chiqaradi.



2-rasm. Kun davomidagi fazalardagi kuchlanishning holati.


Ushbu muammolarni hal qilishning samarali usullaridan biri - Smart faza tanlagich qurilmalaridan foydalanishdir. Smart faza tanlagich - bu uch fazali tizimda turli fazalarga quvvat taqsimotini oqilona boshqara oladigan, energiya sarfini optimallashtiradigan va qoʻshimcha quvvat yoʻqotishlarini kamaytiradigan qurilma. Avtomatik ravishda fazalar oʻrtasida yuklarni almashtirish orqali, avtomatik uch fazali selektor yukni muvozanatlashi va har qanday fazaning ortiqcha yuklanishining oldini olishi mumkin, shu bilan elektr uzilishlari xavfini kamaytiradi.

Natijalar

Smart faza tanlagich qurilmasining prinsipial ishlash sxemasi 3-rasmdagi blok sxemada koʻrsatilganidek, yettita blokda amalga oshiriladi. Bloklar quyidagilardan iborat:

- I Past kuchlanishli elektr tarmogʻi;
- II Isteʼmolchi;

- III Uch fazali kuchlanishni o'lchash;
- IV Ma'lumotlarni qayta ishlash;
- V LCD display;
- VI Ma'lumotlarni sozlash;
- VII Kommutatsiya.



3-rasm: Smart faza tanlagich qurilmasining blok sxemasi

Past kuchlanishli elektr tarmog'ida $0,4$ kV kuchlanishli to'rt simli yulduz ulangan tarmoq bo'lib, tarmoqda fazalar orasida yuklamalar nosimmetrik tasimlansa neytral simda nol ketma-ketlik toki hosil bo'ladi.

Iste'molchi $0,4$ kV kuchlanishli to'rt simli yulduz ulangan tarmoqning bitta fazasidan ta'minlanuvchi xonadon.

Uch fazali kuchlanishni o'lchash qismida ikkita asosiy tarkibiy qism mavjud bo'lib, ular quyidagicha ishlaydi:

Ta'minot kuchlanishi qismida qurilmaning ishchi holatini ta'minlash uchun mikrokontroller ta'minot kuchlanishining A fazasiga ulangan. A fazadagi kuchlanishni $220/17,5$ V kuchlanishli transformator yordamida pasaytirib diodli ko'prik yordamida o'zgaras tokka o'zgartiriladi va kondensator yordamida filtrlanadi. Mos fazalarga o'rnatilgan rellarning ishonchli ishlashi uchun diodli ko'prikdan chiquvchi o'zgaras tokni kuchlanish to'g'rilagichi orqali 12 V ga pasaytiriladi. Mikrokontroller ishonchli ishlashi, ma'lumotlarni taqqoslashi va qayta ishlashi uchun kuchlanish to'g'rilagichidan chiquvchi 12 V o'zgaras tokni yana bir kuchlanish to'g'rilagichi yordamida 5 V li pasaytirilgan o'zgaras tok bilan ta'minlab turadi.

Voltmetr qismi ushbu uch fazali kuchlanishni o'lchash qismi bo'lib, past kuchlanishli elektr tarmog'idagi uchta har bir fazadagi kuchlanishni o'lchaydi. Boshqacha qilib aytganda, tarmoqdagi o'zgaruvchan tokli faza kuchlanishi mikrokontroller yordamida o'lchanadi.

220 V o'zgaruvchan tokning kuchlanishini o'lchash uchun uni pasaytirish kerak. Chunki mikrokontrollerlar 5 V dan yuqori kuchlanishni o'lchay olmaydi. Agar mikrokontrollerning

analog kirishiga 5V dan yuqori kuchlanish berilsa mikrokontroller shikastlanadi. Mikrokontroller himoyasini ta'minlash uchun 220 voltli o'zgaruvchan tokning eng yuqori kuchlanish qiymatini proporsional holatda 5 V dan kam bo'lgan kuchlanish pog'onasiga tushirish kerak. Masalan, 220V o'zgaruvchan tokli tarmoqning eng yuqori kuchlanish qiymati 311 voltga teng. Xuddi shunday, pasaytirilgan o'zgaruvchan tokning eng yuqori kuchlanish qiymati 5 volt dan oshmasligi kerak.

220 V o'zgaruvchan kuchlanishni past o'zgaruvchan kuchlanishga tushirishning ikkita usuli mavjud (transformator va kuchlanish bo'lgichi orqali), ularning maksimal qiymati 5 volt dan oshmasligi kerak.

220 V kuchlanishni pasaytirish uchun transformator dan ham foydalanish mumkin. Lekin kuchlanish bo'lgichi orqali kuchlanishni pasaytirish arzonroq. Kuchlanish bo'lgichi orqali kuchlanishni pasaytirish uchun bir nechta rezistor yetarlidir. Kuchlanish bo'lgichi usuli yordamida kuchlanishni pasaytirish 400 volt dan past o'zgaruvchan tokli tarmoqlarda transformatorga qaraganda ancha tejamkor hisoblanadi.

Kuchlanish bo'lgichidan kuchlanishni ikkita kuchlanish darajasiga o'zgartirish uchun ishlatiladi. O'zgargan kuchlanish holatida bizda ikkita kuchlanish darajasi mavjud, biri neytralga nisbatan musbat, ikkinchisi neytralga nisbatan manfiy.

Yuqoridagi kuchlanish bo'lgichi shunday o'rnatilganki, u 311 V kirganda chiqish kuchlanishi 5 V bo'lishi kerak, chunki mikrokontrollerga beriladigan kirish kuchlanishi 5V dan kam yoki unga teng bo'lishi kerak.

Kuchlanish bo'lgichidagi chiqish kuchlanishini hisoblash formulasai quyidagicha [12]:

$$U_{chiqish} = U_{kirish} \times \frac{R_2}{R_1 + R_2};$$

bu yerda U_{kirish} kirishdagi kuchlanish, R_1 va R_2 kuchlanish bo'lgichi rezistorlarining qarshiliklari.

$U_{kirish} \leq 5$ V bo'lishi kerak. Shunday qilib, R_2 rezistorini 10 kOm deb qabul qilib R_1 rezistorning qarshiligini aniqlaymiz.

$$R_1 = \frac{U_{kirish} \times R_2}{U_{chiqish}} - R_2 = \frac{311 \times 10}{5} = 622 \text{ kOm};$$

Agar biz kuchlanish bo'lgichida 10 kOm va 622 kOm lik rezistorlardan foydalansak chiqishdagi kuchlanish 5 V dan oshmaydi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash qismi – dasturlashtirilgan mantiqiy ketma-ketlikni o'z ichiga olgan 8 bitli 16 MHzli ATMEGA16 MCU mikrokontroller blokidan iborat. Mikrokontroller dasturlashtirilgan mantiq asosida ma'lumotlarni qabul qiladi va qayta ishlaydi. Mikrokontroller mantiqiy ketma-ketliklarni to'g'ri bajarish uchun dasturiy ta'minoti C dasturlash tilida yozilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan elektron hisoblash mashinalari uchun "Smart faza tanlagich qurilmasi mikrokontrollerining ishlash rejimini boshqarish" dasturiga № DGU 25319 raqamli guvohnoma olingan.

LCD displey qismi – tarmoqdagi fazalar kuchlanishini va iste'molchi qaysi fazadan iste'mol qilayotkanini ko'rsatadi. Suyuq kristalli displey (LCD) 16x2 moduldan iborat bo'lib, u qurilmaning, bir, ikki, uch fazali rejimda ishlanayotganda fazalardagi kuchlanishni va iste'molchi qaysi fazada ekanligini ko'rsatish uchun mikrokontroller bilan bog'langan.

Ma'lumotlarni sozlash qismi – qurilmaning ish rejimini tanlash uchun chegaraviy parametrlarni sozlash imkonini beradi. Smart faza tanlagich qurilmasi dastlab tarmoqqa ulangan vaqtda optimal fazani tanlab iste'molchini shu fazaga ulaydi. Qurilmada beshta tugmacha mavjud bo'lib, enter tugmasini bosish orqali menyu qismga o'tiladi. Enter, chap, o'ng, yuqoriga va pastga tugmalari orqali qurilmaning ishchi rejimida quyidagilarni sozlash mumkin:

- maksimal kuchlanish chegarasi (V);
- minimal kuchlanish chegarasi (V);
- kutish vaqti (minut);
- kuchlanish farqi (V);
- fazalar soni;
- amaldagi ishchi fazadan maqbul fazaga o'tish vaqti (milli sekund);

Kommutatsiya qismida har bir faza bo'yicha ulab uzishni amalga oshirish uchun 12 V kuchlanishli o'zgarmas tokli relelardan foydalanilgan (3.5-rasm). Relelar to'g'ri ishlashi uchun har bir fazaga qo'yilgan S8050 tranzistorlardan signal oladi. O'z navbatida tranzistorlarga signal mikrokontrollerdan keladi. Bundan tashqari aktiv elementlar sifatida rezistorlardan, passiv elementlar sifatida diodlardan foydalanilgan. Mikrokontrollerdan chiquvchi signal tegishli tranzistorni yoqadi, bu esa o'z navbatida oraliq releining mos kontaktlarini ulaydi. Shu tariqa iste'molchini maqbul fazadan elektr energiyasi olishini ta'minlaydi.

Muhokama. Smart faza tanlagich qurilmasining ishchi rejimini ta'minlash uchun qurilma tarmoqqa 220/17,5 V kuchlanishli transformator orqali ulangan. Qurilma ta'minot tarmog'ining har bir fazasidagi kuchlanishni aniq o'lchashi uchun har bir fazasiga kuchlanish bo'lgichi ulangan. Kuchlanish bo'lgichi o'zgaruvchan tokli 220V kuchlanishni 6V kuchlanishgacha pasaytiradi. 5V o'zgaruvchan tokni 5V o'zgarmas tokka aylantirish uchun bitta dioddan foydalanilgan. Ushbu 5V o'zgarmas tokni filtrlash uchun bitta kondensatordan foydalanilgan. Mikrokontroller ushbu signallar orqali fazadagi kuchlanish qiymatini aniqlaydi. Mikrokontroller blokidagi dasturlashtirilgan mantiqiy dasturiy ta'minot orqali ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlashni amalga oshiradi, yuklamani eng maqbul fazaga o'tkazish uchun signalni uzatadi. Qayta ishlangan signal belgilangan vaqt davomida kutib zarur bo'lsa tegishli tranzistor kanaliga yuboriladi, u bilan bog'langan rele kontakti yuklamani

ulaydi, amaldagi ta'minot fazasida uzilish kuzatilganda yuklama darhol boshqa maqbul fazaga o'tkaziladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, Smart faza tanlagich qurilmasi kuchlanish nosimmetriyasini pasaytirish va past kuchlanishli elektr tarmoqlarining ish rejimini yaxshilashda samarali qurilmadir. Qurilmadan foydalanish tarmoqdagi elektr energiyasi sifatini oshirishga, qo'shimcha energiya yo'qotishlarini kamaytirishga va elektr qurilmalarning ishonchliligini oshirishga olib keladi.

Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar davomida ko'proq izlanib, kelajakda yanada samarali va ishonchli elektr energiyasini taqsimlash tizimlarini ishlab chiqishga o'z xissamizni qo'shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Железко, Ю.С. Определение симметричных составляющих по результатам измерения фазных и междуфазных напряжений/Ю.С. Железко // Электричество. – 2009. – №7. – С. 12-20.

2. Allaev K.R, Adeel Saleem, Kholiddinov I.K., Atif Iqbal, Eraliev K.A. Evaluation of additional electricity losses in electric networks using a meter. Indonesian Journal of Electrical Engineering and Computer Science Vol. 31, No. 2, August 2023, pp. 617-625 ISSN: 2502-4752,

<http://doi.org/10.11591/ijeecs.v31.i2.pp617-625>

3. Косоухов, Ф.Д. Снижение потерь от несимметрии токов и повышение качества электрической энергии в сетях 0,38 кВ с коммунально-бытовыми нагрузками / Ф.Д. Косоухов, Н.В. Васильев, А.О. Филиппов // Электротехника. – 2014. – №6. – С. 8-12.

4. Наумов, И.В. Качество электрической энергии и снижение дополнительных потерь мощности в электрических сетях/И.В. Наумов, С.В. Подъячих, Д.А. Иванов // Вестник ИрГСХА. – 2009. – №37. – С. 83-88.

5. Дед, А.В. Расчетная оценка дополнительных потерь мощности в элементах электрических сетей / А.В. Дед, С.В. Бирюков, А.В. Паршукова // Современные наукоемкие технологии. – 2014. – №. 10. – С. 21-25.

6. Mezera, D. Voltage quality in the low voltage distribution grids with the high penetration of distributed energy sources / D. Mezera // Electric Power Engineering (EPE), 6th International Scientific Conference on. – IEEE, 2015. – С. 292-295.

7. Xoliddinov I.X. Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish. O'quv qo'llanma. Farg'ona 2020 yil. 120-136 betlar.

8. Дед, А.В. Некоторые вопросы сертификации электрической энергии по показателям качества / А.В. Дед, С.П. Сикорский, П.С. Смирнов // Омский научный вестник. – 2017. – № 5 (155). – С. 89-92.

9. <https://ekfgroup.com/catalog/products/rele-vybora-faz-s-displeem-rvf-3-63a-ekf-proxima>

10. <https://digitop.ua/ru/catalog/pereklyuchateli-faz/ps63a/>

11. <https://tde-fif.ru/catalog/pf-451-1>

12. <https://voltiq.ru/services/voltage-divider-online-calculator/>

Yakubjonov Iqboljon Ilhomjon o'g'li
Elektr ta'minoti mutaxassisligi magistranti
Andijon mashinasozlik instituti
+998905415162
Iqboljonyoqubjonov4@gmail.com

**ELEKTR STANSIYALAR VA PODSTANSIYALARNI MODELLASHTIRISH
ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH SOHASIDA AMALDA QO'LLANILAYOTGAN
ZAMONAVIY DASTURLAR**

**СОВРЕМЕННЫЕ ПРОГРАММЫ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ НА ПРАКТИКЕ В
ОБЛАСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ
ЭЛЕКТРОСТАНЦИЙ И ПОДСТАНЦИЙ**

**MODERN PROGRAMS USED IN PRACTICE IN THE FIELD OF DESIGN BASED
ON SIMULATION OF POWER PLANTS AND SUBSTATIONS**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Elektr stansiyalar va podstansiyalarni loyihalashtirish uchun hozirda qo'llanilayotgan zamonaviy dasturlar ko'rib chiqilgan va solishtirilgan, zamonaviy dasturlar orqali loyihalalanayotgan elektr stansiyalar har tomonlama qulayligi va ishonchligi isbotlangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются и сравниваются современные программы проектирования электростанций и подстанций, доказываются удобство и надежность проектирования электростанций с использованием современных программ.

Annotation

This article discusses and compares modern programs for the design of power plants and substations, proves the convenience and reliability of designing power plants using modern programs.

Kalit so'zlar: *Elektr stansiya, modellashtirish, dastur, dasturiy ta'minot, signal, diagramma, kuchlanish, kondensator.*

Ключевые слова: *Электростанция, моделирование, программа, программное обеспечение, сигнал, диаграмма, напряжение, конденсатор.*

Key words: *Power plant, modeling, program, software, signal, diagram, voltage, capacitor.*

“Electrical Transient Analyzer Programme” (ETAP) elektr tarmog'ini modellashtirish va simulyatsiya qilish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot vositasi bo'lib, energiya tizimlari muhandislari tomonidan "elektr raqamli egizak" yaratish va elektr quvvat tizimi dinamikasi, o'tish jarayonlari va himoyasini tahlil qilish uchun foydalaniladi. Doktor Farrox Shokooh ETAP asoschisi va hozirgi bosh direktori. Doktor Shokuh Fluor korporatsiyasida ishlaganida, u elektrotexnika dasturlarini tanlash bilan shug'ullangan. Keng qamrovli, samarali va aqlli

energiya tizimini tahlil qilish dasturiy ta'minotining etishmasligini anglab, elektr o'tkinchi tahlilchi dasturi (ETAP) paydo bo'ldi. Doktor Shokooch ETAPni ishlab chiqish uchun Fluor korporatsiyasini tark etdi va 1986 yilda Operation Technology Institut (OTI) ga asos soldi. OTI va ETAP ISO 9001 sertifikatiga ega elektr energiya tizimini loyihalash va avtomatlashtirish bo'yicha dasturiy ta'minot kompaniyasi bo'lib, shtab-kvartirasi Kaliforniyaning Irvine shahrida joylashgan va xalqaro ofislari Hindistonda, BAA, KSA, Braziliya, Meksika, Fransiya, Buyuk Britaniya, Malayziya va Xitoy[1]. Schneider Electric 2020-yil 16-noyabrda ETAP aksiyalarining nazorat paketini aqlli va yashil elektrlashtirishga rahbarlik qilish uchun oldi. ETAP MS-DOS operatsion tizimida foydalanish uchun ishlab chiqilgan va tijorat va atom energetikasi tizimini tahlil qilish va tizim operatsiyalari uchun mo'ljallangan. Energiya tizimini simulyatsiya qilish uchun tizim ulanishi, topologiyasi, elektr qurilmasi xususiyatlari, tizimning tarixiy javobi va real vaqt rejimidagi operatsiyalar ma'lumotlarini o'z ichiga olgan energiya tizimi tarmog'i modelidan iborat bo'lgan elektr raqamli egizak kerak bo'ladi. ETAP energetika dasturi elektr muhandislari va operatorlari oflayn yoki onlayn rejimda quyidagi tadqiqotlarni amalga oshirishlari uchun elektr raqamli egizakdan foydalanadi:

- Yuk oqimi yoki quvvat oqimini o'rganish,
- Qisqa tutashuv yoki xato tahlili,
- Himoya vositalarini muvofiqlashtirish, diskriminatsiya yoki selektivlik,
- Vaqtinchalik yoki dinamik barqarorlik,
- Substansiyani loyihalash va tahlil qilish,
- Harmonik yoki quvvat sifati tahlili,
- Ishonchlilik,
- Optimal quvvat oqimi,
- Quvvat tizimi stabilizatorini sozlash,
- Kondensatorni optimal joylashtirish,
- Dvigatelni ishga tushirish va tezlashtirish tahlili,
- Kuchlanish barqarorligi tahlili,
- Ark chaqnash xavfini baholash,
- Tuproq halqasining empedansini hisoblash,
- Batareyani modellashtirish va simulyatsiya qilish,
- DC yoyi chaqnash xavfini baholash.

ETAP bizga to'g'ridan-to'g'ri grafik bir chiziqli diagrammalar, er osti kabel yo'laklari tizimlari, uch o'lchovli kabel tizimlari, ilg'or vaqt oqimini muvofiqlashtirish va selektivlik uchastkalari, geografik ma'lumotlar tizimining sxemalari (GIS), shuningdek, uch o'lchovli yer panjara tizimlari bilan ishlashga imkon beradi [2].

Dastur uchta asosiy tushunchaga muvofiq ishlab chiqilgan: Virtual haqiqat operatsiyasi. Dasturning ishlashi imkon qadar yaqindan haqiqiy elektr tizimining ishlashiga o'xshaydi. Misol uchun, siz elektron to'xtatuvchini ochganingizda yoki yopganingizda, elementni xizmatdan tashqariga qo'yganingizda yoki dvigatellarning ish holatini o'zgartirganingizda, quvvatsizlangan elementlar va quyi tizimlar bir chiziqli diagrammada kulrang rangda

- участники семинар-тренинга высказали свои некоторые предложения по поводу улучшению проходимости машины при транспортировке (которые учитывались при доводки машины в соответствии с пожеланиями фермеров), и проведение приемочных государственных испытаний в ЦИТТ.

В 2020 году подали заявку на полезную модель в ИМА Уз (АИС РУз), где она зарегистрирована под номером ФАП 20200073. В результате 30 ноября 2021 года была принята решения агентства о выдачи патента на полезную модель под номером 01720 [4].

Машина с учетом предложений была доработана и изготовлена в АО «Технолог» в количестве 1 шт. и была представлена ЦИТТ, для проведения Государственных приемочных испытаний. Государственные испытания проводились на полях Государственного центра сертификации и испытаний сельскохозяйственной техники и технологии с 9 июня по 16 октября 2021 года (см. рис. 4-5)[6].



Рис. 4. Кадры государственных полевых испытаний машины в полигоне ЦИТТв 2021 г.



Рис. 5. Кадры транспортировки машины во внедорожных условиях (кадры из государственных испытаний на полях ЦИТТв 2021г.)

При агрегатировании с трактором Т7060 с номинальной мощностью двигателя 235 л.с., технологический процесс выполнялся удовлетворительно. Агрегат работал с рабочей скоростью 8 км/час.

В отчете по результатам испытания ЦИТТ №1-2021 государственного испытания опытного образца машины для предпосевной комбинированной обработки почвы, получены следующие результаты:

- *трудоемкость перевода молы-бороны с транспортного в рабочее положение составляет 2,66 чел.-час, а обратно в транспортное положение - 1,66 чел.-час.*

- *следует отметить что, одна борона весит 50 кг, исходя из нормы массы поднимаемого и перемещаемого груза вручную для мужчин при чередовании с другой работой (до двух раз в час) допускается до 30 кг, то для поднятия двух борон в массе 100 кг, необходимо как минимум 4 человека.*

- *подъем борон вручную с острыми зубьями не безопасно.*

Заключение. В целом конструкция молы-бороны выполнена не отвечающая требованиям эргономики и условия труда человека. Необходимо предусмотреть подъем и опускание зубовых борон и опорных колес механизировано, а не вручную.

Общая наработка молы-бороны составляет 50 га. Предварительные испытания молы-бороны продолжаются.

Окончательные результаты испытаний будут представлены в следующих отчетах.

ЦИТТ считает:

- заводу-изготовителю разработать и внедрить мероприятия по устранению отмеченных недостатков универсальной молы-бороны 8;

- после выявления эффективности реализованных мероприятий универсальная мола-борона 8 может быть использована в сельском хозяйстве по отдельным заявкам хозяйств.

отказ рабочих органов и деталей в процессе испытаний, процессов разрушения сварных соединений и поломок не наблюдалось, выявлены преимущества по

сравнению с базовой машиной [6].

По итогам Государственных испытаний для внедрения инновационного проекта заключен договор под № 64 от 10 июня 2021г. с АО «Узагролизинг» на изготовление и поставку партии машины в количестве 100 штук на общую сумму 3,5 млрд сумов с АО «Технолог» (договор под № 64 от 10 июня 2021г). На данное время большая часть договора выполнена и эксплуатируются на полях фермерских хозяйств РУз.

Литература

1. Указа Президента №4947 от 7 февраля 2017 года «Стратегии действия на 2017-2021 гг. по ускоренному развитию Республики Узбекистан по пяти приоритетным направлениям».

2. Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3682 от 27 апреля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов».

3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 31.07.2019г. № ПП-4410 «О мерах по ускоренному развитию сельскохозяйственного машиностроения, государственной поддержке обеспечения аграрного сектора сельскохозяйственной техникой».

4. «Расмий ахборотнома» (ИМА Уз) от 30.11.21г., Патент РУз на полезную модель № 01720.

5. <https://agro-olam.uz/erni-yekis'hga-tayyorlas'h-buyicha-tavsiyalar/>

6. Отчет №1-2021 по результатам предварительных испытаний опытного образца универсальной молы-бороны 8 на предпосевной подготовке почвы после уборки зерновых культур. ЦИТТ. Гулбахор 2021 г. 10с.

TRANSPORT

Raximov Rustam Vyacheslavovich – t.f.d, professor,
“Vagonlar va vagon xo‘jaligi” kafedrasini mudiri,
“Temir yo‘l transporti muhandisligi” fakulteti,
Toshkent davlat transport universiteti.
e-mail: rakhimovrv@yandex.ru

Baltayev Meirxan Batir o‘g‘li – doktorant,
“Vagonlar va vagon xo‘jaligi” kafedrasini mudiri,
“Temir yo‘l transporti muhandisligi” fakulteti,
Toshkent davlat transport universiteti.
e-mail: meyrxan17@gmail.com

Zafarov Diyor Shuxratkon o‘g‘li – doktorant,
“Vagonlar va vagon xo‘jaligi” kafedrasini mudiri,
“Temir yo‘l transporti muhandisligi” fakulteti,
Toshkent davlat transport universiteti.
e-mail: textmeback117@gmail.com

Hikmatov Zafar Zayniddin o‘g‘li – magistrant
“Vagonlar va vagon xo‘jaligi” kafedrasini mudiri,
“Temir yo‘l transporti muhandisligi” fakulteti,
Toshkent davlat transport universiteti.
e-mail: zafarhikmatov385@gmail.com

**METROPOLITEN VAGONINING VERTIKAL VA GORIZONTAL DINAMIKASI
KO‘RSATKICHLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ
ВЕРТИКАЛЬНОЙ И ГОРИЗОНТАЛЬНОЙ ДИНАМИКИ ВАГОНА
МЕТРОПОЛИТЕНА**

**IMPROVEMENT OF THE METHOD OF DETERMINING THE INDICATORS OF
VERTICAL AND HORIZONTAL DYNAMICS OF THE SUBWAY CAR**

Annotatsiya

Ushbu maqolada metropoliten vagonining harakat-dinamik sinovlari paytida vertikal va gorizontal dinamikasi koeffitsientlarini o‘lchash muammolari ko‘rib chiqilgan. Chekli elementlar usuli yordamida metropoliten vagoni aravachasining ramasini yuklanganligi bo‘yicha nazariy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Aravacha ramasiga vertikal, bo‘ylama va yon kuchlar ta‘sirida kelib chiquvchi kuchlanishlarning taqsimoti epyuralari va murakkab hisob-kitoblar natijalarining tahlili asosida metropoliten vagoni aravachasining ramasiga ta‘sir etuvchi vertikal va yon kuchlarni o‘lchash uchun tenzorezistorlarni aravacha elementlariga o‘rnatish joylarini aniqlashga imkoniyat berdi. Tenzorezistorlarni to‘rt simli ulanish sxemasi

bilan ikkita to'liq mostga ulash metropoliten vagoni aravachasining ramasiga ta'sir qiluvchi vertikal va yon kuchlarni bir vaqtni o'zida o'lchashni ta'minlaydi.

Аннотация

В работе рассмотрены проблемы измерения коэффициентов вертикальной и горизонтальной динамики вагона метрополитена при проведении ходовых динамических испытаний. Проведены теоретические исследования нагруженности рамы тележки вагона метрополитена методом конечных элементов. Анализ результатов комплексных расчетов и эпюр распределения напряжений на раме тележки при действии на нее вертикальных, продольных и боковых сил позволил определить места установки тензорезисторов на элементах тележки и способа обработки сигналов для измерения вертикальных и боковых сил, действующих на раму тележки вагона метрополитена. Новая измерительная схема при подключении тензорезисторов в два полных моста с четырехпроводной схемой соединения обеспечит одновременное измерение вертикальных и боковых сил, действующих на раму тележки вагона метрополитена.

Abstract

The paper considers the problems of measuring the coefficients of vertical and horizontal dynamics of a subway car during running dynamic tests. Theoretical researches of the stress loading of the bogie frame of the subway car by the finite element method have been carried out. The analysis of the results of complex calculations and epures of the stress distribution on the bogie frame under the action of vertical, longitudinal and lateral forces on it made it possible to determine the installation locations of strain gauges on the bogie elements and the signal processing method for measuring vertical and lateral forces acting on the bogie frame of the subway car. The new measuring scheme, when connecting strain gauges to two full bridges with a four-wire connection scheme, will provide simultaneous measurement of vertical and lateral forces acting on the bogie frame of a subway car.

Kalit so'zlar: *harakat-dinamik sinovlar, aravacha ramasi, vertikal va yon kuchlar, tenzorezistorlarni o'rnatish joylari, tenzorezistorlarni ulash sxemasi, vagonning dinamik xususiyatlari.*

Ключевые слова: *Ходовые динамические испытания, рама тележки, вертикальная и боковая силы, места установки тензорезисторов, схема соединения тензорезисторов, динамические качества вагона.*

Keywords: *Running dynamic tests, bogie frame, vertical and lateral forces, installation locations of strain gauges, connection scheme of strain gauges, dynamic qualities of the wagon.*

Kirish. Bugungi kunda metropoliten Toshkent shahrida yo'lovchi tashish majmuasining ajralmas qismi bo'lib, muhim iqtisodiy, ijtimoiy va strategik vazifalarni bajaradi, bu esa metropoliten xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash zarurligini taqozo etadi [1].

Metropoliten harakatlanuvchi tarkibining ishonchliligiga talablarning ortishi yo'lining sust rivojlanishi sharoitida poezdlarning tonnellar va estakadalarda qisqa vaqt oralig'ida

harakatlanishi bilan bog'liq. Shu bois, metropoliten harakatlanuvchi tarkibining eng muhim xususiyati, birinchi navbatda, ishonchlilik va to'xtashsiz ishlash. Shu bilan birga, harakatlanuvchi tarkibning harakatlanish paytida xavfsizlik masalalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan vagonlarning dinamik ko'rsatkichlari ham yo'lovchilar qulayligini ta'minlashda muhim parametrlar hisoblanadi [2-5].

Harakatlanuvchi tarkibning dinamik sifatlarini baholashda harakatlanuvchi tarkib va yo'lining o'zaro ta'sirida kelib chiquvchi dinamik jarayonlarni o'lchash natijalari bo'yicha hisoblangan vagonning vertikal va gorizontol dinamikasi koeffitsientlarini aniq o'lchash muhim ahamiyatga ega [6-8].

Metropoliten vagonining vertikal va gorizontol dinamikasi ko'rsatkichlarini aniqlashning mavjud usullarini tahlili. Amaldagi GOST 34451-18 [9] normativ hujjatida vertikal va yon kuchlarni o'lchash yordamida motorvagon harakatlanuvchi tarkibning (masalan, metropoliten vagonining) vertikal va gorizontol dinamikasi koeffitsientlarini aniqlash uchun tenzorezistorlarni vagon aravachasi elementlariga o'rnatish uchun aniq joylar va ulash sxemalari ko'rsatilmagan, ammo ularni o'rnatishga qo'yiladigan talablar keltirib o'tilgan.

Tenzorezistorlarni o'rnatish uchun aniq joylar va ulash sxemalarini aniqlashning yagona yo'li bu nazariy tadqiqotlar va bir qator tajribalar o'tkazish [10-12].

Yo'lovchi vagon va metropoliten vagonlarining aravachalari tuzilishi bir-biriga o'xshash bo'lgani bois va ikkala aravachaning ramalari ikkita bo'ylama va ikkita ko'ndalang balkalardan iborat bo'lgan N-shaklidagi konstruksiyaga ega bo'lgani uchun, GOST 33788-2016 [13] ga muvofiq, metropoliten vagonining vertikal va gorizontol dinamikasi ko'rsatkichlarini aniqlashda keltirib o'tilgan sxemani asos qilib olish mumkin.

Vertikal kuchni o'lchash. GOST 33788-2016 ga muvofiq, yo'lovchi vagon aravachasining reszorlangan qismlarini dinamik qo'shilish koeffitsienti yordamida aniqlanadigan vertikal kuchni o'lchash uchun, ikkita 1 va 2 faol tenzorezistorlar (1-rasm) aravacha ramasining bo'ylama balkasi o'rta qismida A-A va B-B (1-rasm, *b*) kesimlarining yuqori va pastida o'rnatiladi va 1-rasm (*d*) da ko'rsatilgandek (1) formulaga muvofiq yarim most sxemasiga ulanadi.


Bu holatda, vertikal kuchning qiymati *i*-tenzorezistor qayd etayotgan ε_i deformatsiyalar farqi bo'yicha quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P_{ver} = C_{ver} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} (\varepsilon_1 - \varepsilon_2), \quad (1)$$

bu yerda C_{ver} – tenzometrik sxemalarni graduirovkalash paytida aniqlanadigan vertikal kuchni o'lchash uchun doimiy masshtab koeffitsienti; E – egiluvchanlik moduli; μ – Puasson koeffitsienti; ε_i – aravacha ramasining yon bo'ylama balkasida o'rnatilgan *i*-tenzorezistor qayd etayotgan σ_i normal kuchlanishlar natijasida kelib chiqadigan deformatsiyalar.

Tenzorezistorlarni simmetrik o'rnatishning imkoniyati bo'lmaganligi sababli ushbu ko'rsatilgan o'lchov sxemasini metropoliten vagoni uchun ko'llash mushkul. Buning sababi ko'ndalang va bo'ylama balkalarning ulangan joylarini berkituvchi 6 mm qalinlikdagi shtamplangan mustahkamlovchi kosinkalar mavjudligida. Ushbu kosinkalar ramaning butun konturi bo'ylab va, qo'shimcha ravishda, yon bo'ylama balkalar ustida ramaning mustahkamligini oshirish maqsadida payvandlangan. Bundan tashqari, bo'ylama balkalarning

pastidagi oʻrta qismiga gidravlik tebranish soʻndirgichlarni oʻrnatish uchun kronshteynlar payvandlangan.



1-rasm – Yoʻlovchi vagonining vertikal dinamikasi koeffitsientini oʻlchash uchun tenzorezistorlarni oʻrnatish va ulash sxemasi.

a – oʻlchov kesimlari keltirilgan aravacha ramasining umumiy koʻrinishi; b – GOST 33788-2016 ga muvofiq tenzorezistorlarni oʻrnatish sxemasi; v – sinov markazlari tomonidan qoʻllaniladigan tenzorezistorlarni oʻrnatish sxemasi; 1-2 – tenzorezistorlar nomeri; K – kompensatsion tenzorezistor; U – oʻlchov mostining kuchlanishi; ΔU – oʻlchov mostining chiquvchi kuchlanishini oʻzgarishi

Shuningdek, yoʻlovchi vagonining vertikal dinamikasi koeffitsientini aniqlash uchun sinov markazlari tomonidan qoʻllaniladigan sxema mavjud boʻlib, unda ramaning boʻylama balkasi oʻrta qismida ikkita faol 1 va 2 tenzorezistorlar (1-rasm, v) oʻrnatilgan. 1-rasm (d) da koʻrsatilgan ushbu sxemada aravacha ramasiga taʼsir qiluvchi vertikal kuchlarni aniqlash chiqish signallarining koʻrsatkichlarini yigʻindisi va quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:


$$P_{ver} = C_{ver} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} (\varepsilon_1 + \varepsilon_2). \quad (2)$$

Payvand choklarini mustahkamlash maqsadida aravacha ramasidagi boʻylama balkasining oʻrta qismida shtamplangan kosinkalar mavjudligi sababli sinov markazlari tomonidan ishlatiladigan oʻlchov sxemasini qoʻllash ham mushkul.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ramaning boʻylama yon balkasiga nisbatan oʻlchov sxemalari markazi boʻylama va koʻndalang yoʻnalishlarda siljishi, shuningdek,

tenzorezistorlarning nosimmetrik joylashuvi o‘lchashlarda xatoliklarni oshib kelishiga olib keladi.

Yon kuchlarni o‘lchash. GOST 33788-2016 ga muvofiq, g‘ildirak juftligining buksa uzeli tomonidan aravacha ramasiga ta’sir qiluvchi yon (rama) kuchlarni o‘lchash sxemasi o‘z ichiga quyidagini oladi: aravacha ramasining yon bo‘ylama balkasiga A-A, Б-Б, В-В va Г-Г (2-rasm, a) kesimlarida o‘rnatiladigan to‘rtta 1-4 tenzorezistorlar (2-rasm). Bu holatda, 1 va 2 tenzorezistorlar aravachadagi yon bo‘ylama ramasining yuqori qismida joylashgan, 3 va 4 tenzorezistorlar esa past qismida (2-rasm, b)



2-rasm – Yo‘lovchi vagon aravachasi ramasida yon (rama) kuchlarini o‘lchash uchun tenzorezistorlarni o‘rnatish va ulash sxemasi.

a – o‘lchov kesimlari keltirilgan aravacha ramasining umumiy ko‘rinishi; б – GOST 33788-2016 ga muvofiq tenzorezistorlarni o‘rnatish sxemasi; в – GOST 33788-2016 ga muvofiq tenzorezistorlarni ulash sxemasi; 1-4 – tenzorezistorlar nomeri

Bunda yon (rama) kuchlarni o‘lchash uchun 1-4 tenzorezistorlar 2-rasm (в) ga muvofiq yagona o‘lchov mostiga ulanadi va yon kuchlarni qiymatlari quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P_{yon} = C_{yon} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} (\varepsilon_1 - \varepsilon_2 + \varepsilon_3 - \varepsilon_4), \quad (3)$$


bu yerda C_{yon} – tenzometrik sxemalarni graduirovkalash paytida aniqlanadigan yon (rama) kuchni o‘lchash uchun doimiy masshtab koeffisienti.

Ramaning konstruktiv tuzilmasi uning yon bo‘ylama balkasiga tenzorezistorlarni GOST 33788-2016 ga muvofiq o‘rnatishga imkon beradi, shu sababli, ushbu sxemani metropoliten vagonining gorizontal dinamikasi ko‘rsatkichini aniqlash uchun qo‘llash mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, metropoliten vagoni ressor osmasidagi birinchi pog‘onasining vertikal dinamikasi ko‘rsatkichini aniqlash uchun aravacha elementlariga tenzorezistorlarni o‘rnatish uchun, GOST 34451-2018 talablariga muvofiq aravachaga ta‘sir etuvchi gorizontal kuchlarni maksimal darajada istisno qilishga imkon beruvchi joylarni va olingan signallarni qayta ishlash usulini topish masalasi qo‘yilgan edi.

Metropoliten vagonining aravachasi ramasiga ta‘sir qiluvchi vertikal va yon kuchlarni o‘lchash usulini takomillashtirish. Tadqiqotning maqsadi aravacha elementlariga tenzorezistorlarni o‘rnatish joylarini va signallarni qayta ishlash usulini tanlash, ya‘ni, metropoliten vagonining vertikal va gorizontal dinamikasini aniqlash uchun o‘lchov sxemasini ishlab chiqish etib belgilangan.

Izlanishning birinchi bosqichida 81-717/714 rusumidagi metropoliten vagoni aravachasi ramasining hisobiy modeli ishlab chiqildi (3-rasm). Ushbu model N-shaklli yaxlit payvandlangan konstruksiyaga ega bo‘lib, ikkita bo‘ylama va ikkita ko‘ndalang balkalardan tashkil topgan. Balkalar tutashgan joylari mustahkamlovchi qoplama bilan berkitilgan.




3-rasm. Metropoliten vagoni aravachasi ramasining hisobiy modeli.

1 – bo‘ylama balka; 2 – buksa tasmagini mahkamlash uchun kronshteynli tumba; 3 – mustahkamlovchi kosinka; 4 – ko‘ndalang balka; 5 – tormoz silindrini mahkamlash uchun kronshteyn; 6 – markaziy osmaning saqlagich skobasi kronshteyni; 7 – buksaning saqlovchi shtiri vtulkasi

Chekli elementlar usuli bo'yicha hisob-kitoblar bajarish uchun ANSYS Workbench dastur paketidan foydalanilgan.

Keyingi bosqichda metropoliten vagonining aravacha ramasi yuklanganligi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Ko'p variantli hisob-kitoblar natijasida vertikal, bo'ylama va yon kuchlar ta'sirida aravacha ramasi kelib chiquvchi kuchlanishlarning taqsimoti epyurasi olindi.

Hisob-kitoblar natijasi shuni ko'rsatdiki, vagonning vertikal va gorizontaal dinamikasi ko'rsatkichlarini hisoblash uchun vertikal va yon kuchlarni aniqlash eng optimal va istiqbolli yondashuvligi ma'lum bo'ldi. Ushbu hisob-kitoblarda, 4-rasmga binoan, normal kuchlanishlarni aniqlash maqsadida aravacha ramasi yon bo'ylama balkasining ikki tomoniga to'rtta tenzorezistorlar A-A, B-B, V-V va G-G kesimlarida o'rnatildi.




4-rasm. Metropoliten vagoni aravachasining ramasi yon va vertikal kuchlarni o'lchash uchun tenzorezistorlarni o'rnatish sxemasi.

Bu holatda, aravacha ramasi ta'sir etuvchi vertikal kuchni aniqlash uchun, 1-4 tenzorezistorlarni 5-rasm (a) da ko'rsatilgandek to'liq mostga ulash sxemasiga ulangan bo'lishi lozim. Yon kuchni aniqlash uchun – 5-rasm (b) da ko'rsatilgandek.

a

b



5-rasm. Aravacha ramasida vertikal (a) va yon (b) kuchlarni o‘lchash uchun tenzorezistorlarni ulash sxemasi.

Bu vertikal kuchlarni aniqlashda gorizontall kuchlarning aravachaga ta’sirini, yon kuchlarni aniqlashda esa – vertikal va bo‘ylama kuchlarning ta’sirini maksimal darajada istisno qilishga imkon beradi.

ε_{xi} deformatsiyalari orqali ifodalangan vertikal va yon kuchlarning qiymatlari quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$P_{\text{sep}} = C_{\text{sep}} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} (\varepsilon_1 - \varepsilon_2 + \varepsilon_3 - \varepsilon_4),$$

$$P_{\text{eh}} = C_{\text{eh}} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} (\varepsilon_1 + \varepsilon_2 - \varepsilon_3 - \varepsilon_4).$$
(4)

Agar

$$S_1 = \varepsilon_1 - \varepsilon_4,$$

$$S_2 = \varepsilon_2 - \varepsilon_3,$$
(5)


inobatga olsak, (4) formula quyidagicha yozilishi mumkin

$$P_{\text{sep}} = C_{\text{sep}} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} ((\varepsilon_1 - \varepsilon_4) - (\varepsilon_2 - \varepsilon_3)) = C_{\text{sep}} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} (S_1 - S_2),$$

$$P_{\text{eh}} = C_{\text{eh}} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} ((\varepsilon_1 - \varepsilon_4) + (\varepsilon_2 - \varepsilon_3)) = C_{\text{eh}} \cdot \frac{E}{1-\mu^2} (S_1 + S_2).$$
(6)

Shu bois, (6) ifoda orqali vertikal va yon kuchlarni bir vaqtning o‘zida o‘lchash va 6-rasmda keltirilgan tenzorezistorlarni o‘rnatish sxemasidan foydalanish uchun, tenzorezistorlarni to‘rt simli ulanish sxemasi bilan ikkita to‘liq mostga ulash maqsadga muvofiq.

6-rasmda ko‘rsatilganidek, tenzorezistorlarni to‘rt simli ulanish sxemasi bilan ikkita to‘liq mostga ulash va signallarni (6) ifodaga muvofiq qayta ishlash, metropoliten vagoni aravachasining ramasiga ta’sir etuvchi yon va vertikal kuchlarni bir vaqtning o‘zida o‘lchashni ta’minlaydi.



6-rasm. Metropoliten vagoni aravachasining ramasida yon va vertikal kuchlarni o'lchash uchun tenzorezistorlarni ulash sxemasi.

1-4 – tenzorezistorlar nomeri; K – kompensatsion tenzorezistorlar

Xulosa. Ishda bir qator tadqiqotlar o'tkazilib, metropoliten vagonining vertikal va gorizontal dinamikasi ko'rsatkichlarini aniqlash uchun yangi o'lchash sxemasi ishlab chiqildi va nazariy jihatdan asoslandi.

Vagonning vertikal va gorizontal dinamikasi ko'rsatkichlarini hisoblash uchun vertikal va yon kuchlarni o'lchash eng optimal va istiqbolli yondashuvligi aniqlandi. Ushbu jarayon aravacha ramasidagi yon bo'ylama balkasining ikki tomoniga to'rtta tenzorezistorlarni o'rnatgan holda normal kuchlanishlarni (bo'ylama o'q bo'yicha) aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Tenzorezistorlarni to'rt simli ulanish sxemasi bilan ikkita to'liq mostga ulash metropoliten vagoni aravachasining ramasiga ta'sir qiluvchi vertikal va yon kuchlarni bir vaqtini o'zida o'lchashni ta'minlashi aniqlandi. Bu vertikal kuchlarni aniqlashda gorizontal kuchlarning ta'sirini, yon kuchlarni aniqlashda esa – vertikal va bo'ylama kuchlarning aravachaga ta'sirini maksimal darajada istisno qilishga imkon beradi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan sxemani tadqiqotlar orqali tekshirish va nazariy jihatdan olingan natijalar tasdiqlanganda, metropoliten vagonining vertikal va gorizontal dinamikasi koeffisientlarini aniqlashda foydalanish tavsiya etiladi. Ishlab chiqilgan sxema aravacha ramasiga ta'sir qiluvchi vertikal va yon kuchlarning qiymatlarini yuqori darajadagi aniqlik bilan o'lchash va harakat-dinamik sinovlar paytida vagonning dinamik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tenzorezistorlar sonini kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov R.V. Development of a new measuring scheme for determining the indicators of horizontal and vertical dynamics of a subway car / R.V. Rahimov, M. Baltaev, O. Nigmatov, I. Morozova, K. Usmonov, Kh. Otajonov // Proceedings of the International

Conference on Problems of Logistics, Management and Operation in the East-West Transport Corridor. – Baku: Institute of Control Systems of ANAS, 2021. – P. 147–152.

2. Elkins J.A. Testing and Analysis Techniques for Safety Assessment of Rail Vehicles: The State-of-the-Art / J.A. Elkins, A. Carter // *Vehicle System Dynamics*. – 1993. – Vol. 22. – No. 3-4. – P. 185–208. DOI: 10.1080/00423119308969026.

3. Rahimov R.V. Measuring scheme for determination of loads acting on the side frame of the bogie from a wheelset / R.V. Rahimov, A. Nekrasova, L. Ogorodnikova, G. Lisovsky, D.N. Zairova, G. Mustaeva // *E3S Web of Conferences*. – EDP Sciences, 2021. – Vol. 264. – 05035. – P. 1–12. DOI: 10.1051/e3sconf/202126405035.

4. Opala M. Analysis of Experimental Data in the Context of Safety against Derailment of a Railway Vehicle, Using the Energy Method / M. Opala // *Key Engineering Materials*. – 2012. – Vol. 518. – P. 16–23. DOI: 10.4028/www.scientific.net/KEM.518.16.

5. Boronenko Yu.P. Experimental determination of forces through measurements of strains in the side frame of the bogie / Yu.P. Boronenko, R.V. Rahimov // *Transport problems*. – 2021. – Vol. 16 – Iss. 3. – P. 199–211. DOI: 10.21307/tp-2021-053.

6. Boronenko Yu.P. Continuous monitoring of the wheel-rail contact vertical forces by using a variable measurement scale / Yu.P. Boronenko, R.V. Rahimov, Waail M. Lafta, S.V. Dmitriev, A.V. Belyankin, D.A. Sergeev // *Proceedings of the 2020 Joint Rail Conference (JRC2020)*. St. Louis, Missouri, USA. April 20-22, 2020. JRC2020-8067, V001T13A006. ASME. – P. 1–3. DOI: 10.1115/JRC2020-8067.

7. Boronenko Yu.P. Develop a new approach measuring the wheel/rail interaction loads / Yu.P. Boronenko, R.V. Rahimov, Waail M. Lafta // *Proceedings of the 2021 Joint Rail Conference (JRC2021)*. Virtual, Online. April 20–21, 2021. JRC2021-58471, V001T10A004. ASME. – P. 1–8. DOI: 10.1115/JRC2021-58471.

8. Бороненко Ю.П. Анализ методов силового воздействия подвижного состава на путь и систем технического контроля колес при движении поезда / Ю.П. Бороненко, Р.В. Рахимов, Р.Ю. Григорьев, В.В. Попов // *Известия Петербургского университета путей сообщения*. – 2020. – Т. 17. – Вып. 3. – С. 324 – 344. DOI: 10.20295/1815-588X-2020-3-324-344.

9. ГОСТ 34451-2018. Моторвагонный подвижной состав. Методика динамико-прочностных испытаний. – М.: Стандартинформ, 2019. – 26 с.

10. Бороненко Ю.П. Мониторинг технического состояния железнодорожного пути с использованием метода непрерывной регистрации динамических процессов, возникающих при взаимодействии подвижного состава и пути / Ю.П. Бороненко, А.В. Третьяков, Р.В. Рахимов, М.В. Зимакова, А.В. Некрасова, О.А. Третьяков // *Бюллетень результатов научных исследований*. – 2021. – Вып. 3. – С. 66–82. DOI: 10.20295/2223-9987-2021-3-66-82.

11. Boronenko Yu.P. Diagnostics of freight cars using on-track measurements / Yu.P. Boronenko, G.A. Povolotskaia, R.V. Rahimov, Yu.B. Zhitkov // *Advances in Dynamics of Vehicles on Roads and Tracks. Proceedings of the 26th Symposium of the International Association of Vehicle System Dynamics (IAVSD 2019)*. Lecture Notes in Mechanical

Engineering, August 12-16, 2019. – Gothenburg, Sweden: Springer, Cham, 2020. – P. 164–169. DOI: 10.1007/978-3-030-38077-9_20.

12. Бороненко Ю.П. Разработка новых методов измерения вертикальных сил, действующих на боковую раму тележки от колесной пары при движении вагона / Ю.П. Бороненко, Р.В. Рахимов, А.В. Белянкин // Известия Петербургского университета путей сообщения. – 2020. – Т. 17. – Вып. 1. – С. 7–22. DOI: 10.20295/1815-588X-2020-1-7-22.

13. ГОСТ 33788-2016. Вагоны грузовые и пассажирские. Методы испытаний на прочность и динамические качества. – М.: Стандартинформ, 2016. – 41 с.

Ruzmetov Yadgor Ozodovich

Toshkent davlat transport universiteti

“Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi” fakultet dekani, dotsent

yadgor.ruzmetov@yandex.ru

Mamayev Shyerali Ibroximovich

Toshkent davlat transport universiteti

"Materialshunoslik va mashinasozlik" kafedrasini v.b. dotsenti

E-mail: mamayevsherali@gmail.com

Adilov Nodir Botir o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

e-mail: adilovnodir1991@gmail.com

Turg'unaliyev Elbek To'xtanazar o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

+998 99 981 212 23

E-mail: elbekturgunaliyev@gmail.com

Nafasov Jasurbek Himmat o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

**TEMIR YO'L TAROZILARINI TEKSHIRISH UCHUN MO'LJALLANGAN
VAGONLARNI METALL KONSTRUKSIYASINING QOLDIQ RESURSINI
ANIQLASH METODIKASINI ISHLAB CHIQUISH**

**РАЗРАБОТКА МЕТОДОЛОГИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ОСТАТОЧНОГО РЕСУРСА
МЕТАЛЛОКОНСТРУКЦИИ ВАГОНОВ, ПРЕДНАЗНАЧЕННЫХ ДЛЯ
ПРОВЕРКИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫХ ВЕСОВ**

**DEVELOPMENT OF METHODOLOGY FOR DETERMINING THE RESIDUAL
LIFE OF RAILCAR METALWORK DESIGNED TO CHECK THE RAILWAY
SCALES**

Аннотация

Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспортини босқичма-босқич ривожлантиришнинг шартларидан бири юк ва йўловчи ташийдиган вагонлар паркинни

Ўзимизда ишлаб чиқарилган, жаҳон стандартларига жавоб берадиган замонавий вагонлар билан тўлдиришдан, шунингдек мавжуд вагонлардан эксплуатацияда оптимал фойдаланиш мақсадида уларнинг хизмат мuddатини узайтиришдан иборатдир.

Аннотация

Одним из условий поэтапного развития железнодорожного транспорта Республики Узбекистан является пополнение парка грузовых и пассажирских вагонов современными вагонами нашего производства, отвечающими мировым стандартам, а также продление срока их службы в целях оптимально использовать имеющиеся вагоны в эксплуатации.

Abstract

One of the conditions of stage-by-stage development of rail transport in the Republic of Uzbekistan is to replenish the fleet of freight and passenger railcars with modern railcars of our production which meet the world standards and to extend their service life in order to use the existing railcars optimally in operation.

Калим сўзлар: Тарозиларини текшириш учун мўлжалланган вагон, кузов, кузов рамаси, хребет балка, шкворен балка, кўндаланг балка.

Ключевые слова: Вагон, кузов, рама кузова, киянка коньковая, киянка горизонтальная, киянка поперечная, предназначенная для проверки весов.

Keywords: wagon, body, body frame, ridge beater, horizontal beater, transverse beater, designed to check weights.

Kirish

Bugungi kunda jahonda temir yo‘l xarakat tarkibiga kiruvchi vagonlardan foydalanish samaradorligini oshirish, vagonlarning og‘irligini tekshirib turuvchi tarozi tekshirish vagonlarining yangi avlodini yaratish va mavjud tarozi vagonlarining uzul va detallarining ishlash muddatini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi mavjud bo‘lgan 11 ta tarozi tekshirish vagonlaridan ularning texnik holatini tadqiq etish maqsadida, Buxoro MTU, Qo‘qon MTU, Qarshi MTU va Termiz MTU da ishlab turgan beshtasi tanlab olindi. Ko‘rsatilgan vagonlarning kuzovlaridagi yozuvlariga ko‘ra ular qurilgan yili va oyi aniqlandi.

Usullari

Metodikaning birinchi bosqichida tarozi tekshirish vagonlari metall konstruksiyasining texnik holati ko‘zdan kechirib chiqish yo‘li bilan ularning xizmat muddatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan nosozliklari aniqlab olinadi (1-rasm) [1].

Eng ko‘p tarozi tekshirgan beshta vagonning texnik holatini o‘rganib chiqishda ular batafsil ko‘zdan kechirib chiqildi va bu tarozi tekshirish vagoni elementlarining xizmat muddatiga ta’sir qiladigan ularning qator asosiy nosozliklari, ishdan chiqish mezonlari va chegaraviy holatlarini aniqlash imkonini berdi.



1-rasm. Tarozi tekshirish vagon metall konstruksiyasidagi nosozliklar


Metodikaning ikkinchi bosqichida ularni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtirish va mustahkamlik tadqiqotlarini o'tkazishda ularni hisobga olish uchun tarozi tekshirish vagonlari metall konstruksiyasining elementlari bo'yicha yedirilish kattaligi qiymatlarini aniqlab olish va kuzov balkalari bo'yicha yedirilish sxemalarini tuzish kerak (2-5 rasmlar).

Natijalar.


Yedirilishlar h^i qalinliklarini o'lchash natijalari bo'yicha tozalashga « $m=0,2 \text{ mm}$ » dopuskni hisobga olgan o'rtachalashtirilgan qalinlik h_{cp}^i qiymati hisoblab topilib, u quyidagi formulaga binoan aniqlanadi [2-4].

$$h_{cp}^i = \frac{1}{n} \sum_i^n h^i - m,$$


bunda n – o'lchashlar soni.




2-rasm. Xrebet balkasining yedirilish sxemasi



3-rasm. Tarozi tekshirish vagoni ramasining shkvooren balkasidagi listlar yeyilish (yedirilish) qalinliklarini o'lchash sxemasi



4-rasm. Tarozi tekshirish vagoni ramasining uch (orqa) qism balkasidagi listlar yeyilish (yedirilish) qalinliklarini o'lchash sxemasi



5-rasm. Tarozi tekshirish vagoni ramasining ko'ndalang balkasidagi listlar yeyilish (yedirilish) qalinliklarini o'lchash sxemasi

Muhokamalar. Beshta tadqiq etilgan vagonlarga doir yuqorida keltirilgan olingan ma'lumotlardan kelib chiqib, tarozi tekshirish vagoni metall konstruksiyalari elementlari bo'yicha listlarining o'rtacha yedirilish qiymati quyidagi formulaga ko'ra aniqlaymiz:

$$h_{cp} = \frac{1}{n} \sum_i^n h_{cp}^i.$$

Tarozi tekshirish vagonining metall konstruksiyasining hisobini amalga oshirishda devor qalinligi vagon konstruksiyasi mustahkamligining talab qilingan me'yorlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida uning o'rtacha yeyilish (yedirilish) qiymatiga kamayishini hisobga olgan holda qabul qilinadi.

Metodikaning uchinchi bosqichida balkalarning yedirilish kattaligi qiymatlarini hisobga olib dasturiy ta'minot yordamida (Solidworks) hisobiy model yaratiladi va harakat tarkibiga

ekspluatatsiyada tasir etuvchi kuchlar aniqlanib (vagon normasiga muvofiq) Ansys workbench dasturi yordamida qoldiq resurslari aniqlanadi [5-7].

Xulosalar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ekspluatatsiyadagi vagonlar resursidan oqilona foydalanib, vagonlar parkini to'ldirish xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratib, respublika tarozi xo'jaligiga ishlatilayotgan vagon tarozilarini mavjud tarozi tekshirish vositalari yordamida mexanizasiyalashgan tarzda tekshirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Иконников Е.А. Средства измерения массы и весоупроверочные средства, применяемые на железнодорожном транспорте. – М.: Маршрут, 2003. – 40 с.
2. Руководство по уходу и эксплуатации. Весоупроверочный вагон марки 640 ВПВ. – 38 с.
3. Быков Б.В. Конструкция и техническое обслуживание грузовых вагонов. – М.: Желдориздат «Трансинфо», 2006. – 125 с.
4. ГОСТ 7328-2001. Гири. Общие технические условия. – Минск.: ИПК Издательство стандартов, 2012. – 11 с.
5. Большаков В., Бочков А., Лячек Ю. Твердотельное моделирование деталей в САД-системах: AutoCAD, КОМПАС-3D, SolidWorks, Inventor, Creo. – СПб.: Питер, 2015. – 480.: ил.
6. Басов К.А. ANSYS. Справочник пользователя. – М.: ДМК Пресс, 2005. – 640 с.
7. Нормы для расчета и проектирования новых и модернизируемых вагонов железных дорог МПС колеи 1520 мм (несамоходных). – М.: ГосНИИВ-ВНИИЖТ, 1996. – 317 с.

Karimxodjayev Nazirjon

Andijon mashinasozlik instituti

Avtomobilsozlik kafedraasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi

e-mail: Karimxodjaevnazirjon@gmail.com

YO'L VA IQLIM SHAROITLARINING AVTOMOBIL QISMLARINI YEYILISH JARAYONIGA TA'SIRI.

ВЛИЯНИЕ ДОРОЖНО-КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ НА ПРОЦЕСС КОРРОЗИИ ДЕТАЛЕЙ АВТОМОБИЛЯ.

INFLUENCE OF ROAD AND CLIMATE CONDITIONS ON THE PROCESS OF CORROSION OF VEHICLE PARTS.

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo hududi atmosfera havosining harorati va chang miqdori yuqori bo'lgan sharoitida ishlaydigan avtomobil dvigatellari qism va detallarining yeyilishiga turli sabablarning ta'sir darajasini baholash bo'yicha o'tkazilgan ish natijalari keltirilgan. Tahlillar asosida dvigatellarni havo, yonilg'chi va moy bilan birga kiruvchi har hil mexanik (chang) ifloslanish zarrachalaridan himoya qilishning samarali tizimini qo'llash orqali

avtotransport vositalarining chidamliligini oshirish bo'yicha aniq xulosa va takliflar tavsiya qilingan.

Аннотация

В статье представлены результаты оценки влияния различных факторов на коррозию деталей и деталей двигателей автомобилей, работающих в условиях повышенной температуры воздуха и запыленности в Среднеазиатском регионе. На основании анализа были рекомендованы конкретные выводы и предложения по повышению долговечности автотранспортных средств за счет использования эффективной системы защиты двигателей от всех видов механических (пылевых) частиц загрязнений, поступающих вместе с воздухом, топливом и маслом.

Annotation

The article presents the results of the assessment of the impact of various factors on the corrosion of parts and details of car engines operating in conditions of high air temperature and dust content in the Central Asian region. Based on the analysis, specific conclusions and proposals were recommended for increasing the durability of motor vehicles by using an effective system of protection of engines from all kinds of mechanical (dust) pollution particles entering together with air, fuel and oil.

Kalit so'zlar. *Avtomobil, dvigatel, dvigatel moyi, yo'l va iqlim sharoitlari, yeyilish, abraziv, korroziy, mexanik, yo'l changi.*

Ключевые слова. *Автомобиль, двигатель, моторное масло, дорожные и климатические условия, коррозионная, абразивная, агрессивная, механическая, дорожная пыль.*

Keywords. *Car, engine, engine oil, road and climate conditions, corrosion, abrasive, corrosive, mechanical, road dust.*

Avtotransport vositalarining turli xil ish sharoitlarida, ayniqsa, havoda chang miqdori ko'p bo'lgan kar'ernlarda ishlashi ularning qismlari va mexanizmlarining yeilishini oshiradi va avtomobil qismlari yeilishining ortishi bilan tez-tez ishdan chiqishlar va buzilishlar sodir bo'ladi, yoqilg'i va boshqa ekspluatatsion materiallar sarfi ortadi hamda avtomobil transportidan foydalanish samarasi pasayib ketadi.

Rul va tormoz tizimining yeilgan qismlari avtomobil boshqarilishini yomonlashtiradi va uning haydash xavfsizligini pasaytiradi. Agregat va mexanizmlarning yeilishi qismlarning dastlabki o'lchamlari va ularning geometrik shakli o'zgarishiga olib keladi, bu keyinchalik ishqalanish qismlari orasidagi tirqishlarning sezilarli darajada oshishiga, shovqin, taqillash va tebranishlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Agregatlar va mexanizmlardagi eng ko'p nosozliklar va buzilishlar qismlarning tabiiy yeilish jarayoni natijasida yuzaga keladi. Ishqalanib ishlovchi qismlarda tirqishlarning ortishiga ma'lum chegaragacha ruxsat beriladi va uning qiymati turli juftliklar uchun har hil bo'ladi, bu ularning konstruksiyasi va bajarayotgan vazifasiga bog'liq. Mexanizm ruxsat etilgan chegaradan oshib ketgan tirqish (zazor) bilan ishlaganda, qismlarning yeilishi intensiv ravishda oshadi va natijada yonilg'i va ekspluatatsion materiallar sarfi sezilarli

darajada ortib, atmosferani ifloslantiruvchi zaharli gazlarning chiqishi ko'payadi, oqibatda avtomobildan foydalanish samaradorligini pasayadi.

Avtotransport vositalari va ularning dvigatellarini loyihalashda, ular, odatda, asosan mo'tadil iqlim sharoitida ishlashga mo'ljallab loyihalangan bo'ladi ammo bu mashinalar turli xil tabiiy iqlim va yo'l sharoitlarida, ayniqsa ekstremal holatlarda ishlatilib, ularning dvigatellari ishonchliligi va eyilishga qarshilik ko'rsatishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Evropa zonalarining iqlim sharoiti mo'tadil bo'lganligi sababli, biz bunday ish sharoitlarining mashina qismlarining yeyilish jarayoniga ta'siri boshqa ekstremal holatlarga nisbatan minimal deb hisoblaymiz. Mo'tadil iqlim hududlarida transport vositalaridan foydalanishda ularni detallarining eyilishiga asosiy ta'sir texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning texnik omillari ta'sir qiladi.

Ko'p sonli transport vositalari Uzoq Shimolning iqlim sharoitida va Markaziy Osiyoning issiq, quruq, changli hududlarida ishlaydi. Agar qishda Uzoq Shimolda harorat -50°C gacha tushsa, Markaziy Osiyoda issiqlik $+50^{\circ}\text{C}$ va undan yuqori darajaga yetishi mumkin. Keling, ushbu iqlimiy ish sharoitlari avtomobil qismlarining eyilish intensivligi va turiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqaylik.

Dvigatel qismlari eng katta ishqalanish va eyilishga duchor bo'lishi, shuningdek, avtomobilning ehtiyot qismlari uchun barcha xarajatlarning 43% dvigatelga to'g'ri kelishi sababli, katta hajmdagi ishlarni kamaytirish uchun biz iqlim va yo'l sharoitining dvigatelga nisbatan tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Dvigatel detallarining eyilish intensivligiga iqlim sharoitlari ta'sirining tabiati va darajasini ko'rib chiqamiz [2,3,8,9].

Dvigatel qismlarini eyilishining quyidagi asosiy turlari mavjud – ishqalanish, yuzalarining tiralishi va o'yilishi. Dvigatelning normal ish sharoitida eyilish, asosan, silindrlil gilzalarida, porshen halqalarida, va podshipniklarda sodir bo'ladi. Eyilish tabiati quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: mexanik, korrozion va abraziv. Oddiy ish sharoitlarida dvigatelning ishlash muddatini belgilaydigan omillardan biri eyilishidir. Quyidagi jadvalda mo'tadil iqlim zonasi va Uzoq Shimol uchun avtomobil dvigatellari silindrlarini ekspluatatsion eyilishining umumiy komponentlari keltirilgan [4].

1-jadval

Ishlayotgan avtomobil dvigatellari tsilindrlarining umumiy eyilishh komponentlari (foizlarda).

Umumiy yeyilishning tarkibiy qismlari	Mo'tadil iqlim zonasi				Uzoq Shimol
	ЗНЛ-130	ЗМЗ-53	ЯМЗ-236	ЯМЗ-238	ЯМЗ-238*
Umumiy ekspluatatsion **	100	100	100	100	100
Me'yoriy issiqlik rejimdan	15,1-32,1	15,8-30,8	19,8-29,7	19,3-29,0	15,3-22,9
Sovuq iqlim sharoitlardan	5,0-10,7	5,3-10,3	4,2-6,3	4,1-6,1	33,6-50,4
Dvigatelni ishga tushirishlardan	10,9-23,4	2,4-4,7	8,412,7	8,9-13,3	15,9-23,9

Dvigatelga kiruvchi changdan	33,8-68,9	54,3-76,5	51,3-67,7	51,6-67,5	2,8-35,2
------------------------------	-----------	-----------	-----------	-----------	----------

*Rudani tashishda.

** Dvigatelning aylanish va yuklanish bo'yicha beqaror ish rejimlarini ham hisobga olgan holda.

Sovuq mavsumda Uzoq Shimol sharoitida dvigatellarning ishlashi juda og'ir deb hisoblanadi. Atrof-muhitning juda past haroratlari quvvatning pasayishiga va yoqilg'i sarfining oshishiga, silindrlarning siqilib qolishiga va boshqalarga olib kelishi mumkin. Sovutish suvi harorati 80⁰ C dan 60⁰ C gacha tushganda qismlarning yeyilishi 30% ga, 40⁰ C ga tushganda esa 140% ga oshadi [4]. Bunday holda, qismlarning eyilishi korroziv xususiyatga ega va sovitish tizimining suyuqligi haroratining pasayishi bilan ushbu turdagi eyilish qiymati sezilarli darajada oshadi.

Dvigatel silindrlarining past haroratlarda eyilish tezligining o'zgarishi quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi: silindr devorlari va porshen halqalari o'rtasida yarim quruq ishqalanish mavjudligi; metallarning sirt qatlamlarini korroziya tufayli emirilishi.

Past haroratli iqlim sharoitlarining, jumladan, sovuq dvigatelni ishga tushirish, beqaror sharoitlar, ortib borayotgan yuk va tezlik sharoitlari, shuningdek, ish jarayonining qattiqligi dvigatel qismlarining eyilish tezligiga turli hil ta'sir qiladi. Biroq, oddiy ishda silindr-porshen guruhi qismlarining eyilishiga eng ko'p abraziv chang ta'sir qiladi, chang dvigatelga atrof-muhit havosidan turli yo'llar bilan kiradi [2, 3,4].

Yuqori va quruq muhit harorati dvigatelda detonatsiya yonishi paydo bo'lishiga yordam beradi, bu ham silindr, porshen halqalari va porshenning eyilish tezligini oshirishning sabablaridan biridir. Ma'lumki, kuchli portlash bilan ishlaganda dvigatel haddan tashqari qizib ketadi, buning natijasida molekulyar-mexanik eyilish, tutun va siqish halqalari va porshen kanallari emirilishi mumkin.

Sovitish tizimining samarasiz ishlashi tufayli yuqori issiqlik dvigatelning haddan tashqari qizib ketishiga olib keladi, buning natijasida dvigatel quvvati pasayadi va o'ziga xos yonilg'i sarfi ortadi.

Markaziy Osiyoning iqlimi keskin kontinental: yozi uzoq va juda issiq, qishi esa qisqa va sovuq. Kunduzi soyada mutlaq maksimal havo harorati + 45⁰ C, +47⁰ C, ba'zan +50⁰ C va undan ko'proq, kechasi esa +50 ... 10⁰ C gacha tushadi. Tog'li hududlarda kuchli issiqlikdan keyin. (40-47⁰ C), tog' dovonlaridan o'tayotgan avtomobil havo harorati 0-10 C bo'lgan sharoitga tushadi, ya'ni haroratning keskin pasayishi 40-46⁰ C. Tog' balandligida havo zichligi va bosimi mos ravishda 18,5% va 21,5% ga kamayadi (dengiz sathidan 2000 m balandlikda) [8,9].

Natijada, silindrlarni to'ldirish koeffitsienti kamayadi, aralashma boyitiladi, dvigatelning to'liq bo'lmagan yonishi va tutuni paydo bo'ladi, ortiqcha yoqilg'i sarfi va silindr-porshen guruhi qismlarining intensiv eyilishiga olib keladi.


Yo'l va atmosfera changlari qismlarning eyilish tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'rta Osiyo hududining katta qismida havodagi chang miqdori 3,5 g/m³ ga, kuchli shamol va bo'ron paytida esa 17 g/m³ ga yetadi, bu mo'tadil mintaqadagi havodagi chang miqdoridan

10 baravar ko'proqdir. ($0,003 \dots 1,42 \text{ g/m}^3$). Taqdimotning ravshanligi uchun havodagi chang miqdori $0,8-1,2 \text{ g/m}^3$ bo'lganda ko'rish butunlay yo'qoladi, deyish kifoya [3].

Dvigatelga kiradigan chang uning qismlarining abraziv eyilishsina olib keladi. Bu chang tarkibida kvarts borligi bilan izohlanadi, uning tarkibi 50 dan 95% gacha bo'lishi mumkin. Kvarsning qattiqligi ($1000-1200 \text{ kg / mm}^2$) konstruktiv materiallarning qattiqligidan kattaroqdir, shuning uchun u ishqalanadigan dvigatel qismlarining abraziv eyilishsiga olib keladi. Dvigatelni loyihalash va ishlatishda ushbu omilni etarlicha baholamaslik qismlarning eyilish tezligining asossiz oshishiga va uning ishonchliligini keskin pasayishiga olib kelishi mumkin [1,2, 3].

Dvigatelga kiradigan abraziv zarralar uning qismlarining eyilishsina turli yo'llar bilan ta'sir qiladi. Dvigatelga havo va yoqilg'i bilan birga kiruvchi abraziv chang silindrlarning yuqori qismdaeng katta eyilishga olib keladi, ya'ni. yuqori to'htash nuqtasida porshen to'xtash joyida, yuqori siqish halqalari va porshen kanallarining eyilishiga sabab bo'ladi. Dvigatelga moy bilan birga kiradigan abraziv zarralartirsakli val podshipniklarida, o'rta qismdagi silindrlarda, moy sidirish halqalarida, porshen o'qi va vtulkalarda eng katta eyilishga olib keladi (1-rasm).

I, mkm



1- rasm. Turli xil ish sharoitlarida dvigatel tsilindrlarining eyilish (I) jarayoniga abraziv (A) chang zarralarining ta'sir darajasi [4,5]:

1-o'rtacha tabiiy-iqlim sharoitlari; 2-havoning o'rtacha chang miqdori ($0,4 \text{ g/m}^3$); 3-abraziv chang bilan ifloslangan moy;

4-motorga changning havo va moy bilan kirishi; 5-changli havo, moy va yoqilg'i bilan dvigatelning uzoq ishlashi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, dvigatelga havo, yoqilg'i va moy (5-chiziq) bilan birga kiruvchi chang miqdori ortishi bilan uni qismlarining eyilish tezligi ortadi va bu eyilish-abrazivdir. Shuni ta'kidlash kerakki, ishqalanish qismlarining eyilish intensivligi detallar sirtining qattiqligi va abraziv zarralar qattiqligi nisbatiga bog'liq. Qismlarning sirt qattiqligi qanchalik past bo'lsa va abrazivning qattiqligi qanchalik katta bo'lsa, abraziv eyilish shunchalik katta bo'ladi.

Yoqilg'i haroratining oshishi uning zichligi va yopishqoqligiga ta'sir qiladi. Zichlik va yopishqoqlikning pasayishi silindrlarga yoqilg'ining massa ta'minotining pasayishiga olib keladi, porshen juftlaridagi bo'shliqlardan oqib chiqadigan yoqilg'i miqdorini oshiradi. Bunday holda, yonilg'i pompasining yuqori harorati porshen juftlari va yoqilg'i bilan yog'langan qismlarda yarim quruq va quruq ishqalanishni keltirib chiqaradi, bu esa ularning

kuchli yeyilishsina olib keladi. Ro'yxatda keltirilgan sabablar normal haroratda ishlashga nisbatan yonilg'i uskunalari resursining 1,5-2 baravar kamayishiga olib keladi.

Shunday qilib, turli omillarning yeyilish jarayoniga ta'sirini taxlil qilish quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi: avtomobil dvigateli qismlarining yeyilishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi, masalan, yuk va tezlik ish rejimlari, ular asosan yeyilish miqdorini belgilaydi. molekulyar mexanik yeyilish va ishning issiqlik rejimi, shu jumladan korroziya-mexanik yeyilish miqdorini aniqlaydigan ishga tushirish va isitish davrlari.

Bundan kelib chiqadiki, dvigatelni ifloslanishning chang zarralaridan yetarli darajada himoya qilmasa, qismlarning abraziv yeyilishi keskin ortadi va bu yuqori harorat va chang bo'lgan Markaziy Osiyo zonasi sharoitida ishlaydigan transport vositalari uchun alohida ahamiyatga ega (atmosfera havosining tarkibi).

Dvigatel qismlarining yeyilishini kamaytirishning eng maqbul va tejamkor usuli havo, yoqilg'i va moyni samarali tozalash va dvigatelga chang kirishi mumkin bo'lgan barcha joylarni muhrlash deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гаркунов Д. Н. Триботехника (гибка и гибка): Учеб. - Издание 4-е, исправленное. И вдобавок. - М.: "Издательство Московской сельскохозяйственной академии", 2001. 616с.2.
2. Каримходжаев Н., Косимов И.С., Ёкубов Ё.О. Оценка абразивной агрессивности загрязнений топлива автомобильных двигателей, эксплуатирующийся в жаркой, высоко запыленной зоне Центральной Азии // Universum: Технические науки: электрон.научн.журн.2019.№11(68). URL: <http://7universum.com/ru/tech/archive/item/8242>
3. Каюмов Б.А. Обеспечение надежности системы электроснабжения современных бензиновых двигателей в условиях жаркого климата ООО «Андижан Андижанское издательство-манбаа». 2019. 104 с.
4. Крамаренко Г.В., Салимов А.Ю., Каримходжаев Н., Каюмов К.К. Качество топлива и надежность двигателей тракторов. Ташкент. Fan. - 1992 год. 126с.
5. Кузнецов С.П. Испытания и обеспечение надежности газотурбинных двигателей: Рыбинск: РГАТА, 2005 – 180 с.
6. Николаенко А. В. Теория, конструкция и расчет автотракторных двигателей. М.: Колос. 1984. 335 с.
7. Сафонов Б.П., Бегов А.В. Учебник инженерной трибологии. Оценка коррозионной стойкости и ресурса трибопар. Новомосковск 2004.-247с.
8. Шеховцев А.Ф. и др. Конструктивные отличия и особенности эксплуатации двигателей в экстремальных условиях. Kovsh.com/ library/ice/climatic conditions/ eksplua dvigatel ekstremuslov. 2019.
9. Эксплуатация ДВС в условиях стран Азии, Африки и Латинской Америки. Основы климатической приспособленности ДВС. –Киев: УМК ВО, 2009.-285с.
10. Recommendations for Cleaning and Pretreatment of Heavy Fuel Oil Alfa Laval. London. 2012. -124 p.
11. Фильтры / Чистим топливо ./фильтр%20%20НАМИ.

ISSN 2181-1539

Muxitdinov A.A., t.f.d professor,
Toshkent davlat transport universiteti,
e-mail: akmalmukhitdinov@gmail.com
Toshkent.

Turgunov D.Sh., tayanch doktorant,
Toshkent davlat transport universiteti,
e-mail: turgunovdiyor90@gmail.com
[Tel:+998974142416](tel:+998974142416)
Toshkent.

Numanov M.Z., tayanch doktorant,
Toshkent davlat transport universiteti,
e-mail: numanovshox@mail.ru
[Tel:+998993264992](tel:+998993264992)
Toshkent.

AVTOMOBIL DVIGATELLARIDA YONILG‘I VA HAVO ARALASHMASI MIQDORINING QIYOSIY TAHLILI

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СМЕСИ ТОПЛИВА С ВОЗДУХОМ В ДВИГАТЕЛЯХ АВТОМОБИЛЕЙ

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE QUANTITY OF FUEL AND AIR MIXTURE IN CAR ENGINES

Annotatsiya

Ushbu maqolada chiqindi gazlarni keltirib chiqaruvchi bir necha hisob uslublari berilgan bo‘lib, jumladan, yonilg‘i va havo aralashmasi, havo tarkibidagi kislorod miqdori, havo-yonilg‘i nisbati va havoning ortiqchalik koeffitsienti mutanosibliigi keltirilgan xamda bir-biriga taqqoslangan. Shu bilan birga chiqindi gazlarni hisoblovchi hisob uslublari xam tahlil qilingan.

Аннотация

В этой статье представлены и сравниваются несколько методов расчета выбросов, включая топливно-воздушную смесь, содержание кислорода в воздухе, воздушно-топливное отношение и коэффициент избытка воздуха. При этом были проанализированы и расчетные методики расчета отработавших газов.

Abstract

This article presents and compares several emission calculation methods, including fuel-air mixture, air oxygen content, air-fuel ratio, and air excess ratio. At the same time, the methods of calculation of waste gases were also analyzed.

Kalit so‘zlar: *uglerod, vodorod, molekulyar massalar, kislorod, havo xajmi, temperatura, zichlik, bosim, kimyoviy reaksiya, to‘liq yonish, havo miqdori, havo-yonilg‘i nisbati, havoning ortiqchalik koeffitsienti.*

Ключевые слова: углерод, водород, молекулярные массы, кислород, объем воздуха, температура, плотность, давление, химическая реакция, полное сгорание, количество воздуха, воздушно-топливное отношение, коэффициент избытка воздуха.

Key words: carbon, hydrogen, molecular masses, oxygen, volume of air, temperature, density, pressure, chemical reaction, complete combustion, air content, air-fuel ratio, air excess coefficient.

Kirish

Bugungi kunda avtomobillarni sinov uslublari bilan bir qatorda hisob uslublari bilan baxolash rivojlanib kelmoqda. Xorijiy va davlat standartlarida, me'yoriy hujjatlarda shunga ruxsat berilgan. Ushbu maqola ekologik hisob uslubini yaratishga bag'ishlanadi. Hisob uslubini yaratishda mavjud uslublarning tahlili zaruriyat bo'ldi. Shuni ko'rsatadiki, bularda qo'llanilgan yonilg'i va havo aralashmasi miqdori, nisbati, gazlarning tarkibi va boshqalar turlicha qabul qilinmoqda. Nima uchun bunday qabul qilingan? Ular hisob natijalariga qanday ta'sir qiladi? Shularni o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish jarayoni bir nechta adabiyotlar o'rganib chiqildi. Avtomobillarning ekologik bezararlik hisob uslubini ishlab chiqishda ko'plab omillar sabab bo'ladi. Masalan, dvigatelning hisobi, yonilg'i va havo miqdori, chiqindi gazlar tarkibi, gazlarni ushlab qoluvchi yoki zaharlilik koeffitsientini kamaytiruvchi qurilmalar kabi yo'nalishlardir. Manbaalarni kichik guruhlariga ajratdik: dvigatel hisobi uslubiga ko'ra [11], [12]; chiqindi gazlarni baholashdagi hisob uslubiga ko'ra [6], [7], [9]; maxsus dasturdagi hisobiga ko'ra [10].

Tadqiqotlarning asosiy maqsadi: zaharli gazlarni aniqlash, ekologiyaga bo'lgan zararini kamaytirish, atmosferaga kamroq chiqarilishini ta'minlash, ichki yonuv dvigatellaridan va yonilg'ilardan foydalanish samaradorligini oshirish, yonilg'ilarning ekologik sinflari [1] kabi yo'nalishlardir. Boshqa rivojlangan davlatlar qatori O'zbekistonda ham EVRO-4 standarti talablarini bosqichma-bosqich joriy etish boshlangan. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida nazarda tutilganidek, 2022-yil 1-yanvardan EVRO-3 dan past ekologik sinfdagi motor yoqilg'isini, 2023-yil 1-yanvardan esa EVRO-4 dan past ekologik sinfdagi dvigatel yonilg'isini olib kirish taqiqlanadi [2]. Soha olimlari va mutaxassislar tomonidan ko'plab hisob va sinov uslublari ishlab chiqilgan.

Asosiy qism

Maqolada yonilg'i va havo aralashmalariga oid manbaalar ko'rib chiqilgan. Sababi, chiqindi gazlarni hisobi bevosita silindrga kirayotgan yonilg'i miqdori, havo miqdori, kislorod miqdorlari bilan bog'liq ko'rsatkichdir.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga asoslangan holda quyidagi hisob uslublari taqqoslandi:

1. Berilgan sharoitda yonilg'ilarni kislorodda yonishi;
2. Ichki yonuv dvigatellarida nazariy jihatdan 1 kg yonilg'ining yonishi uchun zarur bo'lgan kislorod miqdori va yonish mahsuloti miqdori (uglerod to'liq xamda chala yonganida);
3. Havo-yonilg'i nisbati hisobi (AFR-air fuel ratio);

4. Lambda (λ) hisobi;
- Chiqindi gazlarni hisob uslublari bo'yicha quyidagi manbaalar ko'rib chiqildi:
5. Zararli moddalarning massasi hisobi.
6. Havo haroratining ta'siri orqali chiqindi gazlarning kvadratik formulasi hisobi.

1. V.A. Arxipov va E.S. Sinoginalar tomonidan berilgan sharoitda yonilg'ilarning kislorodda yonish hisobi ko'rib chiqilgan. Jadval 1 da ko'rsatilgan.

Jadval 1

Yonilg'ilarning kislorodda yonishi

Yonilg'i turi	Kimyoviy yonish reaksiyasi
Uglerod	$C+O_2=CO_2$ (to'liq yonganda) $2C+O_2=2CO$ (chala yonganda)
Vodorod	$2H_2+O_2=2H_2O$
Uglerod oksidi	$CO+0.5O_2=CO_2$


Hisoblashni amalga oshirish uchun yonishda qatnashadigan asosiy moddalarning nisbiy molekulyar massalarini bilish kerak. Jadval 2 da moddalarning nisbiy molekulyar massalari ko'rsatilgan. Tadqiqotlarda havo tarkibidagi azot yonish reaksiyasida qatnashmagan [3].

Jadval 2

Moddalarning nisbiy molekulyar massalari

Modda	O ₂	C	H ₂	Havo
M	32	12	2	29

Benzinning (C_6H_6) yonish reaksiyasi tenglamasi quyidagicha:



Berilgan tenglamada kimyoviy elementlarning nisbiy molekulyar massalari qiymatlarini qo'yamiz:

$$6 \cdot 12 + 6 \cdot 1(C_6H_6) + 7.5(2 \cdot 16)(O_2) = 6(1 \cdot 12 + 2 \cdot 16)(CO_2) + 3(1 \cdot 2 + 1 \cdot 16)(H_2O).$$

Moddaning molyar massasi M (kg/kmol) son jihatdan uning nisbiy molekulyar og'irligi bilan bir xil bo'lgani uchun, oxirgi munosabatni quyidagicha yozish mumkin:

$$78 \text{ kg } (C_6H_6) + 240 \text{ kg } (O_2) = 264 \text{ kg } (CO_2) + 54 \text{ kg } (H_2O)$$

78 kg benzin C_6H_6 ni yoqish uchun 240 kg kislorod kerak bo'ladi.

1 kg benzinni yoqish uchun zarur bo'lgan kislorod M_k massasini aniqlaymiz:

$$M_k = 240 \text{ kg } (O_2) / 78 \text{ kg } (C_6H_6) = 3.08 \text{ кг}$$

Oddiy sharoitlarda kislorodning ma'lum zichligiga ko'ra ($\rho_k = 1,429 \text{ kg/m}^3$), 1 kg benzinning to'liq yonishi uchun zarur bo'lgan kislorod V_k hajmini aniqlaymiz.

$$V_k = M_k / \rho_k = 3.08 / 1.429 = 2.155 \text{ m}^3$$

Yonish havo muhitida sodir bo'lganligi sababli, biz havodagi kislorod miqdorini hisobga olgan holda havo hajmini hisoblaymiz (1 m³ havoda 0,21 m³ kislorod bor, $V=1/0,21=4,762 \text{ m}^3$):

$$V_x = 2.155 \cdot 4.762 = 10.262 \text{ m}^3.$$

1 kg benzinni normal fizik sharoitda to'liq yoqish uchun 10,262 m³ havo kerak bo'ladi.

Havo bosimi (p), temperaturasi (T) ning ixtiyoriy qiymatlari uchun havoning molyar hajmini hisoblash uchun quyidagi formulani olish mumkin ($T_n = 0^\circ\text{C}$ (273 K); $p_H = 760$ mm simob ustuni (mm Hg) yoki 101.3 kPa):

$$V_M = \frac{V_x \cdot p_n \cdot T}{T_n \cdot p}$$

formuladan foydalangan xolda, berilgan sharoitlarda (masalan, $T = +20^\circ\text{C}$ (293 K), $p = 750$ mm Hg) havo hajmini hisoblaymiz.

$$V_x = \frac{10,262 \cdot 760}{273} \cdot \frac{293}{750} = 11,16 \text{ m}^3$$

Xulosa shundan iboratki, berilgan $+20^\circ\text{C}$ sharoitda 1 kg benzinning to'liq yonishi uchun zarur havo hajmi $V_X = 11,16 \text{ m}^3$ ni tashkil qiladi.

2. B. A. Sharoglavov va boshqalar tomonidan nazariy jihatdan, 1 kg yonilg'ining yonishi uchun zarur bo'lgan kislorod miqdori va yonish mahsuloti miqdori C va H ning kimyoviy reaksiyalari asosida hisoblanadi [4].

IYD da yonilg'i tarkibidagi asosiy elementlari massa yoki hajm miqdori bilan beriladi: C - uglerod; H - vodorod; O_{yon} - yonilg'idagi kislorodi (kg)

1 kg suyuq yonilg'i uchun alohida tarkibiy kimyoviy elementlarning massa ulushlari tenglamasi quyidagicha:




$$C + H + O = 1$$

Jadval 3


Kimyoviy elementlarning massa ulushlari

Suyuq yonilg'i	C	H	O_{yon}
Benzin, kg	0,855	0,145	-
Dizel, kg	0,870	0,126	0,004

To'liq yonish holatida uglerod (C) ning kislorod (O) bilan kimyoviy reaksiyalari quyidagicha:



Vodorodning yonish reaksiyasi:



Massa ulushida:

$$4 \text{ kg (H}_2\text{)} + 32 \text{ kg (O}_2\text{)} = 36 \text{ kg (H}_2\text{O)}.$$

H kg vodorod uchun:

$$H \text{ kg (H)} + 8H \text{ kg (O}_2\text{)} = 9H \text{ kg (H}_2\text{O)}.$$

Formulalardan kelib chiqadiki, 1 kg yonilg'ining to'liq yonishi uchun nazariy jihatdan zarur bo'lgan kislorod miqdori formulasi bo'yicha aniqlanadi


$$O'_2 = \frac{8}{3}C + 8H - O_{yon}; \text{ kg kislorod/ kg yonilg'i}$$

Havo tarkibida massa bo'yicha 23,2 % kislorod borligini hisobga olsak, 1 kg yonilg'ining to'liq yonishi uchun nazariy jihatdan zarur bo'lgan havo miqdori quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

$$L'_0 = \frac{O'_2}{0,23} = \frac{\frac{8}{3}C + 8H - O_{yon}}{0,23} = \mathbf{14,95}, \text{ kg kislorod/ kg yonilg'i}$$

Biz uglerodni to'liq yongandagi ya'ni $C + O_2 = CO_2$ ko'rib chiqdik.

Agarda uglerod chala yonganda havo miqdori qanday o'zgargan bo'lar edi. Chala yonish formulasiga binoan ko'rib chiqamiz. Quyidagi tenglama:



Yuqorida ishlab chiqarilgan formula kabi hisoblab chiqamiz.

$$2C + O_2 = 2CO \text{ (molekulyar massasi qo'yiladi. } m_c = 12; m_o = 16)$$

$$2 * 12 \text{ kg (C)} + 16 * 2 \text{ (O}_2\text{)} \text{ kg} = 2 * (12 + 16) \text{ kg (CO)}$$

$$24 \text{ kg (C)} + 32 \text{ kg (O}_2\text{)} = 56 \text{ kg (CO)}$$

$$1 \text{ kg uglerod uchun (24 ga bo'lamiz)}$$

$$1 \text{ kg (C)} + 4/3 \text{ kg (O}_2\text{)} = 7/3 \text{ kg (CO)}$$

C kg uglerod uchun:

$$C \text{ kg (C)} + (4/3)C \text{ kg (O}_2\text{)} = (7/3) C \text{ kg (CO)}$$

Vodorodning yonish reaksiyasi o'zgarmagan xolda qoladi. 1 kg yonilg'ining chala yonishi uchun nazariy jihatdan zarur bo'lgan havo miqdori quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

$$L'_0 = \frac{O'_2}{0,23} = \frac{\frac{4}{3}C + 8H - O_{yon}}{0,23} = \mathbf{10}, \text{ kg kislorod/ kg yonilg'i}$$

Asosiy farqni ko'rib chiqamiz, demak 1 kg yonilg'i to'liq yonganda nazariy havo miqdori 14,95 kg bo'lsa, chala yonganda esa 10 kg ni tashkil qildi. 4,95 kg farq qildi. Yonilg'i chala yonishi havoning ortiqchalik koeffitsiyentiga (α) ta'sir ko'rsatadi, o'ta kambag'al aralashma turiga to'g'ri keladi $\alpha > 1,2$.

$$\alpha = \frac{l_x}{L_H} = \frac{15}{10} = \mathbf{1.5}$$

Bunda 1 kg yonilg'ini yonishida ishtirok etayotgan haqiqiy havo massasi L_x (qiymati $L_x = 15$ bo'lganda), kerak bo'lgan havoni nazariy massasi L_H bilan o'lchanadi ($L_H = L'_0$).

Shundan kelib chiqib besh xil yonuvchi aralashma xillari mavjud: normal($\alpha = 1$), kambag'al($\alpha = 1,1 \dots 1,15$), o'ta kambag'al($\alpha > 1,2$), boy aralashma($\alpha = 0,85 \dots 0,9$), o'ta boy aralashma($\alpha < 0,85$). Dvigatel quvvati va yonilg'i sarfini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

3. Havo-yonilg'i nisbati hisobi (AFR-air fuel ratio)

Havo-yonilg'i nisbati (AFR-air fuel ratio) yonish uchun tayyorlangan aralashmaning havo va yonilg'i nisbati sifatida aniqlanadi[15].

Ichki yonuv dvigatellari havo yonilg'isi nisbati (AF yoki AFR) dvigatel ishlayotganida ishlatiladigan havo m_a massasi va yonilg'i massasi m_f o'rtasidagi nisbat sifatida aniqlanadi:

$$AFR = \frac{m_a}{m_f}$$

Bu formuladan, muallif Shamil Ahmed Flamarz Al-Arkawazi tomonidan ilmiy tadqiqotlarida qo'llanilgan[8].

Teskari nisbat yonilg'i-havo nisbati (FA yoki FAR) deb ataladi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$FAR = \frac{m_f}{m_a} = \frac{1}{AFR}$$


To'liq yonish uchun ideal (nazariy) havo yonilg'isi nisbati stokiometrik havo yonilg'isi nisbati deb ataladi. Benzinli dvigatel uchun stokiometrik havo yonilg'isi nisbati 14,7: 1 atrofida. Bu shuni anglatadiki, 1 kg yonilg'ini to'liq yoqish uchun bizga 14,7 kg havo kerak bo'ladi.

Jadval 4


Havo-yonilg'i nisbati

Yonilg'i turi	Kimyoviy formulasi	AFR
Dizel	$C_{12}H_{23}$	14.5:1
Benzin	C_8H_{18}	14.7:1
Propan	C_3H_8	15.67:1
Metan	CH_4	17.19:1
Vodorod	H_2	34.3:1

Benzinning izo-oktandan (C_8H_{18}) tashkil topganligini hisobga olib, benzin uchun stokiometrik havo yonilg'isi nisbati hisoblangan.



Muvozanatni tenglaymiz:



Molekulyar massasi qo'yiladi:

$$\text{Yonilg'i uchun } m_f = 8 \cdot 12 + 18 \cdot 1 = 114 \text{ g}$$

$$\text{Kislorod uchun } m_o = 12.5 \cdot 16 \cdot 2 = 400 \text{ g}$$

Havo tarkibidagi 21 % kislorodni hisobga olib havo massasini hisoblaymiz:


$$m_a = \frac{100}{21} * m_o = \frac{100}{21} * 400 = 1904.7 \text{ g}$$

Havo-yonilg'i nisbatini hisoblaymiz:


$$AFR = \frac{m_a}{m_f} = \frac{1904.7}{114} = 16.7$$

Jadval 4 dagi ko'rsatkichda 14.7 qiymatda, formulada 16.7 chiqqan, 2 ga farq qilyapdi.

Biz benzinning C₆H₆ formulasi bo'yicha tenglikka qo'yib, hisoblab chiqamiz:



Muvozanatni tenglaymiz:



Molekulyar massasi qo'yiladi:

$$\text{Yonilg'i uchun } m_f = 6 * 12 + 6 * 1 = 78 \text{ g}$$

$$\text{Kislorod uchun } m_o = 7.5 * 16 * 2 = 240 \text{ g}$$

Havo tarkibidagi 21 % kislorodni hisobga olib havo massasini hisoblaymiz:

$$m_a = \frac{100}{21} * m_o = \frac{100}{21} * 240 = 1142.85 \text{ g}$$

Havo tarkibidagi 23 % kislorodni hisobga olib havo massasini hisoblaymiz:

$$m_a = \frac{100}{23} * m_o = \frac{100}{23} * 240 = 1043.47 \text{ g}$$

Havo-yonilg'i nisbatini 2 xil qiymatda hisoblaymiz:

21 % kislorodni hisobga olsak,

$$AFR = \frac{m_a}{m_f} = \frac{1142.85}{78} = 14.65$$

23 % kislorodni hisobga olsak,

$$AFR = \frac{m_a}{m_f} = \frac{1043.47}{78} = 13.37$$

Jadval 4 da 14.7 ideal qiymatda berilgan, bizning hisoblagan C₆H₆ benzinda 14.65 qiymat chiqdi. Orasidagi farq 0.05 ga teng ekanligi isbotlandi.

4. Lambda (λ) hisobi

Biz stokiometrik (ideal) havo-yonilg'i nisbati nima ekanligini va qanday hisoblashni ko'rdik. Aslida, ichki yonuv dvigatellari ideal AFR bilan to'liq ishlaymaydi, lekin unga yaqin qiymatlar bilan ishlaydi. Shunday qilib, biz ideal va haqiqiy havo-yonilg'isi AFR nisbatiga ega bo'lamiz. Haqiqiy havo-yonilg'isi nisbati (*AFR_{haqiqiy}*) va ideal / stokiometrik havo-yonilg'isi nisbati (*AFR_{ideal}*) o'rtasidagi nisbat ekvivalent havo yonilg'isi nisbati yoki lambda (λ) deb ataladi.

$$\lambda = \frac{AFR_{haqiqiy}}{AFR_{ideal}}$$

Misol uchun, benzinli dvigatel uchun ideal havo-yonilg'isi nisbati 14,7: 1 ni tashkil qiladi. Haqiqiy AFR 13,5 bo'lsa, lambda ekvivalent koeffitsiyenti quyidagicha bo'ladi:

$$\lambda = \frac{13.5}{14.7} = 0.92$$

Lambda qiymatiga qarab, dvigatelda kambag'al (lean) havo-yonilg'isi aralashmasi, stokiometrik(ideal) yoki boy(rich) havo yonilg'isi aralashmasi bilan ishlaydi.


Jadval 5

Lambda tavsifi

Ekvivalentlik omili	Havo-yonilg'isi aralashmasi turi	Tavsif
$\lambda < 1.00$	Boy (rich)	Yonilg'i miqdorini to'liq yoqish uchun havo yetarli emas; yonishdan keyin chiqindi gazlarda yonmagan yonilg'i mavjud
$\lambda = 1.00$	Stokiometrik (ideal)	Havoning massasi yonilg'ining to'liq yonishi uchun aniq; yonishdan keyin chiqindi gazda ortiqcha kislorod va yonmagan yonilg'i yo'q
$\lambda > 1.00$	Kambag'al (lean)	Yonilg'i miqdorini to'liq yoqish uchun zarur bo'lgandan ko'proq kislorod mavjud; yonishdan keyin chiqindi gazlarda ortiqcha kislorod mavjud

Lambda va havo-yonilg'i nisbati qiymalari 1 – rasmda berilgan bo'lib, dvigatel quvvati va yonilg'i sarfiga tasiri chizmasini ko'rish mumkin. $\lambda = 1.00$ qiymati ideal hisoblanadi, qolgan qiymatlari rasmda berilgan.

STOXIOMETRIK (IDEAL)



1-rasm. Dvigatel quvvati, yonilg'i sarfi ko'rsatkichlarining havo-yonilg'i nisbatiga (lambda) ta'siri [<https://x-engineer.org/air-fuel-ratio/>]

5. B.I. Bazarov tomonidan zararli moddalarning massasi hisob uslubi berilgan.

Ma'lum bir rusumdagi transport vositasining atmosferasiga j-toifadagi zararli moddalarning chiqarilish massasi (kunlik yoki yillik) quyidagi formula orqali aniqlanadi[5].

$$M_{jkun} = k_j \cdot G_j \cdot \rho_{yo} \cdot k_{tq} \cdot k_{iq} \cdot L_{o'k} \cdot 10^{-3}, \quad m$$

$$M_{jyil} = M_{jkun} \cdot D_k \cdot \alpha_{ich} \cdot A_{o'k}, \quad m$$

bu yerda k_j - 1 kg yonilg'ining yonishi paytida chiqindi gaz tarkibidagi j-moddaning solishtirma og'irligining taxminiy koeffitsiyenti;

G_j - 1 km xarakat uchun yonilg'i sarfi, l/km;

ρ_{yo} - yonilg'ining o'rtacha zichligi, g/sm³;

$L_{o'k}$ - avtomobilning o'rtacha kunlik yurishi, km;

k_{tq} - o'rtacha yosh va texnik holatning ta'sir koeffitsiyenti;

k_{iq} - ekspluatatsiya toifasiga qarab tabiiy-iqlim sharoitlarining ta'sir koeffitsiyenti;

D_k - bir yildagi kalendar kunlar soni;

α_{ich} - har bir liniyada avtomobil ishlab chiqarish koeffitsiyenti;

$A_{o'k}$ - yiliga o'rtacha avtomobillar soni.

Shu kabi hisobiy uslublar orqali chiqindi gazlarni qiymatini aniqlash mumkin. Ayrim manbaalarda, gazlarning tarkibiga qarab aloxida uslublar, grafik va chizmalar berilgan.

6. Dissertatsiyalardan zararli moddalarni hisoblashga oid kvadratik formula olindi va taqqoslandi.

A.S.Gavayev tomonidan quyidagicha hisob uslubi berilgan. Havo haroratining o'zgarishi α ga ta'sir qiladi, bu esa chiqindi gazlarning CO, CnHm va NOx miqdori ortishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, havo harorati t_v o'zgarishi zararli moddalarning X_{CO} , $X_{C_nH_m}$, X_{NO_x} matematik modeli hisob uslubiga ta'sir qiladi xamda quyidagi taklif qilingan kvadratik formula orqali tavsiflanadi[13]:

$$\begin{aligned} X_{CO} &= X_{CO(opt)} + S_{t_{CO}} (t_F - t_{CO(opt)})^2, \\ X_{C_nH_m} &= X_{C_nH_m(opt)} + S_{t_{C_nH_m}} (t_F - t_{C_nH_m(opt)})^2, \\ X_{NO_x} &= X_{NO_x(opt)} + S_{t_{NO_x}} (t_F - t_{NO_x(opt)})^2 \end{aligned}$$

Bu yerda;

$X_{CO(opt)}, X_{C_nH_m(opt)}, X_{NO_x(opt)}$ - CO, CnHm, NOx larning mos ravishda optimal tarkibi, %:

$S_{t_{CO}}, S_{t_{C_nH_m}}, S_{t_{NO_x}}$ - CO, CnHm, NOx lar tarkibiga ko'ra havo haroratining o'zgarishiga sezgirlik parametrlari, %/°C:

$t_{CO(opt)}, t_{C_nH_m(opt)}, t_{NO_x(opt)}$ - CO, CnHm, NOx lar tarkibiga ko'ra dvigatel kirish joyidagi optimal havo harorati, °C:

t_F - dvigatel kirish joyidagi haqiqiy havo harorati, °C.

Chiqindi gazlardagi CO, C_nH_m, NO_x ning xajmli tarkibi aniqlangan soʻng, ushbu moddalarning solishtirma hisobi GOST 51832-2001 asosida hisoblanadi.

E.M.Chikishev tomonidan quyidagi hisob uslubi berilgan. Muallif A.S.Gavayev kabi chiqindi gazlarni hisoblashda kvadratik formuladan foydalangan[14].

$$X_{CO} = X_{COmin} + St_{CO}(t_v - t_o)^2, \quad X_{C_nH_m} = X_{C_nH_mmin} + St_{C_nH_m}(t_v - t_o)^2, \\ X_{NO_x} = X_{NO_xmax} + St_{NO_x}(t_v - t_{vmax})^2$$

Bu yerda;

$X_{COmin}, X_{C_nH_mmin}$ – CO, C_nH_m larning minimal tarkibi, %:

X_{NO_xmax} – NO_x ning maksimal tarkibi, %:

$St_{CO}, St_{C_nH_m}, St_{NO_x}$ – mos ravishda CO, CH, NO_x lar tarkibiga koʻra, dvigatel kirish qismidagi havo haroratining oʻzgarishiga sezgirlik parametrlari, %/°C:

t_o - CO, C_nH_m larning tarkibi boʻyicha dvigatel kirish qismidagi optimal havo harorati, °C:

t_{vmax} – dvigatel kirish joyidagi havo harorati NO_x ning maksimal miqdori boʻyicha qiymati, °C.

Qolgan koʻplab hisoblar GOST R 41.49-2003 asosida olib borilgan.

Olingan hisob uslubidan quyidagicha xulosaga kelinadi. Mualliflar A.S.Gavayev va E.M.Chikishevlar kvadratik formuladan foydalangan, farqi shundaki, CO, C_nH_m, NO_x larning qiymatlarida, dvigatel kirish qismidagi havo haroratini oʻzgarishida, qoʻllanilgan standart turidadir.

Maqsad

Tadqiqotlarni olib borishdan maqsadimiz berilgan hisob uslublarini taqqoslagan xolda oʻrganib chiqish xamda kelgusidagi hisob ishlarida inobatga olish. Xar bir hisob uslubi boʻyicha:

1 – uslubda, berilgan fizik sharoitda (+20°C) yonilgʻi (1 kg benzin) toʻliq yonishi uchun kerak boʻlgan havo xajmining hisobi berilgan. Demak istalgan fizik sharoitda ushbu hisob uslubidan foydalanish mumkin.

2 – uslubda, IYD larda yonilgʻi (1 kg benzin) yoshini uchun kerak boʻlgan havo miqdori hisob uslubi berilgan, havo miqdorini kg da ifodalagan. IYD larda yonish jarayonini hisobi 2 xil usulda olib borilgan yaʼni, toʻliq xamda chala yonishlardagi havo miqdorlari koʻrsatilgan. Bu qiymatlar dvigatel quvvati va yonilgʻi sarfiga taʼsir koʻrsatuvchi asosiy omillardan biridir.

3 – uslubda, benzinning kimyoviy formulasi asosida hisoblab chiqildi. Havo-yonilgʻi nisbati uchun ideal 14.7 kg qiymatga yaqinlashdi. Tadqiqotda 16.7 kg chiqqan, bizning hisoblash ishlarimizda 14.65 kg qiymatga erishdik.

4 – uslubda, (λ) lambda koʻrsatkich qiymatlari havoning ortiqchalik koeffitsiyenti (α) ga mutanosib ekanligi isbotlandi.

5 – uslubda, tadqiqotchi tomonidan chiqindi gazlarini hisoblash uchun yonilgʻi sarfi, avtomobilning kunlik yurishi, avtomobillar soni, tabiiy-iqlim sharoitlari koeffitsiyentlari kabi qiymatlardan foydalanilgan.

6 – uslubda, tadqiqotlarda chiqindi gazlarni tarkibi (optimal va minimal), havo harorati koʻrsatkichlari, chiqindi gazlarning harorati miqdorlaridan foydalanilgan.

Bunday hisob uslublarini aniqlashning boisi shundaki, xozirgi yangi avtomobil yoki dvigatellarda ekologik bezararligini kalibrovka usuli bilan elektronikasi sozlanadi. Sinov

uslubida amalga oshirilgan. Hisob uslubi bilan amalga oshirish imkoni bormi? Shuni o'rganish bizning maqsadimizdir.

Xulosa

Maqolada 6 ta manbaani hisob uslublari tahlil qilingan bo'lib, 4 ta manbaalardagi uslublar farqlari aniqlandi, sabablari ko'rsatildi. Turli hisoblardagi hisob natijalari havo tarkibidagi kislorod miqdoriga ko'ra bir-biridan 0.25 kg farqlandi (2 – va 3 – uslublar), yonuvchi aralashmaning to'liq va chala yongandagi qiymatiga ko'ra 4.95 kg dagi farqi hisoblandi (2 – uslubda). Oxirgi 2 ta manbaalarda chiqindi gazlarning hisob uslublari berilgan.

Reaksiya tenglamalarida lambda ishtiroki bo'ladimi? Yoki ekologik zararni kamaytirish uchun tizimga o'rnatilgan jixozlarni masalan, katalizator, neytralizator, EGR sistemasi datchigi va boshqalarni hisob uslubiga ta'sirini o'rganish.

Kelajakdagi ilmiy tadqiqot ishlarimizda avtomobilning ekologik bezararlik hisob uslubi modelini ishlab chiqish uchun mana shu maqola asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxitdinov A.A., Numanov M.Z. Analysis of the ecological class of fuels used in cars //Universum:texnicheskie nauki: elektron. nauchn. jurn. 2021. 5(86). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11775>

2. Каримходжаев Н., Нумонов М.З. Сравнительный анализ токсичности выхлопных газов автомобилей и пути ее снижения // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2020. 11(80).

URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/10963> (дата обращения: 25.11.2020).

3. В.А. Архипов, Е.С. Синогина “Горение и взрывы опасность и анализ последствий”. Учебное пособие. Часть ИИ. Томск-2007.

4. Б. А. Шароглазов, М. Ф. Фарафонов, В. В. Клементьев “Двигатели внутреннего сгорания: теория, моделирование и расчёт процессов” Челябинск. Издательство ЮУрГУ-2005

5. Б.И. Базаров “Экологическая безопасность автотранспортных средств”. Ташкент, “Chinor ENK” 216 бет, 2012

6. Massimiliano Gastaldi, Claudio Meneguzzer “On-road measurement of CO2 vehicle emissions under alternative forms of intersection control” 20th EURO Working Group on Transportation Meeting, EWGT 2017, 4-6 September 2017, Budapest, Hungary. Transportation Research Procedia 27 (2017) 476–483 www.sciencedirect.com

7. Gulcin Demirel Bayik, Mine Polat Alpan “Vehicle emissions at intersections before and after signal improvement: Zonguldak example” International Journal of Advances in Mechanical and Civil Engineering, ISSN: 2394-2827 Volume-5, Issue-5, Oct.-2018.

8. Shamil Ahmed Flamarz Al-Arkawazi “Analyzing and predicting the relation between air-fuel ratio (AFR), lambda (λ) and the exhaust emissions percentages and values of gasoline-fueled vehicles using versatile and portable emissions measurement system tool” SN Applied Sciences (2019) 1:1370 | <https://doi.org/10.1007/s42452-019-1392-5>.

9. Hiroo Hata, Megumi Okada, Koichi Yanai, Masahiko Kugata, Junya Hoshi “Exhaust emissions from gasoline vehicles after parking events evaluated by chassis dynamometer experiment and chemical kinetic model of three-way catalytic converter” Tokyo Metropolitan Research Institute for Environmental Protection, 1-7-5, Sinsuna, Koto-ku, Tokyo 136-0075, Japan. Science of the Total Environment 848 (2022) 157578. www.elsevier.com/locate/scitotenv

10. Mihai NAGI, Danila IORGA, Ioan-Daniel Carabas “Simulation of a passenger car performance and emissions using the Avl-Cruise software” Politehnica University Of Timisoara, Faculty Of Mechanics, Romania. TERMOTEHNICA 1/2011.

11. Justin D.K. Bishop, Marc E.J. Stettler “Engine maps of fuel use and emissions from transient driving cycles” Applied Energy 183 (2016) 202–217. www.elsevier.com/locate/apenergy <http://dx.doi.org/10.1016/j.apenergy.2016.08.175>

12. Dekraker, P., Barba, D., Moskalik, A., and Butters, K., “Constructing Engine Maps for Full Vehicle Simulation Modeling,” SAE Technical Paper 2018-01-1412, 2018, doi:10.4271/2018-01-1412.

13. ГАБАЕВ АЛЕКСАНДР СЕРГЕЕВИЧ диссертация “Приспособленность газобаллонных автомобилей к низкотемпературным условиям эксплуатации по токсичности отработавших газов и расходу топлива” Тюмень 2007.

14. ЧИКИШЕВ Евгений Михайлович диссертация “Оценка приспособленности газобаллонных автомобилей к низкотемпературным условиям эксплуатации по расходу топлива и токсичности отработавших газов” Тюмень 2011.

15. <https://x-engineer.org/air-fuel-ratio/>

16. <https://studizba.com/lectures/inzhenerija/traktory-i-avtomobili/40353-dejstvitelne-cikly-dvs.html>

Namozova Barno Behzod qizi
121-21 A va T yo’nalishi talabasi
“Transport” fakulteti
Jizzax politexnika instituti
Jizzax viloyati
O’zbekiston

AVTOTRANSPORT VOSITALARIGA KUNLIK XIZMAT KO’RSATISH MINTAQASINI HISOBLASH

РАСЧЕТ СУТОЧНОЙ ПЛОЩАДИ ОБСЛУЖИВАНИЯ АВТОМОБИЛЯ

CALCULATION OF DAILY VEHICLE SERVICE AREA

Annotatsiya

Ushbu maqolada transport vositalariga kunlik xizmat ko’rsatish mintaqasining hisoblashning texnologik asoslari keltirilgan bo’lib bunda, avtomobilning tashqi ko’rinishini talab darajasida ta’minlashdan iborat bo’lib, tozalash, yuvish va artish (quritish) ishlaridan

iborat bo'ladi. Kunlik xizmatlar soni va ish hajmiga ko'ra, kunlik xizmat ko'rsatish maxsus postlarda yoki oqimli qatorlarda o'tkaziladi.

Аннотация

В данной статье представлена технологическая основа расчета площади суточного обслуживания транспортных средств, которая заключается в обеспечении внешнего вида автомобиля на требуемом уровне, и состоит из работ по очистке, мойке и протирке (сушке). В зависимости от количества ежедневных служб и объема работ ежедневные службы осуществляются на специальных постах или поточных линиях.

Annotation

This article presents the technological basis of calculation of the daily service area for vehicles, which consists in ensuring the appearance of the car at the required level, and consists of cleaning, washing and wiping (drying) works. Depending on the number of daily services and the volume of work, daily services are carried out at special posts or flow lines.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, texnologik jihozlash, texnik xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, texnologik jarayon, mexanizatsiyalashganlik darajasi, ishlar hajmi, texnologik loyihalash.

Ключевые слова: сервис, технологическое оборудование, техническое обслуживание, производство, технологический процесс, уровень механизации, объем работ, технологический проект.

Key words: service, technological equipment, technical service, production, technological process, level of mechanization, scope of work, technological design.

Yuvish ishlari iqlim sharoitiga qarab, zaruriyat bo'lganda, tozalash ishlari har kungi xizmatda bajariladi. Loyiha hisobi tozalash va yuvish ishlarining to'liq hajmi bo'yicha olib boriladi. Yuvish ishlari yuqori darajada mexanizatsiyalashgan, tozalash ishlari kam mexanizatsiyalashgan va yuvish ishlariga zaruriyat yo'q hollarda avtomobil tozalash postidan yuvish postiga o'tmasdan chiqib ketishini ta'minlash maqsadida tozalash va yuvish postlari soni ayrim-ayrim hisoblanadi.

- Kunlik tozalash ishlari hajmi:

$$T_{kxk}^T = T_{kxk} \cdot d_T, \quad \text{ishchi-soat} \quad (1)$$

bu yerda: d_T – tozalash-yig'ishtirish ishlarining kunlik xizmat ko'rsatish_(KXK) ishlaridagi ulushi, %da (1-jadvaldagi qiymatlar asosida tanlab olinadi).

KXKning uzluksiz oqimli qatorini hisoblash.

Oqimli qatorning ishlab chiqarish sur'ati:

$$R_{kxk} = \frac{60 \cdot a_{kxk} \cdot m_{kxk}}{N_{kxk}}, \quad \text{minut} \quad (2)$$

Avtomobillar yo'ldan qaytishining bir maromda bo'lmashligini hisobga olib, texnologik loyihalash umumittifoq me'yorlarida (TLUM -01-91) ishlab chiqarish sur'atini quyidagicha aniqlash tavsiya qilinadi:

$$R_{kxk} = \frac{60 \cdot T_q}{0,7 \cdot N_{kxkk}}, \quad \text{minut} \quad (3)$$

bu yerda: T_q -avtomobilning yo'ldan qaytish cho'qqisi davomiyligi, soat.

Qator maromini aniqlash:

$$\tau_{kxk} = \frac{(L_a + u)}{V_k}, \quad \text{minut} \quad (4)$$

bu yerda: L_a - avtomobil uzunligi, m; u - avtomobillar oralig'i, $u=1,2...2$ m;

V_k - konveyer tezligi, m/min, konveyer tezligi $V_k=2...4$ m/min .

Oqimli qatorlar soni:

$$n_{kxk} = \frac{\tau_{kxk}}{R_{kxk}} \approx n'_{kxk}, \quad (5)$$

n'_{kxk} - butun songa yahlitlanib olinadi, ($\pm 0,1$).

Agar farqi katta bo'lsa, V_k qiymatini o'zgartirib qabul qilish hisobiga τ_{kxk} qiymati qayta hisoblanadi.[4]

Oqimli qatorning o'tkazuvchanlik qobiliyati:

$$A_{kxk} = \frac{60}{\tau_{kxk}}, \quad (6)$$

A_{kxk} - qiymatiga qarab yuvish qurilmasining turi va rusumi tanlab olinadi.

Oqimli qator uzunligi:

$$L_o = (L_a + u) \cdot X_{kxk} - u, \quad m, \quad (7)$$

bu yerda: X_{kxk} - qatordagi postlar soni.

Kundalik hizmat ko'rsatish mintaqasining umumiy uzunligi:

$$L_m = (L_o + 2 \cdot C), \quad m, \quad (8)$$

bu yerda: C - avtomobil va darvoza orasidagi masofa, $C=1,5...2,0$ m;

1-Texnik xizmat ko'rsatish va 2-texnik xizmat ko'rsatish mintaqalarini hisoblash

Vazifasi-detallarning yeyilish jadalligini kamaytirish uchun profilaktika ishlari o'tkazish. Bajariladigan ishlar: tozalash, yuvish, diagnostika, qotirish, sozlash, moylash, elektrtexnika, ta'minot tizimi, shina ishlari.

Postlar sonini hisoblash va TXK usulini tanlash.[5]

Kunda ishlaydigan ishchilar soni:

$$P_{ik} = \frac{T_{ik}}{m_i \cdot a_i}, \quad (9)$$

Postlar soni quyidagicha aniqlanadi, agar $X_{ip} \geq 2$ bo'lsa, TXK oqimli qatorda o'tkazilishi mumkin:

$$X_{ip} = \frac{T_{ik}}{m_i \cdot a_i \cdot P_{o'r} \cdot K_\phi}, \quad (10)$$

bu yerda: $P_{o'r}$ - har bir postdagi o'rtacha ishchilar soni;

K_{ϕ} - ish joyidan foydalanish koeffitsienti.

1-jadval

Bitta postda bir vaqtda ishlovchilarning o'rtacha soni - $P_{o'r}$ (TLUM-01-91)

Postlardagi ish turlari	Yengil avtomobillar	Avtobuslar					Yuk avtomobillari, yuk ko'tarish bo'yicha, t				Tirkama va yarim tirkamalar
		Juda kichik turkumli	Kichik turkumli	O'rtacha turkumli	Katta turkumli	Juda katta turkumli	1,0 gacha	1 ... 5	5 ... 8	8 dan yuqorisi	
KXK: yig'ishtirish	2	1	2	2	2	3	1	2	2	2	1
yuvish	1	1	1,0	1	1	1	1	1	1	1	1
yonilg'i quyish	1	1	1,0	1	1	1	1	1	1	1	-
nazorat-diagnostika, ta'mirlash	1	1	1,5	1,5	2	2	1	1,5	1,5	2	1
JT: ajratish-yig'ish va sozlash	1	1	1	1,5	1,5	1,5	1	1	1,5	1,5	1
payvandlash-tunukasozlik	1	1	1,5	1,5	2	2	1	1,5	1,5	1,5	1
bo'yoqchilik	1,5	1,5	2	2	2,5	2,5	1,5	2	2	2	1
duradgorlik	-	-	-	-	-	-	1	1	1	1,5	1
D-1, D-2	1	1	2	2	2	2	1	2	2	2	1
1-TXK	2	2	2	2	2,5	3	2	2	2,5	3	1
2-TXK	2	2	2	2,5	3	3	2	2	2,5	3	1

1-TXK va 2-TXK oqimli qatorini hisoblash. 1-TXK va 2-TXK uchun uzlukli, to'xtab-to'xtab ishlaydigan oqimli qator qo'llaniladi va TXK jarayoni avtomobil joyida to'xtab turganda bajariladi. Bitta guruh avtomobillariga texnik xizmat ko'rsatilsa, o'zgarmas maromga ega bo'lgan oqimli qator qo'llaniladi.[1]

Ishlab chiqarish sur'atini aniqlash:

$$R_i = \frac{60 \cdot a_i \cdot m_i}{N_{ik}}, \quad \text{minut} \quad (11)$$

Oqimli qator maromi

$$\tau_i = \frac{t_i^j \cdot 60}{X_{in} \cdot P_{io'r}} + \frac{L_a + u}{V_k}, \quad \text{minut} \quad (12)$$

bu yerda:

d_{i-Tsh} - TXK dagi diagnostika ishlarining ulushi;

V_k -konveyer tezligi $V_k = 8 \dots 10$ m/min .

Oqimli qatorlar soni:

$$n_i = \frac{\tau_i}{R_i} = n'_i, \quad (13)$$

n'_i - yaxlitlanadi ($\pm 0,1$). Agar bu shart bajarilmasa, X_{ip} yoki $P_{io'r}$ qiymatlari qayta ko'rib chiqiladi.

Shuning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$n_i = \frac{P_i}{X_{in} \cdot P_{io'r}} = n', \quad (14)$$

bu yerda: X_{ip} – oqimli qatordagi postlar soni;

$P_{io'r}$ - postdagi o'rtacha ishchilar soni.

i turdagi TXK mintaqasining uzunligi:

$$L_{im} = (L_{ia} + u) \cdot X_i - u + 2 \cdot C, \quad m, \quad (15)$$

1-TXK, 2-TXK mintaqalari uchun jihozlar “Texnologik jihozlar ro'yxati” va eng yangi manbalardan tanlab olinadi. Mavsumiy xizmat ishlari, asosan, 2-TXK mintaqasida amalga oshiriladi.

Diagnostika mintaqasini hisoblash. Vazifasi - TXK va JT texnologik jarayonida avtomobillarni diagnostikani ta'minlashdan iborat. Bajariladigan ishlar tavsifiga ko'ra ikki ga bo'linadi. Diagnostika-1 (D-1) - avtomobillarning harakat xavfsizligini ta'minlovchi uzal va mexanizmlarni diagnostikalash, Diagnostika-2 (D-2) - avtomobilni barcha elementlari bo'yicha chuqur diagnostikalashdir.[3]

Diagnostika mintaqasining hisobi. Diagnostika ishlarini quyidagicha o'tkazish tavsiya qilinadi:

- 50 tagacha avtomobili bo'lgan ATKlarda - ko'chma asbob yordamida, TXK va JT postlarida;

- 200 tagacha avtomobili bo'lgan ATKlarda Diagnostika-1, Diagnostika-2 ishlari-universal postlarda;

- 200 dan ortiq avtomobili bo'lgan ATKlarda - ixtisoslashgan postlarda yoki oqimli qatorlarda.

Diagnostika postlarining soni:

$$X_{D-1} = \frac{T_{D-1y}}{F_{nD-1} \cdot m_{D-1} \cdot P_{o'r} \cdot K_{\varphi}}, \quad (16)$$

$$X_{D-2} = \frac{T_{D-2y}}{F_{nD-2} \cdot m_{D-2} \cdot P_{o'r} \cdot K_{\varphi}}, \quad (17)$$

bu yerda: T_{D-1y} , T_{D-2y} - 1 va 2-diagnostika ishlarining yillik hajmlari, i-s.

Agar diagnostika postlarining soni qiymati 0,5 dan kam bo'lsa, D-1ni 1-TXK oqimli qatoriga joylashtirishga ruhsat beriladi.

Diagnostika mintaqasi uchun jihozlar “Texnologik jihozlar ro‘yxati” va eng yangi manbalardan tanlab olinadi [2].

Darvoza-nazorat punktidagi postlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$X_{dnp} = \frac{A_i \cdot \alpha_i \cdot K_p}{T_q \cdot A_p} \quad (18)$$

Bu yerda: α_i - harakatdagi tarkibning texnik tayyorgarlik koeffitsenti;

K_p - harakatdagi tarkibning qaytish “cho‘qqisi”ni hisobga oluvchi koeffitsent, $K_p=0,70$; A_p - Darvoza nazorat punktining o‘tkazish qobiliyati.

Joriy ta‘mirlash mintaqasini hisoblash. Vazifasi - avtomobilning buzqlik va nosozliklarini tuzatish. Ish turlarini aniq hisobga olish qiyin bo‘lgani uchun, ish hajmi har 1000 kmgga nisbatan belgilanadi. Amalga oshiriladigan ishlar-diagnostika, qotirish, ajratish-yig‘ish, bo‘yash va boshqa ishlar.[4]

Joriy ta‘mirlash mintaqasining hisobi. ATKdagi barcha avtomobillarining yillik yurgan yo‘li quyidagicha aniqlanadi:

$$\sum L_y = A_i \cdot L_y, \quad km \quad (19)$$

Joriy ta‘mirlash mintaqasi postlarida bajariladigan yillik ish hajmi:

- jami:

$$T_{jty}^p = \frac{\sum L_{\bar{u}}}{1000} \cdot t_{jt}^x \cdot \frac{b}{100}, \quad \text{ishchi-soat} \quad (20)$$

- ajratish-yig‘ish, sozlash ishlari:

$$T_{jty}^{pa-ys} = \frac{\sum L_y}{1000} \cdot t_{jt}^x \cdot \frac{b^{a-ys}}{100}, \quad \text{ishchi-soat} \quad (21)$$

- payvandlash-tunukasozlik ishlari:

$$T_{jty}^{pp-t} = \frac{\sum L_y}{1000} \cdot t_{jt}^x \cdot \frac{b^{p-t}}{100}, \quad \text{ishchi-soat} \quad (22)$$

- bo‘yoqchilik ishlari:

$$T_{jty}^{pb} = \frac{\sum L_y}{1000} \cdot t_{jt}^x \cdot \frac{b^b}{100}, \quad \text{ishchi-soat} \quad (23)$$

bu yerda: b , b^{a-ys} , b^{p-t} , b^b - mos ravishda joriy ta‘mirlash ishchi postlaridagi jami, ajratish-yig‘ish, sozlash, payvandlash-tunukasozlik va bo‘yash ishlarining ulushi, % (1-jadval).

Joriy ta‘mir mintaqasidagi ishchi postlar soni:

$$X_{jt} = \frac{T_{jty}^p \cdot U}{D_{ym} \cdot m_{jt} \cdot a_{jt} \cdot P_{o'r} \cdot K_{\phi}}, \quad (24)$$

Agar almashinuvlarda ish notekis taqsimlangan bo‘lsa:

$$X_{jt} = \frac{T_{jty}^p \cdot U \cdot \gamma}{D_{ym} \cdot m_{jt} \cdot a_{jt} \cdot P_{o'r} \cdot K_{\phi}}, \quad (25)$$

bu yerda: U - avtomobillarning bir maromda kelmasligini hisobga oluvchi koeffitsent ($U=1,2...1,5$);

T_{jty}^p - postdagi joriy ta'mir yillik ish hajmi, ishchi-soat;

γ - eng ko'p yuklangan almashinuvda bajariladigan ishlarni hisobga oluvchi koeffitsent ($\gamma=0,6...0,75$);

K_ϕ - ish joyidan foydalanish koeffitsenti ($K_\phi=0,8...0,85$);

Joriy ta'mir postlarini bajariladigan ishlar turlariga qarab maxsuslashtirish ish unumini oshiradi, sifatini yaxshilaydi. Joriy ta'mir ishchi postlarini 2-jadvalda keltirilgandek maxsuslashtirish tavsiya etiladi.[5]

2-jadval

JT ning sozlash va ajratish-yig'ish postlarini maxsuslashishi bo'yicha taqsimoti (umumiy postlari sonidan foiz hisobida)

Postning predmetli maxsuslashishi	Avtomobillar	Tirkamalar tarkibi
Dvigatel	11...13	-
Dvigatel qismlari	4...6	-
Transmissiya	12...16	18...20
Elektr jihozlari va ta'minot tizimlari	7...9	8...10
Yurish qismi	9...11	17...21
G'ildiraklarni almashtirish	8...10	15...17
Tormoz	10...12	16...18
Rul boshqarmasi (old g'ildiraklar o'rnatish burchagini sozlash bilan birgalikda)	12...14	-
Kabina va kuzov	7...9	10...12
Umumlashgan postlari	9...11	8...10

Joriy ta'mir mintaqasi uchun jihozlar "Texnologik jihozlar ro'yxati" va eng yangi manbalardan ATKdagi avtomobillar turi va soniga qarab tanlab olinadi.

Joriy ta'mir mintaqasini rejalashtirishda andazaviy loyihalar tahlil qilinib, yuqoridagi hisoblarga mos keladiganlari tanlab olinadi, chizmasi chizilib, unda ishchi postlari, kutish postlari, ish joylari, texnologik jihozlar, ko'tarish-tashish mexanizmlari va boshqalar ko'rsatiladi.

Avtomobillarning joriy ta'mirlash mintaqasida oson harakatlanishini ta'minlash maqsadida avtopoezdlar, bukiladigan avtobuslar, uzun o'lchamli avtomobillar uchun boshi ochiq ishchi postlari, boshqalari uchun boshi berk ishchi postlari rejalashtirilgani maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Avtotransport vositalari servisi. Darslik. M.A.Ikramov, Q.M.Sidiqnazarov, A.A.Abduraxmonov va boshq. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. - 266 b.

2. Avtomobillarning texnik eksplutatsiyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Q.M.Sidiknazarov, E.A. Asatov, M.Z. Musajonov va boshq. TAYI professori Sidiknazarov Q.M tahriri ostida. - T.: Voris-nashriyot, 2008. - 560 b.

3. Avtomobillarning texnik eksplutatsiyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. (Kuznetsov E.S. tahriri ostidagi qayta ishlangan va to‘ldirilgan ruscha 4-nashrdan TAYI professori Sidiknazarov Q. M. tahriri ostida tarjima) - T.: Voris-nashriyot, 2006. - 630 b.

4. Jens Vorwerk. BMW service. Planning principles for the design of service workshops in the dealer organization. November 2014. 149 p.I

5. Ibraximov K. I. va b. Yonilg‘i quyish shahobchalarida texnik servis ko‘rsatish. O‘quv qo‘llanma. –T: “IQTISOD MOLIYA”, 2013. 200 b.

6. Sh.E.Islomov Avtotransport tarmog‘i korxonalarini loyihalash (O‘quv qo‘llanma) I qism. T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 274b.

7. Sh.E.Islomov Avtotransport tarmog‘i korxonalarini loyihalash (O‘quv qo‘llanma) II qism. T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 218b.

Asqarov Ixtiyor Baxtiyorovich

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi mudiri, dotsent

Jizzax politexnika instituti

Namozova Barno Behzod qizi

121-21 A va T yo‘nalishi talabasi

“Transport” fakulteti

Jizzax politexnika instituti

AVTOTRANSPORT VOSITALARIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISHDA KO‘TARISH-QARASH VA KO‘TARISH-TASHISH JIHOZLARI

ПОДЪЕМНОЕ И ПОДЪЕМНО-ТРАНСПОРТНОЕ ОБОРУДОВАНИЕ ПРИ ТЕХОБСЛУЖИВАНИИ АВТОТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ

LIFTING AND LIFTING-TRANSPORTATION EQUIPMENT IN TECHNICAL MAINTENANCE OF MOTOR TRANSPORT VEHICLES

Annotatsiya

Ushbu maqolada avtotransport korxonalarining texnologik jihozlar bilan harakatdagi tarkibini samarali foydalanish darajasi haqida so‘z boradi. Shuningdek, avtotransport korxonalarini yangi avtomobillarning parametrlariga moslashtirish, takomillashtirish, zamonaviy texnologik jarayonlarga qo‘llashda ishlab chiqarish texnika bazasini rivojlantirishning turli usullari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается уровень эффективного использования технологического оборудования автотранспортных предприятий. Также анализируются различные способы адаптации транспортных предприятий к параметрам новых

автомобилей, их совершенствования, развития технической базы производства в условиях применения современных технологических процессов.

Annotation

This article deals with the level of effective use of the rolling stock of transport enterprises with technological equipment. It also analyzes various ways to adapt the transport enterprises to the parameters of new cars, improve them, develop the technical base of production in the application of modern technological processes.

Kalit soʻzlar: *ekspluatatsiya, taʼmirlash, avtotransport korxonasi, qayta qurish, kengaytirish, texnologik jihozlash, texnik xizmat koʻrsatish, ishlab chiqarish, texnologik jarayon, mexanizatsiyalashganlik darajasi.*

Ключевые слова: *эксплуатация, ремонт, транспортное предприятие, реконструкция, расширение, технологическое оборудование, ремонт, производство, технологический процессуровень механизации.*


Keywords: *operation, repair, transport enterprise, reconstruction, expansion, technological equipment, maintenance, production, technological process, level of mechanization.*

Avtomobil transporti korxonalarining ishlab chiqarish texnika bazalari harakatdagi tarkibning ishlash qobiliyatini va uning kafolatli ishonchliligini taʼminlashga smenalar oraligʻida saqlash, kunlik xizmat koʻrsatish, texnik xizmat koʻrsatish va joriy taʼmirlash ishlarini bajarishga moʻljallangan. Avtomobil transporti korxonalarining ishlab chiqarish fondlaridan yanada samarali foydalanish masalasini hal etish uchun uning texnika bazasi elementlarining quvvati va katta-kichikligi haqida tushunchaga ega boʻlishi kerak. Avtomobil transporti korxonalarining va elementlarining katta-kichikligi asosan xizmat koʻrsatilayotgan avtomobillar soni bilan belgilanadi.

Koʻtarish-qarash va koʻtarish-tashish jihozlari ishlab chiqarish texnik bazasining asosiy elementlari boʻlib, avtomobillarga xizmat koʻrsatadigan korxonalarda oʻrtacha ish hajmining 80%i ushbu jihozlardan foydalangan holda bevosita avtomobilda amalga oshiriladi.

Koʻtarish-qarash va koʻtarish-tashish jihozlari qoʻllanishga koʻra **qarash chuquri, estokada, domkrat, koʻtargich, agʻdargich, kranlar, elektrotal, telferlar**, agreget va uzellarni echish oʻrnatish va tashish qurilmalari hamda konveyerlar kabi turlarga boʻliandi.

Qarash chuquri - eng koʻp tarqalgan (universal) qarash qurilmasi boʻlib, bir vaqtning oʻzida avtomobilda pastdan, yonboshdan va yuqoridan ish bajarilishiga imkon yaratadi. Avtomobilni, koʻrish chuquriga kirish va undan chiqishiga qarab, ular boshi berk yoki oʻtuvchi koʻrinishda boʻladilar. Boshi berk va boshi ochiq postlar hamda oqimli qatorlar koʻrish chuqurlari bilan jihozlanadi. Qarash chuqurlarining tuzilishi avtomobillarning turiga bogʻliq boʻlib, uzunligi avtomobil uzunligidan 0,5-0,8 m uzun, chuqurligi esa yengil avtomobillar uchun 1,4-1,5 m, yuk avtomobillar va avtobuslar uchun 1,2-1,3 m boʻladi (2-rasm).



1-rasm. Ko'tarish-qarash va ko'tarish-tashish jihozlari tasnifi.



2-rasm. Qarash chuquri. 1-himoya to'sig'i; 2-himoya gardishi; 3-tayanch; 4-zunapoya; 5-yoritish chiroqlari; 6-asbob-uskunalar uchun joy; 7-favqulodda chiqish joyi.

Eni avtobus va yuk avtomobillari uchun 0,9-1,1 m, yengil avtomobillar uchun 0,8 m bo‘ladi. Qarash chuqurlari, ularda bajariladigan ish turiga qarab ko‘targichlar, harakatlanuvchi voronkalar, moy quyish qurilmalari bilan jihozlanadi [2].

Estakadalar -temir betondan, metal konstruksiyalardan yoki yo‘gochdan balandligi 0,7-1,4 m qilib ishlangan bo‘lib, 20-25% qiyalikdagi chiqish va tushish rampalari bo‘lgan ko‘priklardan iborat bo‘ladi. Ular boshi berk va boshi ochiq, hamda qo‘zg‘almas va qo‘z‘galuvchan bo‘lishi va qo‘shimch domkratlar bilan jihozlanishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. Avtomobillar uchun estokada

Avtomobilning tag qismida xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun qulaylik yaratish maqsadida alohida ishlaydigan gidravlik domkratlar bilan jihozlangan.

Garaj domkratleri – yer ustidagi maydonchalarda, hamda jihozlanmagan qarash chuqurlarida ish bajarilganda, avtomobilning oldingi yoki orqa qismini ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Garaj domkratleri harakatlanuvchi yuk ko‘tarish mexanizmlari bo‘lib, ular ko‘tarish moslamasi va kuch hosil qiluvchi qismdan iborat bo‘ladi. Ular avtomobillarning oldingi yoki orqa qismidan osish uchun xizmat qiladi. Ko‘tarish mexanizmining turi bo‘yicha mexanik, gidravlik va pnevmatik bo‘lishi mumkin [1].

Gidravlik domkratlar. Barcha gidravlik domkratlarda bir xil “nasos-silindr” sxemasi asosida ishlaydigan gidravlik mexanizm mavjud (4-rasm).



4-rasm. Nordberg N3108 markali silindrsimon gidravlik domkrat. 8 t gacha yukka, avtomobilning tag qismidan ko‘tarishga mo‘ljallagan universal domkrat. Minimal balandligi 230 mm, ishchi holatdagi balandligi 377 mm. Og‘irligi 5,6 kg, Gabarit o‘lchamlari 120x240x130 mm.

Bu turdagi silindrsimon gidravlik domkratlar 2 tonnadan 50 tonnagacha yuk ko‘tarishga, minimal balandligi 148 mm, ishchi holatda 510 mm, og‘irligi 2 kgdan 70 kkgacha bo‘lishi mumkin (5-rasm).




5-rasm. GAR00801 markali gidravlik domkrat. Yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonna. Minimal balandligi 150 mm, ishchi holatdagi balandligi 510 mm. Og'irligi 37 kg, Gabarit o'lchamlari 740x380x205 mm.



6-rasm. Sivik B-690 markali pnevmatik domkrat. Yuk ko'tarish qobiliyati 1...2,5 tonna, minimal balandligi 140 mm, ishchi holatdagi maksimal balandligi 365 mm, og'irligi 12 kg, gabarit o'lchami 463x315x140 mm [7].

Ko'targich va ag'dargichlar. O'rnatilishi bo'yicha ko'targichlar qo'zg'almas va harakatlanuvchan, ko'tarish mexanizmi bo'yicha mexanik, gidravlik va pnevmatik, ishga tushirilishi bo'yicha qo'l bilan boshqariluvchi va elektrotexnik, joylashishi bo'yicha pol ustida va ko'rish ariqchasida bo'lishi mumkin. Ko'targichlarning bitta, ikkita, uchta va to'rtta ustunligi va avtomobillarni qiyalatuvchi turlari bo'lishi mumkin. Ko'targichdagi tayanch ramaning tuzilishi bo'yicha koleyali, koleyalararo va ko'ndalang ramali hamda tayanch traversali turlarga bo'linadi. Avtotransport korxonalarida elektromexanik va gidravlik ko'targichlar keng qo'llaniladi (7-rasm).



7-rasm. Avtotransport korxonalarida qo'llaniladigan ko'targichlarning tasnifi.

Ikki ustunli ko'targichlarda avtomobil kuzov tayanchlari orqali ko'tarilganligi sababli, uning yurish qismi, rul mexanizmi va tormoz tizimiga xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash imkoniyati tu'giladi (8-rasm).

8-rasm. Sivik PGA-5000 markali ikki ustunli elektromexanik ko'targich. Og'irligi 5 tonnagacha bo'lgan avtomobillarni ko'tarish va tutib turishga mo'ljallangan, ko'tarish balandligi 1750 mm ni, qanotlarining kengligi 930...1900 mm ni tashkil qiladi, ko'tarish vaqti 45-60 s tashkil qiladi. Og'irligi 700 kg, gabarit o'lchamlari 430x3737x4447 mm [1].

Qaychisimon ustunli ko'targichlar universal ko'targichlar turiga mansub bo'lib, bunda avtomobilarning yurish qismini, rul mexanizmi, tormoz tizimini, shinalarni va kuzovni ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, g'ildiraklarining o'rnatilish burchagini rostlash, lyuft-detektor yordamida osmalarni diagnostikalash, zarur hollarda avtomobilni ma'lum burchak ostida yon tomonga qiyalatish imkonini beradi (9-rasm).




9-rasm. Sivik PGN-8350 markali qaychisimon ustunli elektrogidravlik ko'targich.

Og'irligi 4,0 tonnagacha bo'lgan avtomobillarni ko'tarish va tutib turishga mo'ljallangan, ko'tarish balandligi 2160 mm, ko'tarish vaqti 70 sekund. Og'irligi 2790 kg, turg'un holatdagi gabarit o'lchamlari 5000x2200x430 mm.

Kranlar. Agregat va boshqa yuklarni ko'tarish, tashishda qo'z'galuvchan kran, yuk arvasi, qo'lda ko'tarish tallaridan hamda bir to'sinli (monorels) yo'lda xarakatlanuvchi, elektrotelfer va to'sinli kranlardan foydalaniladi. Avtomobillarni bir joydan, ikkinchi joyiga ko'chirishda garaj konveyerlari ishlatiladi [5].

Qo'zg'aluvchan kran – yengil avtomobillarning dvigateli va uzatmalar qutisini yechib olish va o'rnatishda hamda yuklarni ko'tarish va ularni uzoq bo'lmagan masofaga tashishga xizmat qiladi (10-rasm).



10-rasm. OMA-586G markali yig‘ma gidravlik kran (Italiya).

(ОЭГТВС) //Современные материалы, техника и технологии в машиностроении». III Международная научно-практическая конференция. – 2016. – С. 15-19.

6. Kholmatov U. THE POSSIBILITY OF APPLYING THE THEORY OF ADAPTIVE IDENTIFICATION TO AUTOMATE MULTI-CONNECTED OBJECTS //The American Journal of Engineering and Technology. – 2022. – Т. 4. – №. 03. – С. 31-38.

7. Холматов У. С. ИССЛЕДОВАНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ВОЛОКОННО-ОПТИЧЕСКОГО ДАТЧИКА ПРИ ПРОДОЛЬНОМ И ПОПЕРЕЧНОМ ПЕРЕМЕЩЕНИЯХ //НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МАШИНОСТРОЕНИЕ. – 2022. – №. 1. – С. 78-85.

8. Kholmatov U. OPTIMIZATION OF MATHEMATICAL MODEL OF OPTOELECTRONIC DISCRETE DISPLACEMENT CONVERTER //SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL MACHINE BUILDING. – 2022. – №. 2. – С. 74-82.

9. Kholmatov U. DETERMINATION OF THE MAIN CHARACTERISTICS OF OPTOELECTRONIC DISCRETE DISPLACEMENT TRANSDUCERS WITH HOLLOW AND FIBER FIBER //SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL MACHINE BUILDING. – 2022. – №. 4. – С. 160-168.

10. Холматов У. С. Определение основных и статические характеристики оптоэлектронных дискретных преобразователей перемещений с полыми и волоконными световодами //НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МАШИНОСТРОЕНИЕ. – 2022. – №. 5. – С. 711-719.

11. Холматов У. С. Определение основных теории адаптивной идентификации для автоматизации многосвязных объектов //Namangan muhandislik texnologiya instituti ILMIY-TEXNIKA JURNALI. – 2022. – №. 1/7. – С. 544-550.

12. Kholmatov U. Intelligent discrete systems for monitoring and control of the parameters of technological processes on the basis of fiber and hollow fiber //Monograph, Andijan. – 2022. – С. 1-132.

13. Шипулин Ю. Г., Холматов У. С. Интеллектуальные дискретные системы для контроля и управления параметрами технологических процессов на основе волоконных и полых световодов //Монография, Андижан. – 2018. – С. 1-140.

14. Холматов У. С. Анализ шумовых факторов в волоконных и полых оптических датчиках информационно-измерительных систем //Международной научно-практической конференции на тему “Технология новых материалов: перспективы развития полимерных композиционных материалов, применяемых в машиностроении”. Андижан. – 2022. – С. 197-201.

15. Zhumaev O. A. et al. PROBLEMS OF OPTOELECTRONIC TRANSDUCERS FOR GAS-MEASURING INSTALLATIONS DESIGN AND DEVELOPMENT //Вестник. – С. 113.

16. Shipulin Yu. G., Holmatov U. S., Abdullayev T. A. Intelligent multifunctional fiber optic liquid level sensor //Journal of Korea multimedia society, PROCEEDINGS, Ninth world conference on intelligent systems for industrial automation, South Korea, Seoul, Uzbekistan, Tashkent. – 2016. – №. 5. – С. 105-109.

Muqimova Davlatxon Karimovna

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Andijon mashinasozlik instituti

e-mail: davl.kosi@mail.ru.

Nurdinov Murodali Alijonovich

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrası dotsenti

Andijon mashinasozlik instituti

e-mail: dariyod@mail.ru.

ANDIJON VILOYATIDA SODIR BO‘LGAN YO‘L-TRANSPORT HODISALARI TAHLILI VA UNING HARAKATI XAVFSIZLIGIDAGI O‘RNI

АНАЛИЗ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ РОЛЬ В БЕЗОПАСНОСТИ ДВИЖЕНИЯ

ANALYSIS OF ROAD ACCIDENTS IN ANDIJAN REGION AND THEIR ROLE IN TRAFFIC SAFETY

Аннотация

Avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati xavfsizligini oshirishning ikki yo‘nalishi ko‘rib chiqildi. Birinchi yo‘nalish avtohalokat sabablarini tahlil qilish va yo‘l harakati xavfsizligi auditini takomillashtirishdan iborat. Ikkinchi yo‘nalish, ulanish sifati va tekisligi bo‘yicha qatnov qismining yuzasiga yuqori talablarni qo‘yishdan iborat.

Аннотация

Были рассмотрены два направления повышения безопасности дорожного движения на автомобильных дорогах. Первое направление-анализ причин аварий и совершенствование аудита безопасности дорожного движения. Второе направление заключается в предъявляемых к поверхности проезжей части высоких требованиях к качеству и ровности соединения.

Annotation

Two directions of improving road safety on highways were considered. The first direction is the analysis of the causes of accidents and the improvement of the road safety audit. The second direction lies in the high requirements imposed on the surface of the roadway for the quality and evenness of the connection.

Kalit so‘zlar: tahlil, baxtsiz hodisa sabablari, audit, kamchiliklar, tekislik, qatnov qismi.

Ключевые слова: анализ, причины аварий, аудит, недостатки, плоскостность, коммунитирующая часть.

Keywords: analysis, accident causes, audit, deficiencies, flatness, commuting part.

Kirish

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash muammosi dunyoning barcha mamlakatlarida yo‘l-transport hodisalarida (baxtsiz hodisalar) qurbonlar va moddiy yo‘qotishlar tufayli katta e‘tiborni tortmoqda. Avtomobil tashish hajmining o‘sishi, tezlik va transport intensivligining

oshishi yo‘llarni, ularning muhandislik uskunalarini va loyihalash va ishlatish paytida transportning ishlash xususiyatlarini yaxshilashni talab qiladi. Yilning barcha davrlarida teng harakatlanish sharoitlarini yaratish zarurati paydo bo‘ldi. Katta miqdordagi odamlar va juda ko‘p sonli transport vositalari ishtirok etadigan yuqori transport intensivligi bilan ajralib turadigan sharoitda baxtsiz hodisalarning oldini olish va ularning oqibatlarining og‘irligini kamaytirish bo‘yicha tadbirlar ko‘p qirrali va xilma-xildir. Yo‘l harakati xavfsizligi muammosining ijtimoiy ahamiyati, birinchi navbatda, jamiyatga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazadigan inson yo‘qotishlarini maksimal darajada cheklashdir. Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash muammosini hal qilish ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida quyidagilar muhimdir: birinchidan, ta‘mirlash xizmati tomonidan yo‘lning transport-ekspluatatsiya xususiyatlarini (tekisligi, mustahkamligi, qoplamali shinaning yopishish koeffitsiyenti) harakat qilish sharti bilan talab qilinadigan texnik xizmat ko‘rsatish va saqlash, ikkinchidan, baxtsiz hodisa sabablarini hisobga olish va tahlil qilish statistikasini takomillashtirish.

Hozirda asosiy muammo transport xavfsizligi va birinchi navbatda yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishdir. Yo‘l harakati xavfsizligini oshirish sohasida yo‘l-transport hodisalarida halok bo‘lganlar sonini kamaytirish vazifasi qo‘yilgan. Shaharlarda metro liniyalari, tramvay, trolleybus, velosiped yo‘llari kabi muqobil avtomobil transportidan foydalanish taklif etiladi. Statistika ko‘ra, transport kompleksi tarkibiy qismlarining ta‘siri ma‘lum: haydovchi–avtomobil–yo‘l baxtsiz hodisalar sonining paydo bo‘lishi turli xil [1]. Inson omilining aybi bilan avtohalokatning 51,9%, yo‘llarning qoniqarsiz holati tufayli 48,1%, haydovchilarning tajribasi bo‘yicha ko‘rib chiqsak 20 yildan yuqori tajribaga ega professional haydovchilarning aybi bilan 15,4% sodir bo‘lganligi aniqlandi, qolgan qismini 20 yildan kam tajribaga ega haydovchilar sodir etgan. Ishda [2] baxtsiz hodisalarni tahlil qilish asosida ularning katta qismi tashuvchilarning malakasining past darajasi, mehnat va transport qonunchiligini bilmaslik, korxonada ishini tashkil etish va mehnatni muhofaza qilish talablarini bilmaslik orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Yo‘l-transport hodisalarida halok bo‘lganlar soni, jarohat olganlar soni 10 ming ta avtomobilga, 100 ming aholiga nisbatan qiyosiy tahlil o‘tkazildi. (1-jadval).

2022 yildagi yo‘l – transport hodisalari ahvoli

1-jadval

Ko‘rsatkichlar	Jami YTH	Har 100 ming aholiga	Har 10 ming transport vositasiga
O‘lim bilan bog‘liq holat	2086 ta (-111 ta yoki -5,1%)	5,8 ta	5 ta
Jarohat bilan bog‘liq holat	7816 ta (+12 ta yoki +0,2%)	20,7 ta	24,4 ta
Jami YTH	9902 ta (-99 ta yoki -1%)	27,5 ta	23,7 ta

Bunday tahlilni rivojlangan mamlakatlarga nisbatan solishtirib bo‘lmaydi chunki rivojlangan mamlakatlarda yo‘l tarmog‘i transport sifati ko‘rsatkichlaridan ancha yuqori. Agar baxtsiz hodisalar soni tashilgan yukning og‘irligi, tashilgan yo‘lovchilar soni, avtoulav

darajasi, 100 ming aholiga to'g'ri keladigan qurbonlar soniga bog'liq bo'lsa, bu yanada ob'yektiv bo'ladi.















Yo'l-transport hodisalari orasida yo'l-transport hodisalarining eng ko'p uchraydigan sabablari sirpanchiq va tekislikning yetarli emasligidir [3]. Undan tashqari sub'yektiv sabablari ham bor [2] (2-jadval).

Bundan tashqari, yo'lning toifasi qanchalik baland bo'lsa, harakat tezligi shunchalik yuqori bo'ladi va ko'pincha bu sabablar paydo bo'ladi. Yo'l sharoitlarining roli to'g'risida to'liqroq ma'lumot avtohalokat sabablarini tahlil qilib, yo'llarni maxsus o'rganish orqali beriladi.

Avtomobil yo'llarini qurish va ulardan foydalanish jarayonida eng ilg'or texnologiyalar va zamonaviy yo'l mashinalari va materiallaridan foydalanish zamonaviy me'yoriy hujjatlarda belgilanganidan yuqori bo'lgan bog'lanish va tekislik bo'yicha transport va ekspluatatsion sifatlarni olish imkonini beradi [4,5].

Respublika hududida 2022 yil 12 oy davomida sodir etilgan yo'l-transport hodisalarini ob'yektiv va sub'yektiv sabablari bo'yicha tahlili

2-jadval.

Kelib chiqish sabablari			
Ob'yektiv sabablar 4759 (48,1%)		Sub'yektiv sabablar 5143 (51,9%)	
Piyodalar o'tish joyi tashkil etilmaganligi	1 017 (10,3%) 	Belgilangan tezlikka rioya qilmaslik	1 577 (15,8%) 
Yo'lni ikkiga ajratuvchi to'siqlar o'rnatilmaganligi	1 302 (13,1%) 	Svetofor yoki yo'l belgisiga rioya qilmaslik	845 (8,5%) 
Piyodalar harakatini cheklovchi to'siq panjaralar o'rnatilmaganligi	1154 (11,6%) 	Haydovchining tajribasizligi	1046 (10,6%) 
Svetofor yoki yo'l belgisi o'rnatilmaganligi	214 (2,2%) 	Uhlab qolish, charchoq	343 (3,5%) 
Veloyo'laklar yo'lakchasi tashkil etilmaganligi	342 (3,5%) 	Transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lmasdan boshqarish	493 (5%) 
Yo'l qoplamasi nosozligi	408 (4,1%) 	Mast holda boshqarish	299 (3%) 
Boshqa ob'yektiv sabablar	322 (3,3%) 	Boshqa sub'yektiv sabablar	540 (5,5%) 

Muhokama va natijalar

Ishning maqsadi avtohalokat sabablarini tahlil qilishni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va ulanish sifati va tekisligi bo'yicha qatnov qismining yuzasiga qo'yiladigan talablar. Ishlab chiqilgan taklif va talablarni joriy etish yo'l harakati xavfsizligini oshiradi.

Har kuni yer sayyorasining yo'llarida 140 ming kishi avtohalokat qurboniga aylanadi, shundan 3 mingdan ortig'i halok bo'ladi va 15 mingga yaqini umr bo'yi nogiron bo'lib qoladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo yo'llarida 1,2 milliondan ortiq odam halok bo'ladi va 50 millionga yaqin odam jiddiy zarar ko'radi. Global iqtisodiy yo'qotishlar yiliga 518 milliard dollarni tashkil etadi. Uzbekistonda 2020 yilda avtohalokatda 1962 kishi halok bo'lgan va 6591 kishi jarohat olgan, 2021 yilda esa jami 10001 ta yo'l-transport hodisasidan 2426 kishi halok bo'lgan. Xuddi shu 2021 yilda Andijon viloyatida 848 ta yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan. Binobarin, 2022 yil 100 ming aholiga to'g'ri keladigan qurbonlar soni 5,8 kishini tashkil etadi.

Andijon viloyatini tumanlar kesimida ko'rib chiqamiz (3-jadval.) Andijon shahrida qatnov ko'p bo'lganligi sababli yo'l-transport hodisasi ham ko'p kuzatilgan. Ammo achinarlisi 2021 yilda ham 2022 yilda ham o'lim bilan bog'liq hodisalar soni o'zgarmagan. Buni kamaytirish yo'llarini aniqrog'i o'lim holati bo'lmasligiga erishishimiz kerak, ya'ni chora-tadbirlarini ishlab chiqishimiz darkor.

ANDIJON VILOYATI HUDUDIDA QAYD ETILGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARI BO'YICHA MA'LUMOT

(2022-yil 10 oy)

3-jadval


Hudud	Umumiy				O'lim bilan bog'liq (266 m. 2-3 k.)				Tan jarohati bilan bog'liq (266 m. 1 k.)			
	2021	2022	+, -	%	2021	2022	+, -	%	2021	2022	+, -	%
Andijon sh.	152	139	- 13	8,00	14	14	0	0,0	138	125	- 13	-9,4
Andijon t.	71	57	- 14	- 19,7	15	15	0	0,0	56	42	- 14	-25,0
Oltinko'l	44	48	4	9,09	10	9	-1	-10,0	34	39	5	14,7
Ulug'nor	16	11	-5	- 31,2	1	3	2	200,0	15	8	-7	-46,7
Baliqchi	47	42	-5	- 10,6	16	12	-4	-25,0	31	30	-1	-3,2
Izboskan	45	42	-3	-6,7	9	11	2	22,2	36	31	-5	-13,9
Paxtaobod	32	42	10	31,2	5	5	0	0,0	27	37	10	37,0
Asaka	55	64	9	16,4	10	10	0	0,0	45	54	9	20,0
Bo'ston	15	20	5	33,3	7	6	-1	-14,3	8	14	6	75,0
Marxamat	25	31	6	24,0	5	6	1	20,0	20	25	5	25,0

Shaxrixon	48	66	18	37,5	10	9	-1	-10,0	38	57	19	50,0
Xonobod sh.	9	6	-3	- 33,3	0	0	0	100,0	9	6	-3	-33,3
Jalolquduq	30	27	-3	- 10,0	8	5	-3	-37,5	22	22	0	0,0
Qo'rg'ontepa	29	19	- 10	- 34,5	4	5	1	25,0	25	14	- 11	-44,0
Xo'jaobod	27	41	14	51,8	12	11	-1	-8,3	15	30	15	100,0
Buloqboshi	23	16	-7	- 30,4	2	2	0	0,0	21	14	-7	-33,3
1-safarbar guruh	223	196	- 27	- 12,1	29	29	0	0	194	167	- 27	-13,9
2-safarbar guruh	121	132	11	9,1	24	25	1	4,2	97	107	10	10,3
3-safarbar guruh	128	161	33	25,8	25	25	0	0	103	136	33	32,0
4-safarbar guruh	78	73	-5	-6,4	24	21	-3	12,5	54	52	-2	3,7
5-safarbar guruh	18	109	-9	-7,6	26	23	-3	-11,5	92	86	-6	-6,5
Jami:	668	671	3	0,4	128	123	-5	-3,9	540	548	8	1,4

Konsepsiya qoidalariga muvofiq yo'l tarmog'ining rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga mos kelishi va avtoulavlarning o'sishiga muvofiq transport ehtiyojlarini ta'minlashi kerak. Ma'lumki, professional haydovchilar avtohalokatni 5-6 baravar kamroq sodir etishadi.

Yo'l transport hodisalarini turlari bo'yicha 2022 yilgi statistikasi olsak ko'proq piyodani urib yuborish (45%) va avtomobillar to'qnashuvi (31%) ga to'g'ri kelmoqda. Ularning tahlili 1-grafikda keltirilgan. 2022 yil jami 9902 ta yo'l-transport hodisasi ro'y bergan.

Hozirda buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Avstraliya, AQSH, Kanada, Daniya, yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarda yo'l harakati xavfsizligi auditi muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda [6]. Yo'lning yopishqoqligi va tekisligiga bo'lgan talablarni oshirish yo'l yuzasi xavfsizlik, tejamkorlik, qulaylik, barqarorlik, tezlik va uzluksizlikni belgilaydigan avtomobil yo'lining asosiy tarkibiy elementlaridan biri sifatida qaraladi. Avtomobil g'ildiragi shinasining yo'l qoplamasi bilan yaxshi ushlanishi xavfsiz haydash uchun asosiy shartdir. Debriyaj avtomobilning ishlashiga ham, tormoz masofasiga ham ta'sir qiladi. Agar tortish koeffitsiyenti pasaysa, masalan, 0,5 dan 0,3 gacha, u holda 80 km/soat tezlikda harakatlanadigan avtomobilning tormoz masofasi 73 dan 106 m gacha ko'tariladi.



1-grafik. Turlari bo'yicha tahlili

Shu bilan birga, haydovchining reaksiya vaqti doimiy va 1 soniyani tashkil qiladi deb taxmin qilinadi. Yo'l qoplamasining bog'lanish xususiyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarlicha yuqori ushlab turishni ta'minlashi kerak. Ma'lumki, yopishish koeffitsientini normalizatsiya qilish qoplamaning namlangan yuzasidagi harakat sharoitlariga qarab amalga oshiriladi, ular yengil harakat sharoitlariga, qiyin harakat sharoitlariga va xavfli sharoitlariga bo'linadi [4]. Yopishish koeffitsientining minimal qiymati yengil harakat sharoitlari uchun 0,3, qiyin sharoitlar uchun – 0,35, xavfli sharoitlar uchun – 0,45.

Xulosa

Avtomobil yo'llarida yo'l harakati xavfsizligini oshirish muammosini hal qilish uchun fan va texnikaning turli sohalaridagi ko'plab mutaxassislarni jalb qilgan holda kompleks yondashuv zarur va tizimli yondashuv asosida ko'proq tadqiqot ishlarini talab qiladi. Shu bilan birga, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha muammoni hal qilish muhimdir: mahalliy sharoitga nisbatan baxtsiz hodisa sabablarini tahlil qilishni takomillashtirish; yo'l harakati xavfsizligi texnik auditini amaliy qo'llash; haydovchilarning malakasi, javobgarligi va intizomini oshirish; qatnov qismining yuzasiga qo'yiladigan me'yoriy talablarni ulanish sifati va ularni oshirish yo'nalishi bo'yicha tengligi bo'yicha qayta ko'rib chiqish ishlarini olib boorish kerak.

Adabiyotlar

1. Кельмен И.И., Вильховський Э.К., Рахубовський Н.К.. Шляхи адаптации суспільства до темпів пришвидшеної автомобілізації населення України // Автошляховик України. – № 4. – 2005. – С. 10 – 14.
2. [https://yhxx.uz/oz/statistics/2022-yil-davomida-respublikamiz-yo'llarida sodir bo'lgan yo'l transport hodisalari bo'yicha tahlil.](https://yhxx.uz/oz/statistics/2022-yil-davomida-respublikamiz-yo'llarida-sodir-bo'lgan-yo'l-transport-hodisalari-bo'yicha-tahlil)
3. Васильев В.П. Состояние дорог и безопасность движения автомобилей в сложных погодных условиях. – М.: Транспорт, 1976. – 229 с.

4. ДСТУ 3587-97 Автомобильные дороги, улицы и железнодорожные переезды. Требования к эксплуатационному состоянию. – К., 1997. – 20 с.
5. ДБН.2.3-4:2007. – К., 2007. – 95 с.
6. Броннельте И. Опыт подготовки аудиторов // Наука и техника в дорожной отрасли. – № 1. – 2007. – С. 3 – 6.

Abdurazzoqov U.A, t.f.f.d (PhD) dotsent,
Toshkent davlat transport universiteti,
e-mail: abdurazzoqovumid@gmail.com
Tel:+998903154183

Toshkent
O'taganov S.Q, tayanch doktorant,
Toshkent davlat transport universiteti,
e-mail: sarvar.uta@inbox.ru
Tel:+998946159612
Toshkent

SHAHAR JAMOAT TRANSPORTINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA YO'LOVCHILARNING KUTISH VAQTINING TA'SIRI TAHLILI

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ВРЕМЕНИ ОЖИДАНИЯ ПАССАЖИРОВ НА ЭФФЕКТИВНУЮ ОРГАНИЗАЦИЯ ГОРОДСКОГО ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА

ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF PASSENGER WAITING TIME IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF CITY PUBLIC TRANSPORT

Anotatsiya

Ushbu maqolada jamoat transportidan foydalanuvchi yo'lovchilarning avtobuslardaharakatlanish va kutish vaqtini xisoblash uslublari tahlil qilingan. Avtobus harakat jadvaliga to'liq amal qilgan holda harakatlanganda va harakat jadvalidan ma'lum darajada o'g'ish (kechikish) xolatida harakatlanganda uning yo'lovchilar oqimiga qanday ta'sir etishini baholashimiz mumkin.

Аннотация

В данной статье анализируются методы расчета времени движения и времени ожидания пассажиров, пользующихся общественным транспортом в автобусах. Мы можем оценить, как автобус повлияет на пассажиропоток, когда он движется полностью по расписанию и когда он движется с определенной степенью отклонения (опоздания) от расписания.

Abstract

This article analyzes the methods of calculating the time of movement and waiting time of passengers using public transport on buses. We can evaluate how the bus will affect the

flow of passengers when it moves fully on schedule and when it moves with a certain degree of deviation (delay) from the schedule.

Kalit soʻzlar: mobil qatlam, yoʻlovchi, jamoat transporti, transport kompleksi, modellashtirish, samaradorlik, tashish masofasi, kutish vaqti, axborot oqimi.

Ключевые слова: мобильный слой, пассажир, общественный транспорт, транспортный комплекс, моделирование, эффективность, дальность перевозки, время ожидания, информационный поток.

Key words: mobile layer, passenger, public transport, transport complex, modeling, efficiency, transportation distance, waiting time, information flow.

Kirish. Shaxar axolisining mobil qatlamlari ortib borishi bilan shaxar jamoat transportiga boʻlgan talab va yuklamalar ortib bormoqda. Bunday sharoitda mavjud transport tizimi faolyatini tahlil qilish va takomillashtirishni ustuvor vazifaga aylanadi. Yoʻlovchilar shaharlar ichida, shahar atrofida va shaharlararo jamoat transportida harakatlanadi. Yirik shaharlar, shaharchalar va chekka hududlarda yoʻlovchi tashishga boʻlgan talabni qondirishda avtomobil transporti asosiy qisimni tashkil qiladi. Aholining aksariyat qismida shaxsiy transport vositalari mavjud boʻlmagan taqdirda, transportga boʻlgan talabni oʻz vaqtida va sifatli qondirish muammosi jamoat transportdan foydalanishni ijtimoiy yoʻnalishga aylanadi.

Toshkent shahri jamoat transporti harakatlanuvchi va kunlik kirib keluvchi axoli mobil qatlamining 23% jamaot transporti bilan qamrab oladi. Aholining qolgan harakatlanuvchi qismi shaxsiy transport vositalari va taksilar faolyatidan foydalanadi. Bunday vaziyatda yoʻlning katta qismini yengil avtomobillar band qiladi[1]. Bu esa jamoat transporti harakatiga turli darajadagi salbiy taʼsirini koʻrsatgan holda ishonchli harakatlanishiga toʻsqinlik qiladi. Bu holatda transport sohasi mutaxassislari va hokimiyatlarning birgalikdagi transport kompleksi faolyatini yaxshilashga qaratilgan harakatlari, transport ishini tashkil etishda tizimli yondashuv zarur boʻladi.

Asosiy qism

Transport xizmatlari jarayonida oʻzaro bogʻlangan hududiy moddiy va inson oqimlaridan iborat murakkab moslashuvchan tizimidir. Shahar yoʻlovchi jamoat transporti tizimlarini oʻrganishda qoʻllaniladigan usullar quyidagicha:

- jarayonlarni kuzatish va tavsiflash;
- modellashtirish;
- dasturiy simulyatsiya;
- analitik tahlillar;

Jarayonlarni kuzatish - transport hodisalarini toʻgʻridan-toʻgʻri roʻyxatga olish yoʻli bilan bajariladi: yoʻlovchilar oqimining jadalligini oʻlchash, yoʻlovchi transporti qatnovi, harakatlanuvchi tarkibning yuklanganligi va boshqalar.

Modellashtirish - bu tahlil qilinadigan tizim yoki uning qismlarining haqiqiy yoki ularga yaqin sharoitlarda ishlashini sinovdan oʻtkazish: harakat oraligʻining harakat tarkibining yuklanishga taʼsiri, marshrutdagi har xil turdagi harakatlanuvchi tarkibning samaradorligi; va boshqalar [2,6].

Dasturiy simulyatsiya va analitik tahlillar - tajriba natijalarni samarali ifodalaydi. Shahar jamoat yo'lovchi transporti tizimini tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi o'zaro bog'langan raqamli modellar to'plami bilan tavsiflash imkonini beradi. Turli vaziyatlarni bashorat qilish va taklif qilingan yechimlarning oqibatlarini baholash imkonini beradi (aholining transport harakatchanligini bashorat qilish), shahar jamoat transporti tizimi faoliyati samaradorligining miqdoriy qiymatlarini aniqlash). Ushbu usullar transport muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi.

Yo'lovchilarni tashishga samarali yondashuvni tavsiflaydigan va shahar yo'lovchi jamoat transporti faoliyati to'g'risida ma'lumot beruvchi omillar quydagilardir:

- yo'nalish tarmog'i xususiyatlari (uzunligi, zichligi, marshrutlar soni va boshqalar);
- tashilgan yo'lovchilar soni;
- tashish ishlarida turli transport turlarining ulushi;
- kundalik transport harakatchanligi va uning vaqt bo'yicha taqsimlanishi;
- har bir transport turining xususiyatlari;
- harakatlanish intervallari, o'rtacha tezligi;
- aloqa tezligi;
- harakatlanuvchi tarkibning texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlari;

Shahar aholisining transport harakatchanligiga ta'sir etuvchi omillar quydagilar: harakat masofasi, aholi daromadlari, yo'l uchun tariflar, harakatlanuvchi tarkibning yuk ko'tarish qobiliyati, transport tarmog'ining zichligi va boshqalar. Jamoat transporti faoliyati samaradorligini baholash uslubi quydagi omillar tadqiq qilinganda olingan natijalar asosida ishlab chiqildi.

Yo'lovchi tashishni samarali tashkil etish uchun tizimning matematik tavsifini tuzish uchun transport jarayonining bosqichlari va elementlaridagi o'zgarishlar qonuniyatlari quyidagilardan iborat: transport to'xtash joyiga yaqinlashish, transportni kutish, transportga chiqish[3].

$$t_{yo'l} = t_{bekatga} + t_{kutish} + t_{avtobus} + t_{bekatdan} \quad (1)$$

bu yerda: $t_{yo'l}$ – yo'lovchining qatnovga sarflagan umumiy vaqti, soat;

$t_{bekatga}$ – eng yaqin avtobus bekatiga piyoda borishga sarflanuvchi vaqt, soat;


t_{kutish} – transport vositasini kutish vaqti, soat;

$t_{avtobus}$ – yo'lovchining transport vositasida harakatlanish vaqti, soat;


$t_{bekatdan}$ – bekatdan manzilgacha piyoda borishga sarflanuvchi vaqt, soat;

Hozirgi vaqtda transport xizmatlaridan foydalanuvchilar yo'lovchi tashuvchilarning vaqt jadvalariga rioya qilish, tashish ishonchliligi kabi ko'rsatkichlarni bilan baholab boradilar.

Yo'lovchilarni tashish xizmatlari samaradorligi, tizimli barqarorligini oshirish uchun yordamchi materiallar, axborot, moliyaviy oqimlarni shakllantirish va tashish jarayoni boshqarish bilan bog'liq barcha bosqichlarini maksimal darajada muvofiqlashtirish, integratsiyalashuvini ta'minlash zarur.



a)



b)

a) Oddiy harakat; b) Murakkab harakat

I-rasm. Yo'lovchilar xarakatining texnologik rejasi.

Tashish jarayonining elementlari, yuqorida ta'kidlanganidek, quyidagilardir: to'xtash joyiga yaqinlashish, harakatlanuvchi tarkibni kutish, transport vositasida harakatlanish va manzilga tomon harakatlanish.

Transformatsiya jarayonlari - bu yo'lovchilarni ma'lum birlikda hisoblash jarayonlari, ya'ni o'z vaqtida, sifatli va yo'lovchi tashishning arzonligi.

Harakatlanuvchi shaxs jamoat transportda harakat qilishdan ko'ra piyoda yurishni afzal ko'rgan vaqt yoki masofa juda muhim hisoblanadi. To'xtash punktining piyodalar uchun qulaylik hududi to'xtash joyiga yaqinlashishning ruxsat etilgan maksimal vaqti yoki bu vaqt ichida piyoda bosib o'tgan masofa bilan baholanadi.


Piyodalar uchun masofasi qulay bekatga yaqinlashishning ruxsat etilgan maksimal vaqti $t_{bekatga}^{max}$ yoki piyodaning shu vaqt ichida bosib o'tgan masofasi $l_{bekatga}^{max}$ bilan belgilanadi (2-rasm). Transport marshrutining piyodalar uchun qulaylik zonasining o'rtacha qiymati $l_{bekatga}^{o'rt}$

transport tarmog‘ining zichligi ρ_{tr} bilan belgilanadi va quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$l_{bekatga}^{o'rt} = l_1 + l_2 = \frac{l}{3 \cdot \rho_{tr}} + \frac{l_{tm}}{4} \quad (2)$$

bu yerda l_{tm} – tashish masofasi, km;

Transportdan tushgandan keyin yo‘lovchining harakatlanish vaqti (manzilgacha bo‘lgan masofa) son jihatdan transport vositasiga yaqinlashish vaqtiga (masofasiga) teng bo‘lgan hisob-kitoblarda olinadi[3].



2-rasm. Jamoat transporti to‘xtash joyigacha bo‘lgan o‘rtacha masofani aniqlash sxemasi.

Harakatlanuvchi tarkibga chiqishga sarflangan vaqt transportni kutish vaqti bilan bog‘liq. Harakatlanuvchi tarkibni kutish zarurati harakatga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘lgan va uni qondirish mumkin bo‘lgan vaqt o‘rtasidagi vaqt farqi tufayli yuzaga keladi. To‘xtash joyida yo‘lovchining navbatdagi avtobusni kutish vaqti avtobuslar orasidagi harakatlanish oralig‘ining funksiyasidir t_{ov} . Avtobus kelgan paytda yo‘lovchi to‘xtash joyiga yaqinlashganda, kutish vaqti $t_{kutish} = 0$. Yo‘lovchi avtobus jo‘nash vaqtida yaqinlashganda $t_{kutish} = t_{ov}$. Avtobus yo‘lovchisining o‘rtacha kutish vaqti $t_{kutish}^{o'rt}$ quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t_{kutish}^{o'rt} = \frac{(t_{max} + t_{min})}{2} \cdot 0,5 \cdot t_{ov} \quad (3)$$

Transportning o‘rtacha kutish vaqtini aniqlash uchun 3 formuladan faqat harakat muntazamligi 100% ga yaqinlashganda ishlatilishi mumkin. Haqiqiy sharoitda avtobuslarning marshrutda harakatlanish oralig‘i normal taqsimot qonuni bo‘yicha taqsimlangan ehtimollik qiymati hisoblanadi. Bunday holda, avtobuslar orasidagi haqiqiy interval va avtobus yo‘lovchisini kutish vaqti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t_{kutish} = \frac{t_{ov} + 3 + \sigma}{2} = 0,5 \cdot t_{ov} \cdot \left(1 + \frac{3 \cdot \sigma}{t_{ov}} \right) \quad (4)$$

bu erda σ - harakat oralig'ining matematik kutishdan o'rtacha kvadrat og'ishining qiymati.

σ dan tashqari, kutish vaqtiga avtobusning haqiqiy to'ldirilishi ta'sir qiladi. Yo'lovchilar gavjum avtobusga chiqmasligi mumkin [4,8].

Transport vositalari tezligini marshrut bosqichlari bo'yicha taqsimlashning muntazamligi va to'xtash joylarida yo'lovchilarni chiqish va tushirish muddati belgilandi. Tezliklarning taqsimlanishi v_t normal qonunga bo'ysunadi

$$f(v) = \frac{1}{\sigma(v) \cdot \sqrt{2\pi}} \cdot e^{-\frac{(v-M(v))^2}{2\sigma^2}} \quad (5)$$

bu yerda $M(v)$ - tasodifiy miqdorning matematik kutilishi;

$\sigma(v)$ - standart og'ish.

Oraliq bekatlarda bo'sh vaqtni taqsimlash Erlang taqsimoti bilan tavsiflanadi:


$$f(t_{ob}) = \frac{\lambda(\lambda \cdot t_{ob})^k}{k!} \cdot e^{-\lambda \cdot t_{ob}} \quad (6)$$

bu yerda: $\lambda = \frac{1}{M(t_{ob})}$ oraliq to'xtashda statistik kutish vaqtining o'zaro munosabati.

Haftaning kunlarida, kunning turli vaqtida va boshqa xolatlar bo'yicha yo'lovchilarni chiqish tushirish tezligi, to'xtab qolish vaqti o'zgarishining kattaligi parametrlari aniq yo'nalishlardagi harakat tezligi va vaqtini normallashtirishda zarur.

Avtobus tezligi doimiy bo'lib qolmaydi va harakat davrining soatlariga (kunning soatlariga) qarab o'zgaradi. Ularning qiymati asosan N_{umumiy} transport oqimining umumiy jadalligi bilan belgilanadi, shuningdek, marshrut tashish masofasi bo'ylab o'zgaradi. 3-rasmda sutkaning soatiga tezlikni o'zgartirishning holati, o'zgartirish davrlarining soni va davomiyligini ko'rishimiz mumkin.

Bosh bekatlarda avtobus to'xtash muddati harakat vaqti soatlari bo'yicha farqlanadi, eng yuqori (pik) soatlarda, to'xtash vaqti qisqaradi. To'xtash vaqti marshrut uzunligi, harakat vaqti va harakat sharoitlariga qarab belgilanadi. Oraliq bekatlarda to'xtab turish vaqti (t_{ob}) asosan harakat tarkibi turiga va to'xtash punktining yo'lovchilar oqimiga bog'liq.



3-rasm. Kun davomidagi harakat vaqti, soat.

Umumiy harakat jadalligi (N_{umumiy}), avtobuslar tezligining o'zgarishi (V_T), yo'nalishdagi avtobuslar soni (N_{avto}).

Marshrut bo'ylab texnik tezlik quyidagicha aniqlanadi:

$$v_T = \frac{v_{T_1} \cdot l_{m_1} + v_{T_2} \cdot l_{m_2} + \dots + v_{T_n} \cdot l_{m_n}}{l_{m_1} + l_{m_2} + \dots + l_{m_n}} = \frac{\sum_{i=1}^n v_{T_i} \cdot l_{m_i}}{l_{m_i}} \quad (7)$$

bu erda v_{T_1}, v_{T_2} - marshrut bo'ylab texnik tezlik, km/soat;

l_{m_1}, l_{m_2} - ma'lum bir marshrutning tashish masofasi, km;

Yuklama bilan harakatlanuvchi shahar yo'nalishlari uchun to'xtab qolish vaqtini taqsimlash, avval aytib o'tilganidek, Erlang qonuniga bo'ysunadi va matematik taxmin bilan aniqlangan raqamli qiymat marshrut va avtobus turiga qarab o'zgaradi.

Xulosa.

Jamoat transportida harakatlanuvchi tarkib avtobuslari doimiy reja bilan jadval asosida o'zgarmas vaqt bilan harakatlana olmaydi. Bunga harakat vaqtidagi turli omillar sabab bo'ladi. Rejalashtirilmagan texnik nosozliklar, harakat davomidagi tirbantliklar, yo'lovchilar oqimining turli vaqtlarga, joylariga qarab o'zgarishi va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Jamoat transportidan foydalanuvchi yo'lovchilar uchun eng yaqin avtobus bekatigacha bo'lgan masofa, unga sarflanuvchi vaqt, transportni kutish va unda harakatlanish vaqti juda muhim. Bu esa yo'lovchilarning jamoat transportiga bo'lgan extiyojni qondirish zarurati bilan bog'liqdir. Avtobuslarning grafik asosida harakatlanishi yo'lovchilarning transportga bo'lgan ishonchini oshiradi va yo'lovchilarni o'zida ko'proq jalb etadi. Yo'lovchi manzilga yetib orish vaqtini hisoblash uchun uning bekatgacha yetib boorish vaqti, avtobus kutish vaqti

avtobusda harakatlanish va manzilgacha yetib borish vaqti yig'indisi asosida hisoblanadi. Tashish jarayonini samarali tashkil etish uchun yo'lovchilarning manzilgacha harakatlanish vaqti juda muhimdir. Yo'lovchilar harakati oddiy va murakkab ko'rinishda bo'lishi mumkin. Oddiy ko'rinishdagi harakatda bekat – avtobus – manzil korinishida bo'ladi. Murakkab ko'rinishli harakatda bekat – avtobus - jamoat transportining boshqa ko'rinishi – manzil ko'rinishida bo'ladi. Yo'lovchining avtobus kutish vaqtini boshlang'ich nuqtadan bekatga yetib borguncha sarflanuvchi vaqt tarkibida hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Бутенко, И. А.* Организация прикладного социологического исследования /И. А. Бутенко. – М.: Тривола, 1998. – 228 с.
2. *Девятко, И. Ф.* Методы социологического исследования / И. Ф. Девятко. –М.: КДУ, 2003. – 296 с.
3. *Дулина, Н. В.* Основы прикладной социологии: учеб. пособ. / Н. В. Дулина, И. А. Небыков, В. В. Токарев; ВолгГТУ. – Волгоград, 2006. – 154 с.
4. В. А. Гудков, М. М. Бочкарева, Н. В. Дулина, Н. А. Овчар / Качество пассажирских перевозок: возможность исследования методами социологии: учеб. пособ. ВолгГТУ. – Волгоград, 2008.
5. А. В. Вельможин, В. А. Гудков, А. В. Куликов, А. А. Сериков. Эффективность городского пассажирского общественного транспорта. Монография Волгоград 2002
6. Abdurazzoqov U. A., O'taganov S. Q. Elektrobustlarning energetik samaradorligini baholash. МЕХАНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, МАХСУС СОН 2022, № 2 (2).
7. O'taganov Sarvar Qahramon o'g'li Abdurazzoqov Umidulla Abdurazzoqovich (TDTTrU). Shahar jamoat transport yo'nalishlarida elektrobustlarni tadbiiq etishda dunyo mamlakatlari tajribalari tahlili, YOSH ILMIY TADQIQOTCHI I- Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil.
8. Mukhitdinov A., Kutlimuratov K., Assessing the operational impacts of road intersection using ptv vissim microscopic simulation. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, (2021), 18682-18690, 8(12)
9. Mukhitdinov A., Kutlimuratov K., Khakimov Sh., Samatov R., Modelling traffic flow emissions at signalized intersection with PTV Vissim, E3S Web of Conferences, (2021), DOI: 10.1051/e3sconf/202126402051
10. Mukhitdinov A., Kutlimuratov K., Impact of stops for bus delays on routes, IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, (2020), ISSN 1755-1315, DOI: 10.1088/1755-1315/614/1/012084
11. Mukhitdinov A., Ziyaev K., Method for evaluating the energy efficiency of regulated driving cycles, European science review(2016), volume 9-10
12. Abdurazzoqov, Umidulla Abdurazzoqovich, and Doniyor Azimovich Vohidov. "JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARINI TASHKIL QILISH USULLARI." Results of National Scientific Research International Journal 2.2 (2023): 168-176.

IQTISODIYOT.

Юсупова Малика Ботиралиевна

Кандидат экономических наук, доцент
кафедры «Бухгалтерский учёт и менеджмент»
Андижанского машиностроительного института,
e-mail - myusupova@rambler.ru
контактный телефон +99891 600 38 59

Норматова Мукаррамхон

студентка 3-курса направления бакалавриатуры
«Бухгалтерский учёт и аудит»
Андижанского машиностроительного института,
e-mail - nmukarrama98@mail.ru
контактный телефон - +998902110398

ОСОБЕННОСТИ УЧЁТА ДОЛГОСРОЧНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ

УЗОҚ МУДДАТЛИ МАЖБУРИЯТЛАР ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

FEATURES OF ACCOUNTING FOR LONG-TERM LIABILITIES

Аннотация

В данной статье раскрыта важность учёта долгосрочных обязательств, как с точки зрения внутренних пользователей, так и с точки зрения внешних пользователей финансовой отчетности компаний. В статье проведён анализ особенностей возникновения долгосрочных обязательств, а также возникающие впоследствии них особенности бухгалтерского учёта. В статье особое значение уделяется классификации обязательств компаний, которые оказывают огромное влияние на финансовую устойчивость и платежеспособность.

Аннотация

Мазкур мақолада узок муддатли мажбуриятлар ҳисобининг, компаниялар молиявий ҳисоботларидан фойдаланувчиларнинг ҳам ички, ҳам ташқи фойдаланувчилари нуктаи назаридан, муҳимлиги ёритиб берилган. Мақолада узок муддатли мажбуриятларнинг шаклланиш хусусиятлари ва улардан келиб чиқиб юзага келган бухгалтерия ҳисоби хусусиятлари таҳлили ўтказилган. Мақолада компаниялар молиявий барқарорлиги ва тўлов қобилиятига сезиларли даражада таъсир этувчи мажбуриятларнинг туркумланишига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.

Annotation

This article reveals the importance of accounting for long-term liabilities, both from the point of view of internal users and from the point of view of external users of the financial statements of companies. The article analyzes the features of the emergence of long-term liabilities, as well as the features of accounting that arise subsequently. The article pays

special attention to the classification of companies' liabilities, which have a huge impact on financial stability and solvency.

Ключевые слова. Финансовая отчетность, долгосрочные обязательства, финансовое состояние, финансовая устойчивость, долгосрочные проекты, срок погашения, процентные ставки, признание финансовой информации, финансовый риск

Калим сўзлар. Молиявий ҳисобот, узоя муддатли мажбуриятлар, молиявий ҳолат, молиявий барқарорлик, узоқ муддатли лойиҳалар, қоплаш муддати, фоиз ставкалари, молиявий ахборотни тан олиш, молиявий риск

Keywords. Financial statements, long-term liabilities, financial condition, financial strength, long-term projects, maturity, interest rates, recognition of financial information, financial risk

Долгосрочные обязательства являются источником долгосрочного финансирования для финансирования крупных операций и роста компании. Особенно они важны для осуществления долгосрочных проектов, таких как исследования и разработки, связанные с новыми видами продукции или расширением производства, то есть с новыми строительствами.

Долгосрочные обязательства являются важным аспектом финансового состояния и устойчивости предприятий. Важность учёта долгосрочных обязательств диктуется тем, что:

- наличие долгосрочных обязательств, требует строго соблюдения установленных стандартов учёта в связи с возможными юридическими и финансовыми санкциями;
- долгосрочные обязательства влекут за собой значительный финансовый риск, который, в свою очередь, требует оценки платежеспособности предприятия и потенциальных рисков;
- долгосрочные обязательства связаны с такими понятиями как процентные ставки, графики погашения основного долга и процентов;
- информация о долгосрочных обязательствах важна для принятия долгосрочных решений по отношению к предприятию.

Учет долгосрочных обязательств включает в себя несколько задач:

- определение особых условий каждого обязательства;
- расчет процентных расходов;
- график выплат основной суммы долга в течение срока действия каждого обязательства.

Учёт долгосрочных обязательств создаёт проблему признания подобной информации в связи со сроком погашения того или иного обязательства. Первоначальное признание суммы долгосрочного обязательства не ставит точку вопросу признания финансовой информации, так как существуют различные виды долгосрочных обязательств, различный порядок оценки их суммы, различные сроки погашения, а также различные условия погашения.

Признание любых изменений справедливой стоимости или процентных ставок могут повлиять на стоимость долгосрочных обязательств. Это диктует раскрытия всей соответствующей информации в финансовой отчетности. Важность точного учета долгосрочных обязательств заключается в том, чтобы предоставить инвесторам и заинтересованным сторонам четкое представление о структуре долгосрочных обязательств компании. Это помогает им понять, какие долги и на какую сумму взяла на себя компания, каковы условия ее погашения и способность компании выполнять свои финансовые обязательства с течением времени. Эта информация имеет решающее значение при принятии инвестиционных решений или оценке кредитоспособности компании. Кроме того, надлежащий учет долгосрочных обязательств также обеспечивает соответствие стандартам бухгалтерского учета, таким как GAAP (общепринятые принципы бухгалтерского учета) или IFRS (международные стандарты финансовой отчетности), которые требуют от компаний раскрытия точной и полной информации о своих долгосрочных обязательствах в своих отчетах. Это также помогает руководству принимать обоснованные решения относительно вариантов финансирования и стратегий управления долгом.

При оценке платежеспособности и будущих перспектив любого бизнеса необходимо внимательно изучить обязательства компании и непредвиденные убытки. Даже некоторые крупные, известные компании были «утоплены» из-за слишком большого долга. Существуют различные виды обязательств, и важно их **классифицировать**.

Характер обязательств может быть определен как долги или обязательства, возникающие в результате прошлых операций или событий и требующие погашения в будущем. Все обязательства имеют определенные общие характеристики; но существует огромная разница между конкретными условиями различных обязательств и прав кредиторов. У предприятий есть два основных источника финансирования: обязательства и собственный капитал. Обязательства отличаются от собственного капитала в нескольких отношениях. Признак, который наиболее четко отличает требования кредиторов от собственного капитала, заключается в том, что все обязательства в конечном итоге подлежат погашению, то есть наступают. Собственный капитал не созревает. Дата, на которую наступает срок погашения обязательства, называется датой погашения. Что такое срок погашения? Это - некоторые обязательства подлежат оплате по требованию, что означает, что обязательство подлежит оплате по требованию кредитора. С точки зрения банка, текущие счета клиентов являются «обязательствами до востребования». Обязательства по требованию могут наступить в любое время и классифицируются как **краткосрочные обязательства**. Несмотря на то, что все обязательства имеют срок погашения, сроки их погашения различны. Некоторые обязательства настолько краткосрочны, что они оплачиваются до того, как финансовые отчеты попадают на рабочий стол пользователей. **Долгосрочные обязательства**, напротив, могут не выплачиваться в течение многих лет. Сроки погашения ключевых обязательств могут быть решающим фактором платежеспособности бизнеса.

Поставщики заемного капитала являются кредиторами бизнеса, а не собственниками. Как кредиторы они имеют финансовые претензии к бизнесу, но обычно не имеют права контролировать деловые операции. Однако традиционные роли владельцев, менеджеров и кредиторов могут быть изменены в условиях контракта. Кредиторы иногда настаивают на том, чтобы им был предоставлен некоторый контроль над бизнес-операциями в качестве условия предоставления кредита, особенно если бизнес находится в финансовой токсичности. Связанные контрактами, могут налагать такие ограничения, как лимиты на заработную плату менеджеров и сверх дивидендов, и могут требовать одобрения кредитора для получения дополнительных займов или крупных капитальных затрат.

Требования кредиторов имеют юридический приоритет перед требованиями собственников. Если бизнес является банкротом и ликвидируется, кредиторы должны быть выплачены в полном объеме, прежде чем какие-либо выплаты будут сделаны владельцам. Считалось, что относительная безопасность требований кредиторов может быть вызвана различиями между кредиторами. Иногда заемщик отдает в залог право собственности на специальные активы в качестве залога по кредиту. В случае неисполнения обязательств по обеспеченному кредиту кредитор может обратиться за взысканием на заложенные активы. Активы, переданные в залог в качестве обеспечения по кредитам, должны быть указаны в примечаниях, прилагаемых к финансовой отчетности заемщика.

Обязательства, не обеспеченные конкретными активами, называются **общими кредитными обязательствами**. Приоритеты общих кредитных обязательств варьируются в зависимости от характера обязательства и условий договоров облигационных займов. Большинство долгосрочных обязательств и некоторые краткосрочные требуют от заемщика уплаты процентов. Только проценты, подлежащие уплате на отчетную дату, отображаются как обязательства в балансе заемщика. Обязательство заемщика по уплате процентов в будущих периодах иногда раскрывается в примечаниях к финансовой отчетности, но не отображается как существующее обязательство. Некоторые обязательства имеют определенную сумму в долларах, четко указанную в контракте. Примеры включают в себя кредиторскую задолженность, кредиторскую задолженность и начисленные расходы, такие как проценты к уплате и задолженность по заработной плате. Однако в некоторых случаях сумма обязательства должна оцениваться на отчетную дату.

Существуют две основные характеристики оценочных обязательств: Известно, что обязательство существует, но точная сумма не может быть определена до более поздней даты. Например, автомобили, продаваемые большинством автопроизводителей, сопровождаются гарантией, обязывающей автопроизводителя заменять дефектные детали в течение нескольких лет. Как и каждый проданный автомобиль, автопроизводитель несет ответственность за выполнение любых работ, которые могут потребоваться в соответствии с гарантией. Однако сумму этого обязательства можно только приблизительно оценить.

Есть некоторые обязательства, которые мы должны знать, так как *текущие обязательства* — это обязательства, которые должны быть выплачены в течение одного года или в течение одного операционного цикла, в зависимости от того, что дольше. Существует еще одно требование для отнесения обязательства к текущим обязательствам — это ожидание того, что долг будет погашен за счет оборотных средств. Обязательства, не отвечающие этим условиям, классифицируются как долгосрочные обязательства.

Долгосрочные обязательства — это долги или финансовые обязательства, которые, как ожидается, будут погашены в течение периода времени, превышающего один год. Примеры долгосрочных обязательств включают кредиты, облигации, ипотечные кредиты и аренду. Эти обязательства являются важным аспектом финансовой отчетности компании, и очень важно точно учитывать их в финансовой отчетности.

Для учета долгосрочных обязательств компания должна сначала определить сумму задолженности и период времени, в течение которого ожидается погашение обязательства. Затем компания должна классифицировать обязательство как краткосрочное или долгосрочное обязательство в балансовом отчете в зависимости от того, когда ожидается погашение обязательства.

В дополнение к классификации компании также должны сообщать о процентных расходах, связанных с долгосрочными обязательствами. Процентные расходы представляют собой стоимость заимствования денег и рассчитываются путем умножения процентной ставки на непогашенный остаток обязательства. Процентные расходы отражаются в отчете о прибылях и убытках, а проценты к уплате — в балансе. Компании также должны раскрывать информацию о любых ковенантах, связанных с их долгосрочными обязательствами. Ковенант — это требование, установленное кредитором, которому заемщик должен соответствовать, чтобы сохранить кредит или облигацию. Эти ковенанты могут включать финансовые коэффициенты, соотношение долга к собственному капиталу или другие требования, которым должна соответствовать компания. Несоблюдение этих условий может привести к дефолту или дополнительным сборам и штрафам.

Наконец, компании должны раскрывать любые опционы (options) на досрочное погашение, связанные с их долгосрочными обязательствами. Вариант досрочного погашения позволяет заемщику погасить долг до даты погашения, а опцион (options) позволяет кредитору потребовать погашения долга до даты погашения. Эти варианты могут повлиять на расчет процентных расходов и должны быть раскрыты в финансовой отчетности.

Каждый элемент, связанный с долгосрочными обязательствами, как объекта учёта, характеризует особенности учёта долгосрочных обязательств. Эти особенности проявляются и в расчётах, связанных с оценкой и бухгалтерскими проводками, отражающими сложнейшие операции, отражающие условия договоров по долгосрочным обязательствам, сроки их погашения и изменения, происходящие в течение установленного срока обязательств.

Следует подчеркнуть, что признание любых изменений справедливой стоимости долгосрочных обязательств, влечёт за собой появления в учёте либо прочих расходов по финансовой деятельности, либо доходов в этой сфере. Так, например, изменение справедливой рыночной стоимости какой-нибудь ценной бумаги, приводит с одной стороны, к изменению стоимости ценной бумаги, а с другой стороны появлению прочих расходов по финансовой деятельности. Не зря отмечено, что «в бухгалтерском учете выделяют моменты возникновения, оценки и классификации обязательств» [5,178].

Выше было подчеркнуто то, что долгосрочные обязательства погашаются по установленному графику. Если нарушается соблюдение графика выплат, то пересматриваются все остальные выплаты, так как они связаны с процентами, установленными по этим обязательствам и штрафами или другими дополнительными выплатами в связи с нарушением условий договора. Это всё находит своё отражение в тех счетах бухгалтерского учёта, которые являются и постоянными, связанными с балансом, и временными, связанными с отчётом о финансовых результатах.

Особенности учёта долгосрочных обязательств и важность данного объекта учёта, конечно же, связаны с основными принципами учёта, которые чётко изложены в концептуальных основах подготовки и предоставления финансовой отчётности. Особо важное значение, по нашему мнению, имеют принципы начисления, соответствия, и полного раскрытия, соблюдение которых обеспечит достоверность и прозрачность финансовой информации и инсайдерам, и аутсайдерам финансовой отчётности.

Использованная литература:

1. Barry Elliot, Jamie Elliot “Financial accounting and reporting”, 2019, <https://www.amazon.co.uk/Financial-Accounting-Reporting-Barry-Elliott/dp/1292255994>
2. Frank Wood, Alan Sangster “Business Accounting”, <https://www.amazon.com/Frank-Woods-Business-Accounting-Sangster/dp/1292084669>
3. Neil Kokemuller <https://smallbusiness.chron.com/accounting-101-basics-long-term-liability-60869.html>
4. Robert F. Meigs, Walter B. Meigs, Mary A. Meigs “Financial Accounting” Publisher McGraw-Hill Companies; 8th edition (January 1, 1995)
5. Нидлз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета / Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл: Пер. с англ./ Под ред. Я. В. Соколова. — 2-е изд., стереотип. 497

Bayboboeva Firuza Nabijonovna
kafedra mudiri, dotsent
Namangan muhandislik-qurilish instituti
firuzanabijonovna@mail.ru
+998905555530

**KICHIK ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK
TAMOYILLARI**

**ПРИНЦИПЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НА МАЛЫХ
ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**PRINCIPLES OF ECONOMIC SECURITY AT SMALL PRODUCTION
ENTERPRISES**

Annotatsiya

Maqolada kichik ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillarini turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflari taxlil qilingan. Taxlillar asosida bu tamoyillar respublikamizdagi sharoit va jarayonlar xususiyatlaridan kelib chiqib eng maqbullari moslashtirilib, tizimli tartibda qayta tuzib chiqilgan. Tuzilgan tamoyillarga ta'rif berib, batafsil tushuntirib o'tilgan.

Аннотация

В статье анализируются определения, данные различными учеными о принципах обеспечения экономической безопасности малых производственных предприятий. На основе анализа эти принципы были адаптированы и систематически реструктурированы с учетом особенностей условий и процессов в республике. Структурированные принципы определены и подробно объяснены.

Annotation

The article analyzes the definitions given by various scientists on the principles of ensuring the economic security of small industrial enterprises. Based on the analysis, these principles were adapted and systematically restructured, taking into account the specific conditions and processes in the republic. Structured principles are defined and explained in detail.

Tayanch so'zlar: *kichik korxonalar, iqtisodiy xavfsizlik, tahdidlar, tamoyillar, xavfsizlik tizimi, xavfsizlikni ta'minlash.*

Ключевые слова: *малый бизнес, экономическая безопасность, угрозы, принципы, система безопасности, безопасность.*

Key words: *small business, economic security, threats, principles, security system, security.*

Bugungi kunga kelib ko'plab adabiyotlarda korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga berilgan ta'riflar xilma-xilligi kengayib bormoqda. Har bir muallif o'zining bergan ta'rifini eng to'g'ri deb hisoblab, shu g'oyani ilgari surishga harakat qiladi. Ye. A. Oleynikov tomonidan taklif

qilingan talqinda, uning fikricha, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi - bu tahdidlarning oldini olish va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning barqaror ishlashini ta‘minlash uchun korporativ resurslardan eng samarali foydalanishni ta‘minlashdir. [1] Korxonada xavfsizligini ta‘minlash - bu faoliyat uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishning uzluksiz jarayoni bo‘lib, uning doirasida sub‘ektning manfaatlari amalga oshiriladi va u tomonidan qo‘yilgan maqsadlar amalga oshiriladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash tizimini qurish bo‘yicha faoliyat turli tamoyillarga qat‘iy rioya qilishga asoslangan bo‘lishi kerak. Tamoyillar ya‘ni printsiplar deganda iqtisodiy xavfsizlikni shakllantirishda rioya qilinishi kerak bo‘lgan muayyan umumiy qoidalar tushuniladi. “Printsip” lotincha (prinsipium) “asos”, “boshlanish” degan ma‘noni anglatadi. Iqtisodiy lug‘atda shu munosabat bilan tamoyillarga quyidagi ta‘rif berilgan:

- 1) har qanday nazariyaning asosiy, dastlabki qoidalari, faoliyatning asosiy qoidalari;
- 2) iqtisodiy faoliyatning o‘rnatilgan, ildiz otgan, umume‘tirof etilgan, keng tarqalgan qoidalari va iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlari. [2]

A.S. Davыdenko tomonidan taklif qilingan korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash tamoyillarini tizimlashtirishni quyidagi ketma-ketlikda umumiy yondashuvini aks etishini ko‘rishimiz mumkin. [3]

1. Murakkablik printsiipi. Bu tashkilotning barcha tarkibiy bo‘linmalarida va faoliyatining barcha bosqichlarida moliyaviy, moddiy, axborot va inson resurslarini himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, shu bilan birga murakkablik ustuvorliksiz huquqiy, tashkiliy va muhandislik choralari majmui orqali amalga oshiriladi.

2. Profilaktik chora-tadbirlarning ustuvorligi printsiipi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, kompleks xavfsizlik bo‘yicha vazifalarni belgilash xavfsizlik tizimini rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida amalga oshirilishi kerak.

3. Rejalashtirish printsiipi. Bu tashkilotni xavfsizlik tizimining ishlashiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha faoliyatni shakllantirish kompleks dasturda belgilangan yagona reja va xavfsizlikning alohida sohalari va bo‘limlari bo‘yicha aniq rejalar asosida amalga oshirilishi kerak.

4. Oshkoralik va maxfiylikni birlashtirish tamoyili. Eng muhim iqtisodiy xavfsizlik choralari tizimi korxonaning barcha xodimlariga ma‘lum bo‘lishi kerak, ular uning talablariga rioya qilishlari kerak. Biroq, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning bir qancha usullari, kuchlari, vositalari, usullari faqat tor doiradagi mutaxassislariga ma‘lum bo‘lishi kerak. Bu korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash va samaraliroq oldini olish imkonini beradi.

5. Kompetentsiya printsiipi. Ushbu tamoyil muammoning mohiyatini biladigan, vaziyatni o‘z vaqtida baholay oladigan va to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan professional tayyorgarlikka ega mutaxassislar korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash masalalari bilan shug‘ullanishi kerakligini anglatadi.

6. Harakatning adekvatligi printsiipi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, agar tahdid kuchli xavf tug‘dirmasa, uni bartaraf etish yoki oldini olishga ortiqcha kuch sarflamaslik kerak, shu bilan birga katta xavf tug‘diradigan omillarni bartaraf etish uchun korxonada yetarli kuch sarflash kerak.

7. Samarali himoya qilish printsi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun foydalaniladigan vositalar tashkilot uchun muayyan tahdidlardan himoya qilish nuqtai nazaridan samarali bo'lishi kerak.

8. Hodisalarni mahalliyashtirish printsi. Korxonada tomonidan amalga oshirilayotgan himoya choralarini tahdid manbai va ushbu tahdididan eng ko'p ta'sirlanishi mumkin bo'lgan korxonada ishtirokchisi bilan aniq bog'langan bo'lishi kerak.

O.A.Dubrovina taklif etilgan yuqoridagi ro'yxatni quyidagi tamoyillar bilan to'ldiradi [4]:

1. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik printsi. Bu xavfsizlik tizimining narxi har qanday xavf turidan mumkin bo'lgan zarar miqdoridan oshmasligi kerakligidir.

2. Qonuniylik printsi. Bu shuni anglatadiki, tashkilotning barcha faoliyati Davlat qonunchiligiga va davlat organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida tasdiqlangan boshqa normativ hujjatlarga asoslanishi kerak.

3. Davomiylilik printsi. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning yaxlit tizimi doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

4. Differensiallik printsi. Rivojlanayotgan tahdidlarni bartaraf etish choralarini tanlash tahdidning tabiati va uni amalga oshirish oqibatlarining og'irligiga bog'liq.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning yuqoridagi tamoyillaridan tashqari yana bir qancha muhimlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular V. F. Gaponenko tomonidan taklif qilingan [5].

Ulardan birinchisi iqtisodiy xavfsizlikning olti darajasi, yuqoriroq darajalarning ustuvorligi va moliya-xo'jalik faoliyatini to'liq qamrab olish tamoyillaridir. Ushbu tamoyilga ko'ra, korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining quyidagi darajalari va tegishli iqtisodiy xavfsizlik darajalari ajratiladi:

- mulkchilik darajasi (aksiyadorlar);
- korxonaning yuqori rahbariyatining darajasi;
- tashkiliy tuzilma va korxonada boshqaruv tizimi darajasi, kadrlar siyosati va xodimlarni rag'batlantirish tizimi;
- biznes jarayonlarini qurish darajasi;
- oldingi daraja bilan tartibga solinadigan doiradagi joriy moliyaviy-iqtisodiy faoliyat darajasi;
- moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hisobga olish, nazorat qilish, tahlil qilish darajasi.


Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan tamoyil tashkilot xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash zarurligini belgilaydi, chunki bularsiz quyi darajadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha barcha choralar samarasiz bo'ladi. Shunga ko'ra, moliya-xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli ta'minlash uchun barcha olti darajada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash choralarini ko'rish zarur.[6]

Yana bir muhim konseptual shart - bu to'liq vaqtni qamrab olish printsi. Uning mohiyatini quyidagicha tushuntirish mumkin. Samarali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha muhim voqealarini uch marta nazorat qilish tartib-qoidalarini o'tkazish kerak: prognoz (kelajakdagi mumkin bo'lgan rivojlanish tendensiyalarini hisobga olish), nazorat (hozirgi vaqtda korxonada rivojlanishi) va barcha muhim biznes voqealarini tahlil qilish (o'tmishdagi korxonaning rivojlanishi

dinamikasini o'rganish). Shu bilan birga, profilaktika choralariga ustunlik beriladi, ya'ni tahdidlarga qarshi kurash ularni amalga oshirishning juda erta bosqichidan boshlanishi kerak.[7]

Bizning fikrimizcha, "to'rt rol prinsipi" alohida e'tiborga loyiqdir. Tashkilotning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlardan himoya qilishda bir vaqtning o'zida rivojlanayotgan ikkita jarayonni ajratish mumkin - bu tahdidlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi va xavfsizlikni ta'minlash jarayoni. Ushbu yondashuv korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning "to'rtta roli" tamoyilini shakllantiradi, unga ko'ra xavfsizlik nuqtai nazaridan tashkilotning tashqi va ichki muhitining har qanday elementi bir vaqtning o'zida to'rtta rolda harakat qilishi mumkin [5]:

- xavfsizlik manbai;
- xavfsizlik ob'ekti;
- tahdid manbai;
- tahdid ob'ekti.



1-rasm. Tashkilotda iqtisodiy xavfsizlik tizimini shakllantirishning to'rt o'lchovli ko'rinishi [8].


Korxonada xavfsizligini ta'minlash jarayonida uning predmetini aniqlashda: "Ushbu element korxonada xavfsizligini qanday ta'minlaydi?" degan savolni berish kerak. Xavfsizlik ob'ektini tan olishda savol quyidagicha qo'yilishi kerak: "Ushbu elementning ahamiyati nimada va nima uchun uni himoya qilish kerak?". Tahdid manbasini aniqlash jarayonida "Ushbu element tashkilotga qanday zarar yetkazishi mumkin?" degan savolga javob berish

kerak. Tahdid ob'ektini aniqlashda savol teskari yo'nalishga ega: "Qanday tahdidlar bu elementga ta'sir qilishi mumkin yoki allaqachon ta'sir qilib bo'lganmi?".

Bunday to'rt o'lchovli istiqbol (1-rasm) tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda tahdidlar tizimini va ulardan himoya qilish tizimini birgalikda ishlab chiqish, har bir xavfdan foydalanishning muqobil variantlarini tahlil qilish hamda shu orqali tashkilotning iqtisodiy xavfsizligi tizimini rivojlantirish elementi imkonini beradi. [8] Moddiy va nomoddiy shakldagi jonli va jonsiz ob'ektlar iqtisodiy xavfsizlik elementi sifatida harakat qilishi mumkin. Masalan, korxonada xodimlari, raqobatchilar, tashkilot rahbari, axborot, dasturiy ta'minot va boshqalar. Keling, "korxonada xodimlari" omilining korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimiga ta'sirini baholash uchun to'rtta rol tamoyilidan foydalanish misolini ko'rib chiqaylik. Shunday qilib, agar xodim yetarli malakaga ega bo'lmasa, malakasi past bo'lsa, uning xizmat mavqeidan g'arazli maqsadlarda foydalanish ehtimoli istisno etilmasa, uni tahdidlar manbai deb hisoblash mumkin. Tahdid ob'ekti sifatida korxonada xodimlari psixologik, jismoniy va boshqa ta'sirlarga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan hollarda hisobga olinadi. Korxonaning xodimlari sub'ektiv tomon sifatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq rasmiy vazifalarni bajarish vaqtida ishlaydi: funksional tarkibiy qismlarning holatini kuzatish, ularning diagnostikasi, tahdidlar, xavflar va xavflarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ularning oqibatlarini bartaraf etish. Tashkilot xodimlarini iqtisodiy xavfsizlik ob'ekti sifatida uning tashkilot faoliyatidagi roli, shuningdek, intellektual salohiyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin. U tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning tashuvchisi sifatida ishlaydi, u kompaniyaning barcha yoki deyarli barcha aktivlariga kirish huquqiga ega bo'lishi mumkin.

"To'rt rol" tamoyilining amaliy qo'llanilishi va ahamiyati shundan iboratki, undan foydalanish doimiy ravishda quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi: tahdidlarni kuzatish, ulardan eng xavflisini aniqlash, ularni baholash va tahdidlardan himoya qilish usullarini ishlab chiqish. Ko'rib chiqilgan tamoyillarni tizimli ravishda amalga oshirish iqtisodiy xavfsizlik jarayonining uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tamoyillarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammolar mavjud. Bu, birinchi navbatda, prinsiplarning har biri, o'zining shartlilikiga qaramay, g'oya, ya'ni tashkilotning har bir rahbari umumiy va kasbiy madaniyatni bilish darajasida aqliy ravishda amalga oshiradigan sub'ektiv qurilishdir. Prinsiplar sub'ektga tegishli bo'lgani uchun ular sub'ektiv xususiyatga ega. Ularni amalga oshirish uchun ham ko'p vaqt, kuch va mablag' talab etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu barcha xodimlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlik tamoyillariga rioya etilishini kafolatlamaydi.

Barcha yuqoridagi taxlillar natijasida korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillarini respublikamizdagi sharoit va jarayonlar xususiyatlaridan kelib chiqib eng maqbullari quyidagi tartibda tizimlashtirishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. Kichik korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari

Kichik korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tamoyillari:

- faoliyatning turli tomonlarini (ishlab chiqarish, moliyaviy va h.k.) qamrab oluvchi yaxlit xavfsizlik tizimini yaratishni nazarda tutuvchi murakkablik;

- iqtisodiy xavfsizlik tizimi tahdidlarni dastlabki bosqichda aniqlash, ularning oldini olish yoki zararni minimallashtirish zarurligini nazarda tutuvchi profilaktika chora-tadbirlarining ustuvorligi;

- uzluksizlik, ya'ni tizim uzluksiz ishlashi kerak;

- qonuniylik - barcha faoliyat amaldagi qonunlarga muvofiq bo'lishi kerak;

- tejamkorlik - xarajatlar tizimning ishlashidan olinadigan foyda, uning oldini oladigan zararga mutanosib bo'lishi kerak;

- o'zaro hamkorlik (korxonaning ichki xizmatlari va tashqi tashkilotlar bilan);

- kompetentsiya - iqtisodiy xavfsizlik xizmatlari mutaxassislari vaziyatni baholash va to'g'ri qaror qabul qilish uchun yetarli bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;

-maxfiylik va oshkoralik muvozanati - bir tomondan, barcha xodimlar iqtisodiy xavfsizlik tizimi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan xabardor bo'lishi kerak; boshqa tomondan, aniq usullar, vositalar sir saqlanishi kerak;

- ierarxiya - iqtisodiy xavfsizlik olti darajada (egallari (aksiyadorlar), yuqori boshqaruv, o'rta boshqaruv, biznes-jarayon darajasi, joriy iqtisodiy faoliyat darajasi, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish, hisobga olish va tahlil qilish darajasida) amalga oshiriladi, undan

yuqori darajalar ustuvorlikka ega. Murakkablik prinsipiga alohida e'tibor berilishi kerak. Integrasiyalashgan xavfsizlik deganda huquqiy tashkiliy va muhandislik chora-tadbirlari asosida himoyalangan ob'ektlarning barcha shakllarini (qo'riqlash, rejim, xodimlar, hujjatlar va boshqalar) kombinatsiyasi orqali to'liq qamrab olish tushunilishi kerak. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi hozirgi vaqtda uning barqaror va samarali ishlashini ta'minlash va kelajakda korxonaning rivojlanishi va o'sishi uchun yuqori salohiyatni ta'minlashdir. Demak, iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning mustaqilligini va barqarorligini, doimiy ravishda yangilanib turish va takomillashtirish imkoniyatini ta'minlovchi shart va omillar majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кормишкина Л. А. Экономическая безопасность организации (предприятия) : учебное пособие / Л. А. Кормишкина, Е. Д. Кормишкин, И. Е. Илякова – М. : РИОР : ИНФРА-М, 2017. - 304 с.
2. Афонцев С. Национальная экономическая безопасность: на пути к теоретическому консенсусу // МЭМО. 2002. № 10.
3. Давыденко А.С. Принципы обеспечения экономической безопасности корпорации / А.С. Давыденко, В.В. Клочай // Экономические науки. – 2007. - № 3. – С. 18-22.
4. Дубровина О.А. Необходимость и принципы обеспечения экономической безопасности предприятия / О.А. Дубровина // Экономические науки. – 2017. – № 3. – С. 68-71.
5. Илякова И. Е. Диагностика интеллектуальной и кадровой составляющих экономической безопасности корпорации: угрозы и условия нейтрализации / И. Е. Илякова, О. С. Саушева // Интернет-журнал «Науковедение». – 2015. – Т. 7. - № 5 (30). – С. 47.
6. Ланцман Е. Н. Концептуальные подходы к проблеме обеспечения экономической безопасности организации / Е. Н. Ланцман // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. – 2010. – № 1. – С. 58-62.
7. Беспалько А. Некоторые принципы обеспечения экономической безопасности предприятий [Электронный ресурс] / А. Беспалько // Хранитель медиапортал о безопасности. – 2012. – Режим доступа: http://www.psj.ru/saver_people/detail.php?ID=72134
8. Лоханова В.Н. Экономическая безопасность организации: сущность, угрозы, принципы / В.Н. Лоханова, Т.Ю. Кротенко // Экономика: проблемы, решения и перспективы. – 2015. – № 9. – С. 347-351.

Xalilov Nurullo Xamidillayevich - dotsent, i.f.f.d (PhD)

e-mail: xalilov_nurullo_xamidillayevich@mail.ru

Tel: +99(891) 2914646

Andijon mashinasozlik instituti

Safina Nafisa Talgatovna - katta o'qituvchi

e-mail: nafisa.t.s@mail.ru

Tel.: +99(890) 3855888

Andijon Mashinasozlik Instituti

**SANOAT KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMI RIVOJLANISHINI
BAHOLASH BO'YICHA YONDASHUVLAR**

**ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА
В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**APPROACHES TO ASSESSING THE DEVELOPMENT OF THE QUALITY
MANAGEMENT SYSTEM IN INDUSTRIAL ENTERPRISES**

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash bo'yicha turli xil yondashuvlar ko'rib chiqilgan va xulosalar qilingan.

Abstract

In this article are described different approaches to evaluation of development of the quality management systems of industrial enterprises and are made conclusions.

Аннотация

В данной статье описаны различные подходы к оценке развития систем менеджмента качества промышленных предприятий и сделаны выводы.

Kalit so'zlar: *sifat, sifat menejmenti tizimini baholash yondashuvlari, mahsulot sifatini oshirish, raqamlashtirilgan sifat menejmenti tizimi, raqobat, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya.*

Key words: *quality, approaches to assessing the quality management system, improving product quality, digital quality management system, competition, digital economy, digital transformation.*

Ключевые слова: *качество, подходы к оценке системы менеджмента качества, повышение качества продукции, цифровая система менеджмента качества, конкуренция, цифровая экономика, цифровая трансформация.*

Sifat menejmenti tizimi – korxonada sifat sohasida siyosat olib borish va maqsadlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu maqsadlarga erishish uchun tashkilotda yetakchilikni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlar, tashkiliy tuzilmalar, jarayonlar va manbalar majmuasidir.


Tashkilotlar quyidagi maqsadlarga erishish uchun sifat menejmenti tizimini ishlab chiqadi, joriy qiladi va rivojlantiradi:

- majburiy talablarga javob beruvchi, shuningdek iste'molchilarning ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan maxsulotni yetkazib berish qobiliyatini namoyish qilish;
- sifat menejment tizimini samarali qo'llash, shuningdek uni doimo yaxshilash jarayonini tashkil etish orqali iste'molchilar qoniqish darajasini oshirish;
- raqobat kurashida ustunlikni ta'minlash;
- tashkilot samaradorligi va imkoniyatlarini oshirish.

Sifat menejmenti tizimining maqsadi - har bir mahsulot / xizmat birligini nazorat qilish emas, balki nuqson yoki defekt bo'lishi mumkin bo'lgan ishdagi mumkin bo'lgan xatolarni istisno qilishdir. Buning uchun yuqori sifatli mahsulot / xizmatni yaratish uchun qanday harakatlar to'g'ri ekanligini aniqlash, harakatlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish, ularni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash kerak. Sifat menejmenti tizimiga qo'yiladigan talablar ISO 9000 xalqaro standartlarida, asosiy qoidalar esa ISO 9001:2015 standartida keltirilgan [1].

Sifat menejmenti tizimini (keyinchalik matnda SMT) - samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish, shuningdek mahsulot sifatini yaxshilash uchun biznes-jarayonlarni optimallashtirish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan har qanday kompaniya (ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish sohasida ishlaydigan, xodimlar soni, qanday tarmoqqa tegishliligi va boshqalardan qat'i nazar) ishlab chiqishi va rivojlantirishi mumkindir.

SMT quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi (1-rasm):



*1-rasm. Sifat menejmenti tizimi elementlari.
(Muallif ishlanmasi).*

Sifat menejmenti tizimining rivojlanishi mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ortishiga, harajatlarni kamayishiga, foydani ko'payishiga, samaradorlikni ortishiga olib kelishi mumkin.

Sifat menejmenti tizimining rivojlanishi samaradorligi ham aniq ko'rsatkichlar asosida baholanishi zarur.

Turli tashkilotlarda sifat menejmenti tizimining rivojlanishini baholash bo'yicha yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Olimlarning korxonani rivojlantirishdagi sifat menejmenti tizimi roli bo'yicha qarashlarini ko'rib chiqqanimizda, ularni quyidagi guruhlarga bo'lishga asos bo'ldi.

1. *Tizimli yondashuvlarda* "SMTni – menejment tizimining bir ajralmas qismidir" deb qaralgan. T.Piters, S.N.Vereshagina, S.M.Vdovin, T.A.Salimova, V.D.Dorofeyev o'zining tadqiqotlarida korxonani rivojlantirish uchun korxonani bir tizim sifatida qarash zarurligini ta'kidlab o'tganlar. Shuningdek, ular korxonani – biznes olamning ajralmas qismi sifatida qaraganlar.

Tadqiqotchi V.D.Dorofeyev fikri bo'yicha SMT - sifatni boshqarish umumiy tizimning bir qismidir, shuningdek, mahsulot va xizmatlarning sifati - korxonani boshqarish samaradorligiga, hamda kadrlari va ularning malakasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Barcha darajadagi xodimlar - tashkilotning asosini tashkil qiladi va ularning to'liq ishtiroki tashkilotga ularning qobiliyatlaridan foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun sifat menejmenti konsepsiyalarini amalga oshirishda kadrlar sifatini oshirishga qaratilgan investitsiya, bu eng samarali investitsiya deb hisoblagan. Bundan SMT natijaviyligi ko'rsatkichi sifatida kadrlarni o'qitish rejasini bajarilishi, hamda korxonani malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirilishi ko'rish mumkindir.

Bilamizki, Total Quality Management (TQM) hozirda eng samarali sifat menejmenti modeli sifatida hisoblanmoqda. TQM ning asosiy tamoyili mahsulotni "o'z vaqtida" etkazib berish hisoblanadi. Shuningdek, TQMning samaradorligi bir vaqtning o'zida uch element – tashkilot, mahsulot va personalni takomillashtirish asosida xarajatlarni kamaytirishga olib kelishidadir.

2. *Boshqaruv bo'yicha yondashuvda* SMT - korxonani salohiyatini o'stirish manbai sifatida ko'riladi. Baholash asosida SMTning asosiy rivojlanish yo'nalishlari aniqlanadi.

Baholash ko'rsatkichlari kompaniya reytinglariga kiritiladi. Boshqaruv sifati reytingi korxonani faoliyatining majmuaviy ko'rsatkichi hisoblanadi. U barcha steykholderlar tomonidan tan olinadi. Unda ushbu reyting korxonani butun bir yaxlit tizim sifatida beriladi. Korxonani boshqaruv reytingi ham milliy, ham xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilishi mumkin [2].

Xalqaro reyting baholarda korxonani SMT quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishi mumkin:

- yetkazib beruvchilar sifati;
- ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish;
- "big data" dan foydalanish darajasi;
- professional boshqaruv darajasi [3].

Rossiya reyting agentliklari tomonidan korxonani reytingini aniqlaganida tovar va xizmatlarning sifati ko'rsatkichlarini, steykholderlar huquqlarining himoyalaniishi darajasini hisobga olinadi [4].

Rossiyali olimlar N.Yashin, L.Popova, S.Bocharova ilmiy tadqiqotlarida SMTni baholashda quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanishi kerak deb hisoblashgan:

- belgilangan standartlarni bajarilishi darajasi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qo'yilgan talablarga mosligi;
- iste'molchilarni ishonchini qozonish darajasi;
- yetkazib beruvchilar hom-ashyosi sifati;
- jarayonlar sifati va boshqalar [5].

Yekaterina Seyranovna Grigoryan va Nikolay Sergeyevich Yashin fikricha:

- korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari;
- biznes jarayonlari ko'rsatkichlari;
- xodimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari va xodimlarning o'z ishidan qoniqish darajasi;
- korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari;
- marketing faoliyati ko'rsatkichlari;
- innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari va boshqa korxonada faoliyatining bunday ko'rsatkichlari bilan korxonada faoliyatiga baho berish mumkindir [6].

Rossiyalik olim S.A.Korobov SMTni rivojlantirish maqsadida motivatsion jarayonlarga ahamiyat qaratish zarur deb hisoblagan. Xodimlarni rag'batlantirishning asosiy maqsadi har bir xodimning shaxsiy maqsadlarini tashkilot maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga erishishdir. Bunday holda, sifat menejmenti tamoyillaridan biri, *xodimlarni jalb qilish printsipi* to'liq amalga oshiriladi. Agar xodimlarning motivatsiyasi past bo'lsa, unda SMTni amalga oshirish va uning ishlashi deyarli imkonsiz bo'ladi [7].

Tadqiqotchi I.Yu.Ognetova fikricha, korxonada SMTni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ishlashi uchun jamoaviy ishlarni tashkil etish va rag'batlantirish, shuningdek xodimlarga qaror qabul qilish huquqini berish kerak. Jamoaviy ish ham mehnatni tashkil etish shakli, ham xodimlarni qo'shimcha rag'batlantirish usulidir, deb hisoblaydi [8].

Tadqiqotchi G.V.Fyodorova va O.Yu.Ivanova fikricha, *kadrlar qo'nimsizligini ortishi* tashkilotning iqtisodiy havsizligini pasayishiga olib keladi, bu esa iste'molchilarning shu tashkilot haqidagi taasurotlariga salbiy ta'sir qilishiga olib keladi [9].

3. Uchinchi, ya'ni *marketing bo'yicha yondashuvda* SMTni tanlashga

- 1) mijozlar talablari.
- 2) tashkilot kompetensiyalari ta'sir etishi mumkindir.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv - mahsulotlarning bozorda raqobatbardoshligiga erishishga qaratilgandir. Turli hil olimlarning qarashlarini ko'rib chiqamiz.

Tadqiqotchi M.Yu.Starenkov kompetensiyaga asoslangan yondashuv - mijozga yo'naltirilgan biznesning asosiy shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish - tashkilotni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashning zarurati - bu aniq mijozlarning o'ziga xos ehtiyojlari va kutishlarini aniqlashga asoslangan raqobatchilarga nisbatan qo'shimcha qiymat yaratishning individual mexanizmlarini taklif qilishdan iborat bo'lgan asosiy vakolatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. M.Yu.Starenkov: "Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning asosiy vakolatlari, agar ular iste'molchilarning talablarini chuqur o'rganish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida innovatsion

texnologiyalarni joriy etish asosida tashkilotning farqlovchi xususiyatlarini shakllantirsa, raqobatbardosh potentsialga aylantirilishi mumkin”, deb hisoblaydi [10].

Shuningdek, M.Yu.Starenkov tashkilotning mijozlarga yo‘naltirilganlikni quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholash mumkin deb hisoblaydi:

a) Internet xizmatidan foydalanish darajasi:

b) Call-markazlarning faoliyati;

c) Mijozlarning loyallik (sodiqlik) dasturlarini amalga oshirish. Loyallik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy vazifalari mijozlarni saqlab qolish, bir marta mahsulotni sotib olgan yoki xizmatdan foydalangan mijozlarning xaridlarini takrorlash va qo‘shimcha imtiyozlarni sotishdan iborat. Sodiqlik dasturlari kompaniya faoliyatida ilg‘or marketing texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi;

d) Mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etish mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvning bir qismi sifatida uning sifatini doimiy ravishda yaxshilash uchun mahsulot yoki xizmatning hayot aylanishining barcha bosqichlarida iste‘molchilar ma‘lumotlari va afzalliklarini kuzatish kerak.

e) Kompaniya faoliyatiga innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlarni joriy etish uni amalga oshirish uchun foydalaniladigan barcha resurslarni majburiy tijoratlashtirishni nazarda tutadi [10].

Tadqiqotchi E.V. Tixomirovaning ta‘kidlashicha, mijozga yo‘naltirilgan yondashuv ko‘p jihatdan xodimlarning samarali mehnatiga bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sifatini doimiy ravishda yaxshilashga asoslangan mijozlar bilan uzoq muddatli va barqaror munosabatlar o‘rnatishga e‘tibor qaratishni anglatadi.

Sifat menejmenti tizimida *marketing* - nafaqat hozirgi paytda, balki yaqin kelajakda ham dolzarb bo‘lgan operatsion biznes modelini shakllantiradi, deb aytishimiz mumkin. Marketing bo‘limi xodimlari nafaqat kompaniyaning tashqi aloqalarini ta‘minlaydi, balki ichki vaziyatlarni ham tahlil qiladi. Shuning uchun ular tashkilotning bugungi afzalliklarini va ertaga kerak bo‘lgan afzalliklarini aniqlaydilar. Tashkilot shiddatli raqobat sharoitida o‘zini ishonchli his qilishi uchun har tomonlama marketing tahlilini o‘tkazish kerak. Marketologlar bugungi kunda duch kelayotgan muammolarni aniqlaydi, nafaqat o‘z kompaniyasi, balki raqobatchilarning faoliyatini ham tahlil qiladi, yangi maqsadlar va dolzarb muammolarni hal qilish yo‘llarini belgilaydi.

Korxonaning marketing faoliyati SMTning samarali ishlashi uchun juda muhim jarayondir, chunki u barcha mavjud tarkibiy bo‘linmalarni jalb qilinishni talab qiladi [12].

Sifat menejmenti tizimida marketing bo‘limining o‘rni o‘ta muhimdir, chunki u orqali sifat menejmentining asosiy tamoyili - iste‘molchilarning istaklarini qondirish amalga oshiriladi. Shuningdek, marketing bo‘limiga yana bir muhim vazifa - mahsulotlar iste‘molchilari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish yuklangan.

Sifat menejmenti tizimi doirasida marketing bo‘limining bevosita vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahsulotlar yoki xizmatlar iste‘molchilarining talablari va kutishlarini to‘g‘ri aniqlash;

- mahsulotlar yoki xizmatlarga qo'yiladigan talablarni aniqlash, ishlab chiqarish, yetkazib berish masalalarini, shuningdek xizmatlar ko'rsatish shartlarini kelishib olish;
- iste'molchilarning barcha shikoyatlarini inobatga olish va ularga mahsulot va xizmatlarni hamda ularning reklama kanallarini o'zgartirish orqali o'z vaqtida javob berish [14].

Jadval - 1

Sifat menejmenti tizimi rivojlanishini baholash bo'yicha yondashuvlar

T/R	Sifat menejmenti tizimi samaradorligini baholash bo'yicha yondashuvlar	Yondashuv asoschilari	Sifat menejmenti tizimini rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari	Sifat menejmenti tizimini rivojlanishini baholash metodlari	Sifat menejmenti tizimi samaradorligi ko'rsatkichlari
1	Tizimli yondashuv	T.Piters, S.N.Vereshagina, S.M.Vdovin, T.A.Salimova, V.D.Dorofeev	tashkilotni boshqarish darajasi; stejkxolderlar bilan aloqalar mustahkamligi; kadrlar va ularning malakasi.	Mavjud emas	sifatli mahsulot ishlab chiqarilishi; tannarx pasayishi; kadrlarni o'qitish rejasini bajarilishi, korxonalar malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirilishi
2	Boshqaruv bo'yicha yondashuv	Listopadova Ye.V., Vinarik V.A., Tavasiev, I.A., Yashin N.S., Popova L.F., Grigoryan Ye.S., Grimashevich O.N.	Boshqaruvning professionallik darajasi; belgilangan standartlarni bajarilishi darajasi; ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qo'yilgan talablarga mosligi; iste'molchilarni ishonchini qozonish darajasi; yetkazib beruvchilar hom-ashyosi sifati; korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari; biznes jarayonlari	Mahalliy va xalqaro reytingda o'rini aniqlash metodlari; Sertifikatsiyalash; Iqtisodiy tahlil.	Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi; Globalizatsiya; Brendni tanilishi; Korxonalar imidji yaxshilanishi; Xalqaro reytinglarda yuqori o'rin olish; Hamkorlarning ortishi; Rentabellik ortishi.

			<p>ko'rsatkichlari; xodimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari; korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlari; kadrlar qo'nimsizligi darajasi. innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari.</p>		
3	Marketing bo'yicha yondashuv	M.Yu.Starenkov, E.V. Tixomirova	<p>mijozlar talablari; tahkilot kompetensiyalari; marketing faoliyati ko'rsatkichlari; Call-markazlarning faoliyati; Mijozlarning loyallik (sodiqlik) dasturlarini amalga oshirish. Kompaniya faoliyatiga innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlarni joriy etish;</p>	Mavjud emas	<p>iste'molchilarning istaklarini qondirish; sifatning ortishi; rentabellikni ortishi; xarajatlarning pasayishi.</p>
4	Raqamli texnologiyalar va raqamlashtirish darajasi bo'yicha yondashuv		<p>Internet xizmatidan foydalanish darajasi; BIG data dan foydalanish darajasi; Internet of things; Kompleks raqamlashtirish darajasi; Kadrlarning malakasi; Kiberxavfsizlik ta'minlanganligi darajasi</p>	Mavjud emas	<p>iste'molchilarning individual istaklarini qondirish; sifatning ortishi; rentabellikni ortishi; transaksion xarajatlarning pasayishi; shaffoflik ortishi; oldingi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kompleks tezkor tahlil qilish imkoniyati.</p>

(Muallif tomonidan tuzilgan)

Sifat menejmenti tizimi korxonalar resurslarining ichki tashkiliy o‘zaro ta’sirining integratori sifatida ishlaydi, buning natijasida sinergik ta’sir shakllanadi, bu tovarlar va xizmatlar sifatining oshishi, biznesning o‘shida ifodalanadi.

Xozirgi kunda korxonalarda raqamlashtirish jarayoni (texnologik innovatsiyalar; kadrlar yo‘nalishidagi innovatsiyalar; iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi innovatsiyalar) SMTning ishlash ko‘rsatkichlariga (tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, sifatni yaxshilash) ijobiy ta’sir etmoqda. Ammo kompaniyalarning SMTni raqamlashtirish risklari (kasbiy ko'nikmalarning pasayishi, ta'lim risklari, kiberhavfsizlik) hisobga olinishi shartdir [12].

Biz o‘tkazilgan tadqiqot natijasida shunday xulosaga keldikki, hozirda raqamli texnologiyalar va raqamlashtirish darajasi bo‘yicha SMT rivojlanishini baholash bo‘yicha ishlar kam olib borilgan. Shuning uchun, biz raqamli iqtisodiyot sharoitida SMT rivojlantirish va baholash usullarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot islarini olib borish zarur deb hisoblaymiz .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. GOST R ISO 9001–2015 Quality management systems. Requirements.
2. World Competitiveness Ranking [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.imd.org/centers/wcc/world-competitiveness-center/rankings/world-competitiveness-ranking>.
3. А.Д.Овсянко “Методика оценки систем менеджмента качества поставщиков”. [Электронный ресурс] - https://www.cfin.ru/management/iso9000/supplier_qs.shtml
4. Методология присвоения рейтингов надежности и качества услуг управляющим компаниям (некредитные рейтинги) [электронный ресурс] <https://www.raexpert.ru/docbank//779/59f/c4c/35e82cdf758bc04d8b308f4.pdf>
5. Н.С.Яшин “Развитие методологии анализа результативности системы менеджмента качества промышленных предприятий”. [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-metodologii-analiza-rezultativosti-sistemy-menedzhmenta-kachestvapromyshlennyh-predpriyatij/viewer>
6. Е.С.Григорян, Н.С.Яшин “Методические подходы к оценке результативности системы управления качеством”. [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-podhody-k-otsenke-rezultativnosti-sistemy-upravleniya-kachestvom>
7. С.А.Коробов и др. «Роль мотивации персонала в системе менеджмента качества современных организаций» [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-motivatsii-personala-v-sisteme-menedzhmenta-kachestva-sovremennyh-predpriyatij/viewer>
8. Огнетова, И. Ю. Роль мотивации персонала в системе менеджмента качества / И. Ю. Огнетова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2009. — № 6 (6). — С. 44-47. — URL: <https://moluch.ru/archive/6/459/> (дата обращения: 23.04.2023).
9. Г.В. Федорова, О.Ю. Иванова, «Оценка процесса управления персоналом в системе обеспечения экономической безопасности организации», [электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-protsesssa-upravleniya-personalom-v-sisteme-obespecheniya-ekonomicheskoy-bezopasnosti-organizatsii>

10. М.Ю.Старенков. Автореферат к диссертации к.э.н. на тему «Компетентностные императивы клиентоориентированного развития сферы банковских услуг» [электронный ресурс] <https://www.dissercat.com/content/kompetentnostnye-imperativy-klientoorientirovannogo-razvitiya-sfery-bankovskikh-uslug>

11. Ковригин Е.А., Васильев В.А. Пути развития СМК в условиях цифровизации // Компетентность / Competency (Russia). — 2020. — № 6.

12. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Современные проблемы управления качеством на предприятиях лёгкой промышленности в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 81-83p. [электронный ресурс] <https://colloquium-journal.org/wpcontent/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1>.

13. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Роль цифровизации в развитии социально-экономических систем в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 83-86p. [электронный ресурс] <https://colloquium-journal.org/wpcontent/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1>

14. Khalilov N.Kh., Safina N.T. “DIGITALIZATION - AS THE MAIN FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM OF THE TEXTILES INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN”. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: [электронный ресурс] <https://www.scholarexpress.net> Volume-19, February-2023 ISSN: 2749-3601.

15. Khalilov Nurullo Khamidillayevich, Safina Nafisa Talgatovna, “Development of the quality management system of industrial enterprises the main factor of increasing the competitiveness of products”. “World Economics and Finance Bulletin”, 2022. [электронный ресурс] <https://www.scholarexpress.net/>

16. Bakhodir Abdullaev, Ziyoydin Israilov, Alisher Sotvoldiev, Muhiddin Hojiboev, & Mukhamadieva Makhliyokhon. (2023). Leading research trends on innovation funding: a bibliometric analysis approach. [электронный ресурс] <https://doi.org/10.5281/ZENODO.7656995>.

17. Абдуллаев Б. А., Рахматджанов Л. Т. Миллий компанияларни бошқаришда нейроменежментни қўллаш истиқболлари //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1457-1464. [electron resurs] <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-kompaniyalarni-bosh-arishda-neyromenezhmentni-llash-isti-bollari/viewer>

Аскарров Баходиржон – д.ф.-м.н.
Андижанский машиностроительный институт,
профессор кафедры “Метрология, стандартизация и
управление качеством продукции”

dr.asqarov@mail.ru

+998900342424

Фаттаев Мухаммаджон Авазбек угли,
Андижанский машиностроительный институт,
ассистент кафедры “Метрология, стандартизация и
управление качеством продукции”

muhammadjonfattayev5@gmail.com

+998942975009

ВЛИЯНИЕ ГЕОМЕТРИИ КРОВЕНОСНЫХ СОСУДОВ В НОРМЕ И ПАТОЛОГИИ ГОЛОВНОГО МОЗГА

QON TOMIRLARI GEOMETRIYASINING NORMAL VA MIYYA PATOLOGIYASIGA TA’SIRI

INFLUENCE OF THE GEOMETRY OF BLOOD VESSELS IN THE NORM AND PATHOLOGY OF THE BRAIN

Аннотация

Изучено влияние геометрии кровеносных сосудов на динамику процессов метаболизма в различных органах человека. Установлена связь кинетических параметров процесса роста злокачественных опухолей от фрактальной размерности кровеносной сети органа. Найден критерий определения критического значения параметра, качественного перехода процесса роста опухоли.

Annotatsiya

Odamning turli a’zolaridagi qon-tomirlar geometriyasini metabolizm jarayonlariga ta’sir dinamikasi o’rganildi. Xavdli o’smalarining o’sish jarayoniga ta’sir etuvchi kinetik parametrlar bilan qon tomirlar tarmog’ini fractal o’lchovi o’rtasidagi bog’liqligi aniqlandi. Parametrlarning kritik qiymatini, o’simta o’sishi jarayonining sifatli o’tishini aniqlash uchun mezon topildi.

Annotation

The influence of the geometry of blood vessels on the dynamics of metabolic processes in various human organs has been studied. The relationship of kinetic parameters of the process of growth of malignant tumors from the fractal dimension of the circulatory network of the organ has been established. A criterion for determining the critical value of the parameter, the qualitative transition of the tumor growth process, has been found.

Kalit so’zlar: tomir geometriyasi, fraktallik, o’lcham, o’lchov, angiogenin, arteriovenoz malformatsiya.

Ключевые слова: геометрия сосуда, фрактальность, размер, размерность, ангиогенин, артериовенозная мальформация.

Keywords: vessel geometry, fractality, size, dimensionality, angiogenin, arteriovenous malformation.

Введение. Исследование геометрии кровеносных сосудов даёт важную информацию для выявления патологического состояния различных органов человека. В последние годы широко используются КТ и МРТ технологии получения томографических изображений головного и спинного мозга [19]. МРТ-ангиография в отличие от традиционной ангиографии не требует введения в сосуды контрастного вещества и получит изображения с высоким разрешением. При артериовенозной мальформации (АВМ) наблюдают клубки переплетенных артерий и вен мозга. Как известно, при онкологических заболеваниях также наблюдают увеличение плотности кровеносных сосудов в окрестности развития раковой опухоли. Таким образом, определение таких аномалий кровеносных сосудов представляет важную задачу современной медицинской диагностики [7,11,12,18].

Материалы и методы. Методы фрактальной геометрии позволяют определить качественные характеристики объекта в зависимости от размера и размерности его геометрической структуры [6]. В процессе измерения физической величины определяют числовое значение путем сравнения с определенной мерой. Выбор единицы измерения произвольный. Если длина линии сравнивается с эталоном метра, то площадь поверхности и объем фигуры имеют размерность метр квадрат и метр куб соответственно. Однако можно построить такие фигуры, размерность которых может оказаться дробным (фрактальным). Построим из 4 отрезка равного по одному метру следующую фигуру. Числовое значение расстояний между концами по прямой линии $R=3$; по контуру ломанной линии $L=4$. Уменьшаем масштаб фигуры 3 раза и увеличиваем их число до четырех. Из них построим опять исходную фигуру. Повторив данную процедуру N раз, получаем так называемые фигуры Коха. Размерность его определяется по формуле:

$$n = \frac{\ln 4}{\ln 3} = 1.26$$

Отличительной особенностью фрактальных структур является их дробная размерность и свойство самоподобности. Такие геометрические объекты становятся моделями при изучении ряда синергетических явлений. Целая часть определяет число параметров порядка, а дробная – случайные особенности в поведении изучаемого объекта. Методы фрактальной геометрии в сочетании с представлениями синергетики позволяют моделировать поведение нелинейных систем в сильноравновесных условиях.

Рассмотрим процесс образования кровеносных сосудов в различных органах человека. Фрактальность структуры кровеносных сосудов существенно влияет на состояние различных органов человека в норме патологии. С увеличением фрактального размера клубка кровеносных сосудов увеличивается их плотность и патологическая активность органа.

На стадии синтеза ангиогенина кровеносный сосуд сохраняет исходную структуру. Однако постепенно происходит разветвление кровеносного сосуда. Это приводит к росту плотности и клубковой формы сосуда. В результате происходит стимулирование процесса синтеза ангиогенина и дальнейшее продуцирование фактора роста, стимулирующего пролиферацию клеток сосуда. Последние мигрируют по поверхности стенки сосуда, способствуя, таким образом, к его росту, что приводит к острому нарушению кровообращения в соответствующем участке ткани и развитию инфаркта [9,10].

Один из принципов лечения – ингибирование синтеза ангиогенина. Биохимия АВМ связана с содержанием ангиогенина. Избыточное содержание ангиогенина приводит к образованию АВМ. Поэтому необходимо исследовать влияние препаратов на механизм синтеза ангиогенина. АВМ охватывает в наибольшей степени ряд артериальных и венозных сосудов, в которых сильнее всего выражена механическая нагрузка на стенку. В первую очередь – абдоминальная аорта, затем идут коронарные артерии, подколенная артерия, бедренная, грудная аорта и ее дуга, сонные артерии [13-17].




РИС.1. Каналы притока и выделения ангиогенина

Запуск АВМ начинается с дисфункции стенки сосуда под действием факторов риска. Это создает на поверхности сосуда зоны повышенной клейкости и проницаемости. При этом образуются видоизмененные клетки, которые воспринимаются иммунной системой организма как чужеродные и на них вырабатываются антитела, макрофаги усиленно поглощают такие клетки, превращаясь в опухолевые клетки. Появление опухолевых клеток является характерным морфологическим признаком начало АВМ, что сопровождается разрушением капиллярных сосудов.

Размер и размерность фрактальных объектов: в геометрии Эвклида изучаются объекты с целыми размерностями. Точка (0), прямая (1), плоскость (2) и сфера (3)

являются объектами с целыми размерностями. Объект называется фрактальным, если его размерность является дробным. Объем любого объекта вычисляется по формуле $V=A \times R^d$, где A и d параметры зависящие от формы объекта. Для точки $A=0$, и $d=0$; для прямой $A=1$, и $d=1$; для круга $A=2\pi$, и $d=2$; для сферы $A=4\pi/3$, и $d=3$, здесь d -размерность, а R -линейный размер объекта.

While studying a foreign language, students get acquainted with a new, often completely different, grammatical structure, with new lexical and phonetic means of expressing thoughts and gradually begin to realize that there are phenomena and laws of development common to all languages, and there are phenomena inherent only in their native or only in a foreign language. The work on the content, language and style of original works in a foreign language is of educational importance.

Educational tasks are solved during the whole process of teaching a foreign language. Teaching a foreign language should contribute to the formation of a student's dialectical-materialistic worldview in the field of a fairly large range of issues.

Reading excerpts from works of foreign literature, getting acquainted with life abroad through these works, the student is brought up in the spirit of internationalism.

Learning a foreign language also acquires educational significance due to the fact that the content of educational texts and texts for additional reading develops in students a sense of love and devotion to their homeland, their people, and other qualities necessary for the builder of society. By reading excerpts of works by progressive foreign writers depicting life in capitalist countries, students get the opportunity to compare life in these countries. In concrete pictures of life in our country and in capitalist countries, they begin to represent superiority more realistically. Educational tasks of teaching are solved both through the content of the literary material on which the language is studied, and in the process of studying linguistic phenomena and in the process of developing appropriate skills and abilities. A specific consideration of how these tasks are implemented in the process of teaching a foreign language will be given further in the relevant sections of the manual.

Teaching a foreign language should be structured so that students see the specific need for language proficiency, so that they see the specific practical benefits of knowing a foreign language.

The demonstration of the application of knowledge obtained in each subject of the school course to practice is very important; such a demonstration acquires special significance in teaching a foreign language, since the importance of proficiency in the latter is not fully understood by students. Therefore, the teacher should be able to explain to students the role of

a foreign language in the modern conditions of ever-expanding cultural international communication, in the study of foreign technical and scientific experience, etc. By arousing students' interest in learning a foreign language, the teacher will create conditions for successful mastery of this subject. At the same time, it is necessary to teach the language at such a theoretical level that would fully correspond to the level of development of students, their educational interests and would contribute to the further development of these interests.

The solution of the above and many other issues of methodology arising from them depends on a number of factors and requires very versatile and in-depth knowledge.

Bibliography

1. Г.А.Абдурахмонов. Узбек тили грамматикаси. 1 том, Изд-во “Фан”, Т., 1975, с.366
2. Бодуэн де Куртенэ И.А. О смешанном характере всех языков. В кн. : И.А.Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию, т.1, М., 1963, с 37Г.
3. Буранов Ж.Б. Инглиз ва узбек тилларининг киёсий грамматикаси. Т., 12 бет.
4. Виноградов В.В. О некоторых вопросах русской исторической лексикологии. Изд. АН СССР отд.лит.и яз., 1953,т.12,вып.3,с. 193.
5. Karimova Feruza Inoyatovna “Ingliz tilidagi matnlarni tarjima qilishda ma’nomlarni berish” Образования и наука в XXI веке (Россия) Выпуск №24 (том 2) (март 2022)
6. Karimova Feruza Inoyatovna “Methods of effective use of models in translation of English text into Russian an Uzbek” International Conference of Advance Research in Humanities, Sciences and Education 28.03.2022 Turkey
7. Karimova Feruza Inoyatovna “Some innovation in teaching English” International Conference of Advance Research in Humanities, Sciences and Education 28.03.2022 Turkey
8. Karimova Feruza Inoyatovna “Historical reality in Uzbek literature and discourse analysis of folk songs” O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Andijon Mashinasozlik instituti ISSN 2181-1539 2022 yil
9. Karimova Feruza Inoyatovna “Xorijiy tilni o‘rganish yangi metodikasi, Andijon mashinasozlik instituti” «Raqqamli hayot va ijtimoiy fanlarni ning barkamol avoldni voyaga yetkazishdagi o‘rni va ahamiyati: dolzarb muammolar va istiqbollar» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 12 aprel 2022 yil, Andijon
10. Мамадалиев Б. Хозирги узбек тилида кушма сузлар. Кукон, Давлат Пединститут Илмий ишлар туплами. Фаргона, 1958, с.24.
11. Ярцева В.Н. Сравнительная типология и ее связи с контрастивной лингвистикой. – НДВШ, фил.науки, 1978
12. . Karimova Feruza Inoyatovna “Ingliz va o‘zbek tillardagi qoshma fe’llarning semantic tahlili” O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Andijon Mashinasozlik instituti ISSN 2181-1539 2022 yil № 5(maxsus son 2-tom)
13. Scholar's Digest - Journal of Multidisciplinary Studies Karimova Feruzakhan Inoyatovna Some ways to teach young students to speak a foreign language 16-18 p jif: 7.755(impact factor) Volume 2, Issue 3, March, 2023 ISSN (E): 2949-8856
14. In Volume 4, Issue 3 of Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), March, 2023. 93-96p Karimova Feruzakhan Inoyatovna Some topical

issues in the process of translation of texts in the field of mechanical engineering ISSN:2776-0995 SJIF(2022):5.773 Impact factor (2022): 7.545

Nosirov Ilxom Abbosovich - iqtisod fanlari doktori,

“Menejment” kafedrası dosenti

nosirovilomzon@gmail.com

tel: +99894 398 47 44

Farg‘ona politexnika instituti

Anvarjon Maxmudov

“Menejment” kafedrası assistenti

anvar_maxmudov1968@mail.ru

tel: +99890 630 31 69

Farg‘ona politexnika instituti

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI ANIQLASHNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫЯВЛЕНИЕМ НАЛОГОВЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR MANAGING THE DETECTION OF TAX VIOLATIONS IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY

Annotasiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan soliq tizimini rivojlantirish va takomillashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, shuningdek mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni ustuvor yo‘nalishlari doirasida soliq huquqbuzarliklarini oldini olish va bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning asosiy natijalari bayon etilgan. Huquqbuzarliklar ta’sirida soliq to‘lovchilarni soliqlarni yashirishi va soliq to‘lovlaridan qochishining sabablari atroflicha tahlil qilingan. Mazku masalaning dolzarbligidan kelib chiqib, huquqbuzarliklarning iqtisodiyotni, xususan soliq tizimini boshqarishdagi ta’sirini kamaytirishda holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish va ulardan foydalanishning tizimli boshqaruv menejmentini yaratish zaruriyati ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье описаны основные результаты научных исследований в области развития и совершенствования налоговой системы, проводимых в нашей стране, а также основные результаты научных исследований, направленных на предупреждение и ликвидацию налоговых правонарушений в рамках приоритетных направлений экономических реформ, реализуемых в нашей стране. Подробно проанализированы причины, по которым налогоплательщики скрывают налоги и уклоняются от уплаты налогов из-за влияния преступлений. Исходя из актуальности данного вопроса, выявлена необходимость внедрения эффективных механизмов,

направленных на предупреждение ситуаций по снижению влияния правонарушений в управлении экономикой, в частности, налоговой системой, и создание системного управления их применением.

Annotation

This article describes the main results of scientific research in the field of development and improvement of the tax system conducted in our country, as well as the main results of scientific research aimed at preventing and eliminating tax violations within the priority directions of economic reforms implemented in the country. The reasons why taxpayers hide taxes and evade tax payments due to the influence of crimes have been thoroughly analyzed. Based on the urgency of this issue, the need to introduce effective mechanisms aimed at preventing situations in reducing the impact of offenses in the management of the economy, in particular, the tax system, and creating a systematic management of their use has been revealed.

Tayanch soʻzlar: soliq menejmenti, soliq huquqbuzarliklari, soliq toʻlovlaridan qochish, soliq bazasi, soliq munosabatlarini boshqarish, hujjatsiz mahsulot, noqonuniy naqd pul, barter, meʼyeriy hujjatlar, soliq maʼmurchiligi

Ключевые слова: налоговый менеджмент, налоговые правонарушения, уклонение от уплаты налогов, налоговая база, управление налоговыми отношениями, бездокументные товары, незаконная валюта, бартер, нормативные документы, налоговое администрирование

Keywords: tax management, tax offenses, tax evasion, tax base, management of tax relations, paperless goods, illegal currency, barter, regulations, tax administration

Kirish

Islohotlarni bosqichma-bosqich oʻtkazilishi demokratik va bozor islohotlari yoʻlidan izchil va ogʻishmay borish, kuchli ijtimoiy siyosat va aholining eng nochor qatlamlarini himoya qilish bilan birgalikda, Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan tub oʻzgarishlarning ijobiy natijalarini, ularni qoʻllab-quvvatlanishi va eʼtirof etilishini oldindan belgilab beradi.

Jamiyat va iqtisodiyotni yanada rivojlantirish yoʻnalishlarini va shu oʻrinda yuzaga kelayotgan yangi munosabatlarni salbiy taʼsirlaridan himoyalash zaruriyati tugʻildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Prezident Shavkat Mirziyoyev Davlat soliq qoʻmitasida sohani takomillashtirish boʻyicha navbatdagi vazifalar yuzasidan yigʻilishda: “Bugungi soliqchilar 3 yil oldingi soliqchilar emas. Zamon ham oʻzgardi, bular ham oʻzgardi. 5 yilda biz mutlaqo yangi soliq tizimini yaratdik. 2020 yilda koʻp muhokamalardan soʻng, biz bugungi Oʻzbekistonimizga munosib boʻlgan yangi Soliq kodeksini qabul qildik. 13 tadan 9 taga soliq turlari kamaytirildi. Mulk soligʻi 5 %dan 1,5 %ga tushdi. QQS 20% dan 15% ga tushdi. 2023 yil 12 % ga tushirishimiz kerak. Buning uchun koʻp ish qilishimiz kerak. Odamlar qachon bizdan rozi boʻladi? Soliq yuki kamayib, daromadlarimiz oshib borsa, rozi boʻladi”¹, deb taʼkidlaganlar.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Soliq yukini kamaytirish va sohani raqamlashtirish vazifalari belgilandi” Davlat soliq qoʻmitasida sohani takomillashtirish boʻyicha navbatdagi

Davlat organlarining soliq huquqbuzarliklarini kurashga qaratilgan ishlari jismoniy va yuridik shaxslarni yo‘l qo‘ygan xatolari uchun ta‘qib qilish bilan chegaralanib qolib, uning asl sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Buning natijasida yangi-yangi xatoliklar, soliq to‘lashdan qochish, soliq bazasida daromadlarni to‘liq ko‘rsatmaslik holatlari vujudga kelmoqdaki, buni bartaraf etish, oldini olish uchun ilmiy jihatdan o‘rganishni talab etadi.

Huquqbuzarliklar ta‘sirida soliq to‘lovchilarni soliqlarni yashirishi va soliq to‘lovlaridan qochishining asl sabablari atroflicha tadqiq qilinmagan. Muammolarni dolzarbligidan kelib chiqib, huquqbuzarliklarning iqtisodiyotni, xususan soliq tizimini boshqarishdagi ta‘sirini kamaytirishda holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish, bunday mexanizmlardan foydalanishning tizimli boshqaruv menejmentini yaratish tadqiqotimizning mavzusi sifatida tanlandi.

Respublika iqtisodini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy iqtisod tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish va rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Bu borada soliq tizimidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf etish menejmenti orqali tartibga solish, soliqlarni rag‘bat funksiyalarini keng ko‘lamda qo‘llash, soliqdan qochish holatlarini tezkor aniqlash, tahlil qilish va oldini olish dolzarb sanaladi. Shundan kelib chiqib, soliq tizimida huquqbuzarliklar ta‘sirini kamaytirish, samarali soliq mexanizmini yaratish muhim vazifa sanaladi. Mazkur tadqiqot ishi hukumatimiz tomonidan qabul qilingan davlat dasturlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

Adabiyotlar sharhi

Soliq huquqbuzarliklari va umuman soliq munosabatlari hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda doimiy sodir bo‘lib turadigan, jamiyat a‘zolarining bu holatga oddiy holdek munosabatda qaralmoqda. Adabiyotlarda bu haqda soliq huquqbuzarliklari umumiy jihatlari tahlil qilinib yoritilib borilmoqda, lekin mamlakat byudjeti daromadlar qismini bajarish va qayta taqsimot hisobiga jamiyat taraqqiyotidagi kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni bajarish, aholiga xizmat ko‘rsatish hamda boshqa soha masalalarini hal etishda qiyinchiliklarga, nomuttanosibliklarning aniq bir ko‘rinishlariga duch kelinmoqda.

Soliq huquqbuzarliklarini nazariy va ilmiy jihatdan talqin qilish maqsadida bir qator chet ellik mualliflar: D.Batteros, D.Bleyds, R.Bromley, Y.Borosh, D.Vebster, P.Volg‘f, S.Genri, K.Djons, D.Kasel, D.Kilgour, D.Mid, K.Morrison, V.Paton Kalbertson, A.Portes, M.Romer, S.Sasen-Kub, S.Sempson, P.Fidler, E.Fayg, P.Ferman, K.Hart, Dj.Harris, Dj.Xg‘yutson, L.Shelli, F.Shnayder, U.Sichi, D.Enste, G.Yamada, Yu.Fgofonov, D.Aminov, I.Bobkova, N.Bolova, V.Verin, S.Glinkina, V.Dadalko, V.Yesipov, I.Klyamkin, V.Ispravnikov, A.Krilov, A.Korchagin, Yu.Latov, G.Mishin, V.Ovchinskiy, Ye.Panova,

vazifalar yuzasidan yig‘ilishi yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan. https://uza.uz/oz/posts/soliq-yukini-kamaytirish-va-sohani-raqamlashtirish-vazifalari-belgilandi_355875?q=%2Fposts%2Fsoliq-yukini-kamaytirish-va-sohani-raqamlashtirish-vazifalari-belgilandi_355875

Ye.Rumyansyeva, R.Satuyev, L.Timofeyev, Yu.Siganov, N.Chernina, D.Shroyer, Yu.Shishnin, P.Xlyebnikov, N.Yaskovalar bu ishga qo‘l urganlar

Soliqqa oid huquqbuzarliklar masalalari bilan bog‘liq ilmiy izlanishlarni mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Vaxobov, E.Gadoyev, I.Jamolov, N.Jo‘rayev, A.Isaxodjayev, A.Ortiqov, A.Soliyev, B.Toshmurodova, N.Kuziyeva, N.To‘xliyev, P.Yo‘ldoshev, N.Usmonov, A.O‘lmasov, Z.Qurbonov, Sh.Toshmatov, A.Shestakov, Q.Yahyoyevlar ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Yuqoridagi tadqiqot ishlarida soliq huquqbuzarliklarini oldini olish bo‘yicha tadqiqotlarning yetarlicha olib borilmaganligi, O‘zbekiston Respublikasida soliq huquqbuzarligini oldini olish, mavjud tizimini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish hamda yashirin iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani tayyorlashda ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash kabi statistik usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Har birimiz hayotiy tajribamiz orqali biladigan bilimlar mavjud. Siyosatdan tashqari bu bilimlarga tibbiyot, boshqaruv, ta‘lim, iqtisod, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalar kiradi. O‘zimizning tayyorgarligimizdan qat‘iy nazar kunlik har xil ijtimoiy-iqtisodiy holatlarga duch kelamiz. Mehnat qilamiz - ijtimoiy boylik yaratamiz yoki o‘z tajribamizni orttiramiz, daromad olamiz, narxlarni o‘zgarishini kuzatamiz va bir vaqtning o‘zida iste‘molchi hisoblanamiz.

Boshqaruv - ko‘p yo‘nalishli mazmunga ega va uni insoniyat rivojlanishi bilan to‘ldirilib boriladi. Boshqarish (iqtisodiyotda) - xo‘jalik ob‘yektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni; sub‘yektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy ob‘yektlarga ongli maqsadga muvofiq ta‘sir ko‘rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo‘naltirish va ko‘zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi. Boshqarish xo‘jalik faoliyati davrlari uchun ishlab chiqiladigan rejalariga muvofiq holda olib boriladi.

Boshqarishning iqtisodiy, ma‘muriy va ijtimoiy ruhiy usullari mavjud. Boshqarishning iqtisodiy usulida kutilgan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy vositalardan foydalaniladi. Bu vositalar (rejalashtirish, texnik iqtisodiy tahlil, foyda, rentabellik, narx, kredit, moddiy rag‘batlantirish, soliq va b. dastaklar)dan to‘g‘ri foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Boshqarishning ma‘muriy usuli buyruq va farmoyishlar asosida olib boriladi. Ma‘muriyat o‘z xo‘jaligi doirasida bo‘limlar, guruhlarni, shuningdek xodimlarni tabaqalashtirib, ularning vazifalari, mas‘uliyati va huquqini belgilaydi. Unda rejalashtirish, resurslarni, foydani, tayyor mahsulotni taqsimlash, mablag‘lardan foydalanish markazlashtirilgan tartibda olib boriladi. Ijtimoiy ruhiy usuldagi boshqarish ijtimoiy ma‘naviy vaziyatga ta‘sir etish orqali kishilarning fe‘l atvori, ruhiyatini hisobga olib, ularning ijtimoiy talabini qondirish yordamida olib boriladi. Iqtisod mazmunan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ketma-ketlik, ishlab chiqarish-taqsimlash-ayirboshlash-iste‘moldan iborat. O‘zbekistonda iqtisodiy munosabatlarni ma‘muriy buyruqbozlik tartibidan - bozor munosabatlariga asoslangan raqamli iqtisodiyot

yoʻnalishiga oʻtishda bir qancha muammoli vaziyatlarni yechishiga toʻgʻri keladi. Hozirgi kunda yechilmagan asosiy vazifalardan biri bu yashirin iqtisodga qarshi kurashdir. Bizga maʼlumki, iqtisod qonunlarga amal qilishiga koʻra ikkiga boʻlinadi: biri davlat qonunlari asosida ishlovchi iqtisodiyot; ikkinchisi davlatni taqsimlash huquqidan mahrum etuvchi qonunga zid ravishda faoliyat koʻrsatuvchi soliq huquqbuzarliklarini sodir etuvchi xoʻjalik subʼyektlari mavjud.

Soliq huquqbuzarliklarini ikki yoʻnalishda boʻladi: noformal (noanʼanaviy) va kriminal (noqonuniy) huquqbuzarliklar. Jamiyatda davlat nazoratidan chetda amalga oshirilayotgan iqtisodiy faoliyatdagi noqonuniy hatti-harakatlar, soliq qonunchilik normalaridan qochish shuningdek, sunʼiy ravishda daromadlarni yashirish kabi norasmiy faoliyatlarlar uchrab turadi.

Rasmiy faoliyat subʼyektlariga quyidagilar kiradi:

- ❖ roʻyxatdan oʻtgan tashkilotlar;
- ❖ roʻyxatga olingan yakka tartibda faoliyat koʻrsatuvchi tadbirkorlar;
- ❖ asosiy ish joyidan tashqarida qoʻshimcha ravishda roʻyxatdan oʻtib daromad olayotgan jismoniy shaxslar.

Norasmiy faoliyat subʼyektlariga roʻyxatdan oʻtmasdan, daromadlarini yashirgan holda faoliyat olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslar kiradi, yaʼni:

❖ yashirin ishlab chiqarish va buxgalteriya hisob-kitoblarida aks etirmasdan savdo-sotiq faoliyatini amalga oshirish;

- ❖ qalbaki hujjatlar asosida «bir kunlik» firmalar tashkil etish;
- ❖ hisob-kitoblarda noqonuniy naqd puldan yoki barterdan foydalanish;
- ❖ hujjatsiz mahsulot sotib olish yoki sotish;
- ❖ nazorat kassa mashinalaridan foydalanmasdan savdo qilish;
- ❖ yollanma ishchilarni shartnoma yoki kontrakt tuzmasdan ishga olish;
- ❖ raqobatchi firmalarni maxfiy maʼlumotini bilish maqsadida ishlab chiqarish shpionaji bilan shugʻullanish;

- ❖ iqtisodiy va siyosiy raqobatchilarini nomini bulgʻash maqsadida faoliyat olib boorish;
- ❖ bank hisob varaqasidagi pullarni foiz hiosbiga naqd pulga yechish;
- ❖ plastik kartochkalardagi pullar bilan naqd pullar oʻrtasidagi tafovut;
- ❖ kontrabanda yoʻli bilan mamlakat ichkarisiga tovarlar olib kirish va sotish.
- ❖ tibbiyot xodimlari tomonidan ishdan boʻsh vaqtlarida koʻrsatayotgan tibbiy xizmatlari;
- ❖ repititorlik xizmatlari;
- ❖ kichik hajmdagi maishiy buyumlarni taʼmirlash ishlari;
- ❖ transport xizmatlari;
- ❖ uyda bolaga qarab turish, katta yoshdagilarga qarash xizmati;
- ❖ elektr ustalarining ishdan boʻsh vaqtidagi xizmatlari;
- ❖ sartaroshlarning xizmat joyidan tashqari bajargan ishlari;
- ❖ uyda yetishtirilgan mevalar savdosi va boshqalar.

Raqamli iqtisodiyot qoʻllanilishi ortidan yana biri soliqdan qochish uchun keng maydon boʻlgan sohalar yotibdiki, bu ham boʻlsa elektron tijoratdir. Elektron tijoratning turlari boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

- tovarlarni internet tarmog‘i orqali sotish;
- jismoniy sotuvchisi bo‘lmagan holda elektronika mahsulotlarini sotish;
- real vaqt sharoitida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish (brokerlik xizmatlari, pullarni investitsiya qilish xizmatlari);
- axborot xizmatlari (pullik saytlar, ma’lumotlar bazasiga kirish);
- telekommunikatsiya xizmatlari va boshqalar.

Eng asosiysi O‘zbekiston iqtisodiyotini shaffof olib bormaslik holati o‘z-o‘zidan chet el investorlari bilan muammolar bo‘lishiga olib keladi. Bu bugungi davlatimiz va jamiyatimiz strategiyasiga to‘g‘ri kelmaydi va O‘zbekiston xalqaro investorlari uchun yaxshi joy bo‘laolmasligiga sabab ham bo‘ladi.

Tadqiqotlarimiz va ilmiy qarashlarimizning natijalari asosida aytish mukinki, yangi bozor iqtisodiyoti, moliyaviy bozor, bank ishining rivojlanishi, kooperativlar ishini olib boruvchi hujjatlar biznes bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslarni ham ancha o‘ylashga majbur qilmoqda, ya’ni, bu hodisa va o‘zgarishlarning foydali tomonlari quyidagilar, deb bilsa bo‘ladi:

1. Davlat boshqaruv organlarining egiluvchanligi (sharoitga asoslanib qonunlarni o‘zgartirish).
2. Mavjud qonundan chetlanib vaziyatni o‘rganish va ayrim soliqlarni bekor qilish yoki yengillashtirish.
3. Ayrim ish bermaydigan normalarni (qoidalarni) chetlab o‘tish.
4. Rahbar shaxslar ishtiyoq bilan ishlashga moyillik bildiradi.
5. Ayrim sarf-harajatlarning qisqarishi (Masalan: qonuniy jarima).
6. Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikni holatiga ko‘ra harakatdagi qonunlarimizni qay darajada samaradorligini ko‘rib islohotlar o‘tkazilayotganligi.

Bularning ichida kriminallashtirishning salbiy tomonlari ham yo‘q emas:

1. Yangi jinoyatlarga sharoit tug‘ilaveradi.
2. Davlatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligiga putur yetadi.
3. Korrupsiya va jinoyatchilik bilan kurashga davlat katta mablag‘ sarflaydi.
4. Davlat qabul qilgan qonunlar yangilanmaydi degan tushunchalarni tarqatish.
5. Qonunchilik tamoyillarini buzish.
6. Soliqlardan tushgan foydani kamayishi, inflyasiyani tug‘dirish.
7. Pora berish uchun noqonuniy pul topish yo‘llarini qilish, noqonuniy biznes haqini ko‘tarilishiga olib keladi.
8. Korxonalar sarf-harajatlarni oshirib o‘z foydasini ko‘zlash, yangiliklar kiritish va xokozo.

1-jadval

Turli iqtisodiy tizimlardagi soliq huquqbuzarliklari ko‘rinishi

Iqtisodiy tizim	Soliq huquqbuzarliklari sub’yektlari (shaxslari)	Sabablari	Soliq huquqbuzarliklari shakllari
Yaxshi rivojlangan davlatlar	Shaxslar, yollanma ishchilar.	Mehnat va qora bozorga kirish uchun	Xizmat ko‘rsatish sohasida yashirin

		daromadni ko'paytirish.	ishchi kuchidan ko'proq foydalanish
	Firmalar: xususiy va juda kichik kompaniyalar.	Soliqlarni kamaytirish evaziga sarf harajatlarni kamaytirish.	Past sortli barter, buxgalteriya hisobotini chalg'itishi
Rivojlanayotgan davlatlar	Bilim darajasi past bo'lgan shaxslar asosan kambag'allar, qishloq xo'jaligida ishlovchilar	Yagona daromad manbaini ta'minlash uchun.	Iqtisodning hamma bo'g'inlarida yashirin ishchi kuchidan foydalanish.
	Firmalar: mayda kompaniyalar mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlar	Ishchi kuchi va boshqa korxonalar zaruriyatlariga sarf-xarajatlarni qisqartirish	Barter savdo, yashirin ishchi kuchi, tartiblashmagan xususiy shaxslarning harakati.
O'tuvchan iqtisodli davlatlar.	Aholining hamma tabaqalari barcha kasb egalari.	Ayrimlar noan'anaviy iqtisodga ishonadilar, boshqalar faqat qo'shimcha daromad manbai sifatida qaraydilar.	Ishchi kuchining nazorati zaifligi, ko'plab barter bitimlar va mayda savdogarlik (chayqovchilik)
	Firmalarni uncha ko'p bo'lmagani rasmiy holda ish olib boradilar aksar firmalar qonuniy va noqonuniy sektorda ish olib boradilar	Aksar firmalar noqonuniy ishlaydilar, boshqalari sarf harajatlarni kamaytirish niyatida noqonuniy iqtisodga suyanadilar. Noaniq bo'lgan soliqlar tizimi, ularni umuman to'lmaslikka undaydi.	Nazoratni kamligi, korrupsiya, barterning kuchayishi

“Soliq huquqbuzarliklari” yuzasidan turli xil fikrlar beriladi. Shulardan biri, soliq huquqbuzarliklari – bu belgilangan qonunlarga zid bo'lgan iqtisodiy faoliyatdir. Boshqa fikrlarga qaraganda soliq huquqbuzarliklari bu moddiy boyliklarni rasman statistik hisobga olinmagan va jamiyat orqali nazorat qilinmagan ishlab chiqarish, almashish, bo'lishdir.

Fikrimizcha, soliq huquqbuzarliklari davlat hisobidan va nazoratidan chetda rivojlanganligi natijasida rasmiy statistika ma'lumotlarida aks etmaydigan xo'jalik faoliyatidir.

Soliq huquqbuzarliklari milliy xo‘jalik tizimida yagona emas. Bu holat o‘zgarib turadi, bunga sabab tashqi muhitning o‘zgarib turishi, ya‘ni turli iqtisodiy tizimda o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lishidir.

Xulosa va takliflar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq huquqbuzarliklarini aniqlashni boshqarishning nazariy asoslari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar olindi. Huquqbuzarliklarni tartibga solish, boshqarish yo‘llari sifatida quyidagi takliflarni keltirmoqchimiz:

- ✓ soliq solish tizimini soddalashtirish va uni mavqeini ko‘tarish;
- ✓ barcha faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy shaxslarni qamrab olish maqsadida qat‘iy belgilangan soliqlar summasini keskin kamaytirish;
- ✓ fuqarolar tomonida xarid cheklarini to‘pshirishni rag‘batlantirish yanada takomillashtirish choralarini ishlab chiqish;
- ✓ qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni biznes yuritishdagi joriy amaliyotga moslashtirish;
- ✓ o‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlari natijalarini ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish tartibini joriy qilish;
- ✓ yashirin iqtisodiyotga ta‘sir qiluvchi omil sifatida korrupsiyani qisqartirishga erishish.
- ✓ avtomatik savdo ko‘rsatish terminallarini keng ko‘lamda joriy etishni rag‘batlashtirish zarur bo‘ladi.

Yuqoridagi belgilangan barcha choralar-tadbirlar soliq huquqbuzarliklarini nazorat qilish imkonini tug‘ilishiga, kichik tadbirkorlikni qo‘llab quvatlashga hamda sohadagi huquqbuzarliklarni oldini olishga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Soliq yukini kamaytirish va sohani raqamlashtirish vazifalari belgilandi” Davlat soliq qo‘mitasida sohani takomillashtirish bo‘yicha navbatdagi vazifalar yuzasidan yig‘ilishi yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan. https://uza.uz/oz/posts/soliq-yukini-kamaytirish-va-sohani-raqamlashtirish-vazifalari-belgilandi_355875?q=%2Fposts%2Fsolliq-yukini-kamaytirish-va-sohani-raqamlashtirish-vazifalari-belgilandi_355875
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon.
3. N. Toshmamatov, X. Kamolov, I. Nosirov, S. Toshmamatov. Audit. O‘quv qo‘llanma. – Andijon – 2018, – 300 b.
4. Носиров И.А.(2017).The role of the ecological management on the developing of small business. Theoretical & Applied Science. January 2017, 45 (01), 120-123 p.
5. Z.Qurbonov, P.Yo‘ldoshev «Tadbirkorlik faoliyatida buxgalteriya hisobi va auditning huquqiy qoidalari» - T.: Adolat, 2002.
6. I.Jamolov «Yashirin iqtisodiyot va uning ko‘lamini qisqartirish mexanizmlari» «Bozor, pul va kredit» № 1 (80) 2004 y.
7. T.Toshmurodov «Soliqlar izohli lug‘at» - T.: Mehnat – 2003.

8. Z.Qurbonov, A.Maxmudov “Xufyona iqtisod va soliq huquqbuzarligi” Risola, Farg‘ona-2004 y,76-b

9. Z.N.Qurbonov, K.M.Misirov. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik.Toshkent. “Iqtisod-moliya” -2019 yil.

10. I.Ismanov, N.Toshmamatov, S.Buzrukxonov. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. Toshkent. “Sano-standart”-2019 yil.

11. Борьба с теневой экономикой в России: частные аспекты общих проблем//Финансовый журнал №6 2016

12. J.Kuchimov “Raqamli texnologiyalarni bank-moliya tizimida qo‘llashning samarali yo‘llari” Eurasian Journal Of Academic Research www.innacademy.uz

ТАБАРРУК УСТОЗ САЙЁРА ШАРАФОВНА РАШИДОВА ТАВАЛЛУДИНИНГ 80-ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНАДИ

Бугун Ўзбекистон мустақил давлат сифатида жаҳондаги ўз ўрнини эгаллаш учун астойдил қаракат қилмоқда. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев: “Биз рақобат эмас, балки ҳамкорлик йўлидан борамиз”, деб айтган даъватлари амалга ошиб бормоқда. Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти билан очиқ ва ўзаро ҳамжиҳатликда мулоқот қилишга интилоқда. Янги ренессанс-уйғониш даври илм-фан чироғини



порлашини тақозо этади. Ал-Хоразмий, Беруний ва Ибн Сино, алгебра, физика ва тиббиёт илмлари билан жаҳон илмини бойитган бўлса, Улуғбек ва Бобур мирзо Само ва инсон қалби тартибини билишга ҳаракат қилган эдилар. Бугун Ўзбекистон фани дарғалари - академиклар дейилади. Бироқ улар орасида аёллар жуда оз. Янги Ўзбекистонда аёл ва қизларимиз учун барча жабҳаларда ўзларини намоён этиш учун барча имкониятлар очилмоқда. Академик Сайёра Шарафовна Рашидова бу йил 80 ёшга кирдилар. Дастлаб, устозни ушбу табаррук ёш билан чин қалбдан табриклар эканмиз, уларга сихат-саломатлик тилаб илм йўлида ҳорманг, деймиз. Сўнгра уларнинг илмий мактабида фаолият олиб бораётган кўплаб ёш олималарга ҳам Ўзбекистон полимерлар фанини янги ёғдулар билан тўлдиришларини истаб қоламиз.

Устоз ҳамиша: “Буюк келажак сари илм-фанни юксалтириш йўли билан боришимиз керак. Биргаликда ҳаракат қилиш илмини эгалламай туриб бу йўлдан юра олмаймиз”, деб уқтириб келадилар. Жаҳон илм - фан тараққиётига назар солсак инсоният тарихида унинг бир нечта юксалишлар даври бўлганлигини кўраемиз. Қадимги Миср эҳромларининг маҳобатида ҳам, албатта илм бор эканлигини тушунамиз. Бугун Юнонистон геометрияси замонавий илм ибтидоси сифатида жаҳон

микёсида тан олинган. Геометрия нафақат Она Сайёрамиз - Ерни ўлчашни, балки микро ва макро олам сирларини ҳам билишга ёрдам берган эди. Йигирманчи асрда эса илм-фан Эвклид геометрияси чегарасини ҳам кўрсатишга эришди. 1915 йилда Эйнштейн фазо ва вақтни ҳам нисбий эканлигини исботлар экан, у ҳам Риман геометриясидан фойдаланиб ўзининг нисбийлик назариясини яратишга эришди ва унинг ёрдамида гравитация майдони таъсирида фазонинг ҳам эгриланиши мумкинлигини кўрсата олди. Бугунги кунда эса янги геометрия - фрактал геометрия илм-фан соҳасига кириб келмоқда. Синергетика номи билан аталаётган янги фан туфайли фрактал геометрия шу пайтгача алоҳида ўрганиб келинаётган детерминистик ва стохастик жараёнларни ягона асосда ўрганиш учун қўлланилмоқда. Синергетика кўп қисмлардан ташкил топган мураккаб тузилмалардаги жараёнларни тартиб параметрини топиш муҳим эканлигини кўрсатиб берди. Барча қисмлар, улар қай даражада кўп бўлмасин, фақат тартиб параметрига бўйсунди. Полимерлар фани соҳасида макромолекула тушунчаси муҳим ҳисобланади. Полимернинг тартиб параметри сифатида макромолкуланинг нанофрактал шаклдаги тузилмасининг физикавий ва кимёвий хоссаларини ўрганишга эътибор қаратиш зарурлигини биламиз.

Ҳар қандай нарса ҳақида икки қарама – қарши фикрни юргизиш мумкин. Ҳар-бир илм-фан соҳиби ҳақиқат гўзал бўлишини ва ҳар қандай нарсада тартиб бўлгандагина у гўзал бўла олишини билмоғи лозим. Буларни мухтарам устоз билан кўп йиллар давомида ҳамкорликда ўтказган илмий тадқиқотларимиз давомида тушундик. Устоз илм-фан ҳақиқатлари муҳокама ва музокара туфайли эришилади. Бироқ уни ҳеч қачон “тўполонга” айлантириш мумкин эмас, деб кўп бор таъкидлаганлар. Ёшлар чет тилларни ҳам билиши керак, бироқ, дастлаб устозларидан ўрганаётган илмларнинг асосий тушунчаларини маъносини яхши ўрганиши ва сўнгра мавжуд илмий атамаларни бошқа тиллардаги ифодаларини ўзлаштиргани маъқул эканлигини ҳамиша уқтириб келадилар. Устоз илм-фан сифати ва самардорлигини оширишда назарий ва амалий ишлар ўртасидаги алоқани кучайтириш муҳим эканлигини, шунингдек назарий билимларсиз мисоли ожизмиз, бироқ тасаввурларимиз қай даражада реалликка мос келишини фақат тажриба асосидагина билишимиз мумкинлигини тинмай уқтириб келганлар. Полисахаридлар оиласига мансуб, хитин ва пахта каби табиий хом-ашёларни кимёвий такомиллаштиришни янги нанотехнологиялари ёрдамида фармацевтика ва қишлоқ хўжалиги учун муҳим аҳамиятга эга бўлган хитозан ва унинг аскорбат хитозан каби турли ҳосилалари синтез қилиниб, уларнинг биологик фаоллиги ва реакцияга мойиллигини бошқаришга доир кимёвий, физикавий ва техникавий масалалари ечилган. Бугунги кунда ушбу янги илмий йўналиш “Нанокимё, нанофизика ва нанотехнологиялар” деб номланмоқда ва ушбу ихтисослик бўйича кўплаб фан докторлари етишиб чиқмоқда. Пахта чигитини униб чиқишида салбий ташқи омиллардан ҳимоя қилиш ва чигитни ички ресурсларини уларга ўзаро мувофиқ тарзда фаоллаштиришнинг синергетикавий назарияси ишлаб чиқилиб, бугунги кунда унинг асосида янги “капсуллаштириш” технологияси мукамаллаштирилмоқда. Ушбу технология нафақат қишлоқ хўжалигида, балки тиббиётда ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унинг хужайра микёсидаги жараёнларга селектив таъсир ўтказиш

имкониётларини мавжудлиги билан алоҳида эътиборга лойиқдир. Хусусан саратон касаллигини барвақт аниқлаш ва уни даволашга “наноконтейнер”лардан фойдаланиш бўйича жаҳон миқёсида ҳам ушбу йўналишда тадқиқотлар олиб борилмоқда.

С.Ш.Рашидова нафақат полимерлар фани соҳасидаги таниқли олима, балки жамоатчи арбоб сифатида ҳам кенг оммага танилган жонкуяр инсондир. Ўзбекистон кимё журнали муҳаррири, Ўзбекистон Олий Аттестация комиссияси қошидаги Махсус кенгаш раиси, Таълим, индустрия ва санъат халқаро академиясининг ҳақиқий аъзоси (АҚШ), Ўзбекистон-Польша халқаро жамиятининг раиси (1995-2015), Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг депутати сифатида 1995 йил декабрида Ўзбекистонни БМТ даги Инсон ҳуқуқлари бўйича Омбудсмен вакили этиб тайинланган ва 2015 йилгача фаолият кўрсатган. Ушбу лавозимда кўплаб халқаро форумларда иштирок этган ва инсон ҳуқуқларига оид юздан ортиқ рисоаларни чоп этган. Жаҳон Омбудсмени, Ўзбекистонда Омбудсмен, Инсон ҳуқуқлари мониторинги ва Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ҳимояси номли қатор рисоаларнинг муаллифи ва масъул муҳаррири бўлган. Шунингдек «Демократизация и права человека», «Общественное мнение, Права человека» ва шу каби қатор журналларнинг таҳрир ҳайъати аъзоси сифатида фаолият кўрсатган.

Бугун Ўзбекистон ёшлари, илм йўлидан жадал одимлаб бораётганликларини барчамиз алоҳида ҳис этмоқдамиз. Академик Сайёра Шарафовна Рашидова кўп йиллар давомида ва бугун ҳам ҳормасдан давом этаётган илмий фаолияти таҳсинга сазовордир. Устознинг ибратли фаолияти ва чуқур илмий фикрлари, ёш олим ва олималаримизнинг бугунги кунда олиб бораётган бунёдкорик ҳаракатларининг катализатори бўлиб қолади, албатта.

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK” ILMIY-TEXNIKA JURNALI

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Ilmiy maqolalarga qo‘yilgan talablar:

1. Maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.
2. Maqola birinchi betining yuqori qismida muallif to‘g‘risida ma‘lumotlar ko‘rsatilishi kerak: (famiyasi, ismi, otasining ismi to‘liq ko‘rsatilishi kerak, ish joyi va lavozimi, ilmiy darajasi (agar mavjud bo‘lsa) va unvoni, e-mail va muloqot telefonlari).
3. Maqola 3 ta (o‘zbek, rus va ingliz) tillaridagi Annotatsiya bilan elektron variantda va qog‘oz shaklida to‘ldirilib, muallif tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak. **Maqola 5 sahifadan kam bo‘lmagan**, A4 formatda, 12pt. shriftida, 1,15 intervalda, yuqoridan, o‘ngdan, chapdan, pastdan 25mm joy qoldirib, MS-Word 2003-2010 dasturida, Times New Roman shriftida rasmiylashtirilishi lozim.
4. Maqola tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha fan doktorining rasmiy taqrizi hamda chop etish mumkinligi haqida ekspertiza xulosasi bilan birga qabul qilinadi. SHu bilan birga, tahririyat maqolani qo‘shimcha ravishda taqrizga taqdim etishi va ushbu taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo‘yicha tegishli qarorga kelishi mumkin.
5. Maqoladagi ma‘lumotlar, faktlar va statistikalarining **to‘g‘riligiga mualliflar mas‘uldir**.
6. Maqolada albatta jadval (chizma yoki rasm)lar manbalari aniq ko‘rsatilishi, qisqartma so‘zlarga izoh berilishi lozim.
7. Maqolalarning nomi, qisqacha annotatsiyasi, tayanch so‘zlar (5-6 qator) 3ta tilda (o‘zbek, rus va ingliz tillarida) beriladi.
8. Maqola ichidagi **havolalar** “[1]” kabi tartibda belgilanadi. Maqola so‘ngida **foydalanilgan adabiyotlar** foydalanish ketma-ketligi bo‘yicha yozilishi kerak.
9. Ilmiy maqolalar tahririyatga kelib tushish tartibi bo‘yicha jurnal sonlarida ketma-ketlikda chop etilib boriladi. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.
10. Chop etishga tayyor maqolalar tahririyatga mualliflar tomonidan to‘ldiriladi yoki muallifning manzili (boshqa manzil uchun) ko‘rsatilgan holda po‘chta orqali jo‘natiladi
11. Ilmiy maqolalar mualliflarining huquqlari O‘zbekiston Respublikasining 20.07.2006 yilda qabul qilingan “**Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida**”gi Qonun asosida himoyalanaadi.
12. Diqqat! Maqolaning oxirgi sahifasi albatta muallif(lar) tomonidan imzolangan bo‘lishi shart.

e-mail: andmi.jurnal@mail.ru

Tel: (74) 223-44-09.

Web sayt: www.andmiedu.uz

Muharrirlar: X.Akbarov, M.Jo‘raxonov, O.Mirzayev.

АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ
“МАШИНОСТРОЕНИЕ” НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

К СВЕДЕНИЮ АВТОРОВ!

Требования, предъявляемые к статьям:

1. Статьи могут быть на **узбекском, русском и английском** языках.
2. В верхней части первой страницы должны быть приведены сведения об авторе (авторах) (фамилия, имя, отчество, место работы и должность, ученая степень, e-mail, номер телефона).
3. Статья должны быть представлена в электронном и распечатанном вариантах и подписана автором (авторами). Объем статьи должен быть **не менее 5 страниц**. Работа должна быть распечатана на бумаге формата А4, междустрочный интервал - 1,15. Страницы должны иметь поля: левое – 25 мм, правое - 25 мм, верхнее – 25 мм, нижнее – 25 мм, Текст печатается в программе MS-WORD 2003-2010 шрифтом Times New Roman, размер 12 пт.
4. Статья должна предоставляться вместе с официальной рецензией доктора наук по соответствующей области исследования и актом экспертизы о возможности опубликовании статьи. Вместе с этим редакция имеет право потребовать предоставления дополнительной информации от авторах и подать работу на дополнительную экспертизу, на основе результатов которой, будет решен вопрос об издании статьи.
5. Ответственность за достоверность сведений, фактов и статистических данных несёт только **автор статьи**, редакция не несёт никакой ответственности.
6. Статья в обязательном порядке должна содержать точные источники таблиц (чертежей, рисунков), должен быть объяснен смысл сокращённых слов.
7. Название, краткие аннотации (5-6 строк) и ключевые слова статей должны быть представлены на трёх (узбекском, русском и английском) языках.
8. **Сноски** в статье должны быть указаны в квадратных скобках, например [1]. В конце статьи **список использованной литературы** должен быть составлен в порядке использования.
9. Научные статьи печатаются в порядке их поступления в редакцию. Статьи, не отвечающие приведенным выше требованиям, редакцией не рассматриваются.
10. Статьи в распечатанном виде авторы сдают в редакцию или высылают почтой с указанием обратного адреса (для иногородних).
11. **Авторские права** научных статей охраняются принятым 20.07.2006 года законом «Об авторском праве и однородных правах».
12. **ВНИМАНИЕ!** На последней странице обязательно ставится подпись автора(ов) статьи.

e-mail: andmi.jurnal@mail.ru

Тел: (74) 223-44-09.

Web сайт: www.andmiedu.uz

Редактор: Х.Акбаров, М.Жўрахонов, О.Мирзаев

ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

“MACHINE-BUILDING” SCIENCE-TECHNICAL JOURNAL

For the authors:

1. Required criteria for submitted articles:
2. Articles can be in **uzbek, russian and english**.
3. At the top of the first page should be given information about the author (authors) (last name, first name, middle name, place of work and position, scientific degree, e-mail, phone number).
4. Articles should be submitted in electronic and printed versions, signed by the author (s). **The article should be organized as follows: no less than 5 sheets**, in A4 format, in the range of 1,15. Above, on the right, on the left, on the bottom, leave 2.5 cm, in the MS-WORD 2003-2010 program, at 12 pt. font Times New Roman.
5. This article in a particular specialty should be provided along with the official review of the doctor of science in the field of study and the act of examination of the possibility of publishing the article. At the same time, the editors have the right to require the provision of additional information from the authors and submit for additional expertise, on the basis of the results of which the issue of publishing the article will be decided.
6. Responsibility for the accuracy of information, facts and statistics is only the author of the article, the editors are not responsible.
7. The article must necessarily contain the exact sources of the tables (drawings, drawings), the meaning of the abbreviated words must be explained.
8. The title, brief annotations (5-6 lines) and keywords of the articles should be provided in three (Uzbek, Russian and English) languages.
9. Footnotes in the article should be listed as - [I]. At the end of the article, the list of references should be written in order of sequence.
10. Scientific articles are printed in the order in which they are received by the editor. Articles that do not meet the above requirements of the editors are not considered.
11. Authors submit articles in printed form to the editorial office or send them by mail indicating the return address (for non-residents).
12. The copyrights of scientific articles are protected by the Law “On Copyright and Homogeneous Rights” adopted on July 20, 2006.

ATTENTION! The last page must be signed by the author (s) of the article.

e-mail: andmi.jurnal@mail.ru

Tel: (74) 223-44-09.

Web site: www.andmiedu.uz

Editor: X.Akbarov, M.Jo‘raxonov, O.Mirzaev.

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

ILMIY-TEXNIKA JURNALI

M A S H I N A S O Z L I K

№2, 2023 yil

Nashriyot litsenziya № 8476-245f-3bca-842e-f357-6890-1103
2020-08-18 / 1704

Nashr etishga 2023-yil 15-iyulda ruxsat berildi.

“Times New Roman” garniturasida ofset bosma usulida nashr etildi.

Bichimi 60x84/8.

Shartli bosma tabogʻi 17,3

Nashr bosma tabogʻi 17,3

Adadi 100.

Buyurtma № 05/23

“Andijon mashinasozlik instituti nashriyoti” bosmaxonasida nashr etildi.

Manzil: Andijon shahri, Bobur shox koʻchasi 56-uy.

www.andmiedu.uz